

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

NIG‘MATJON SHARIPOV

XALQ KUYLARINI NOTALASHTIRISH

(XALQ CHOLG‘ULARI)

5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (xalq cholg‘ulari) bakalavriat ta‘lim
yo‘nalishining 2-kurs talabalari uchun darslik

TOSHKENT – 2022

Sharipov Nig'matjon. Xalq kuylarini notalashtirish (xalq cholg'ulari): 5150700 – Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari) bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-kurs talabalari uchun darslik /N.Sharipov. - Toshkent: "Musiqqa", 2022. 128 b.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining

2022 yil 17 martdagi 106-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya

etilgan

Mas'ul muharrir:

B.AZIMOV - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

A.MANSUROV - professor

O'.TOSHMATOV – professor

Mazkur darslik oily o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, xalq kuylarini notalashtirish mahoratini shakllantirish masalalariga bag'ishlangan. Unda amaldagi o'quv dasturiga muvofiq nota yozuvining kelib chiqishi, rivojlanishi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar, xalq kuylarini notalashtirish faoliyati bilan shug'llangan olim va san'atkorlar, notalashtirish jarayonini tashkillashtirish uchun zarur bo'lgan uslubiy va amaliy ko'rsatmalar keltirilgan.

Настоящий учебник предназначен студентам высших учебных заведений и посвящен вопросам формирования у студентов мастерства записывания в ноты народных мелодий. В нем согласно действующему учебному плану приводятся исторические сведения о происхождении и развитии нотной записи, об ученых и деятелях музыкального искусства, которые занимались вопросами нотирования народных мелодий, а также методические и практические указания, необходимые для организации процесса нотирования.

This textbook is intended for students of higher educational institutions and is devoted to the formation of students' mastery of writing down folk melodies. According to the current curriculum, it provides historical information about the origin and development of musical notation, about scientists and musicians who dealt with the notation of folk melodies, as well as methodological and practical instructions necessary for organizing the notation process.

1-dars: K I R I SH

Keyingi yillarda respublikamizning barcha sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. By islohotlar san‘at, xysysan musiqa san‘ati sohasiga ham bevosita tegishli. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi PF-6000-sonli «Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish, uning ta’sirchanligini yanada oshirishni ko‘zda tutadi. Farmonda ta’lim muassasalarini musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minlashning yaxlit tizimi yaratilmaganligi ta’kidlash bilan bir qatorda tegishli vazirlik va tashkilotlar oldiga 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab notalar to‘plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlarni Davlat buydjeti mablag‘lari hisobidan chop etilishi va ularni ta’lim muassasalariga to‘liq yetkazilishi vazifa qilib qo‘yilgan.

Shu vazifalarni bajarishda mazkur darslik kichik bir ulush bo‘ladi hamda musiqa san‘ati sohasidagi o‘quv adabiyotlari zahirasini to‘ldiradi degan umiddamiz.

O‘zbek milliy musiqa merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Bu bebaho merosni ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganish, o‘zlashtirish ishlariga so‘nggi yillarda tobora ko‘proq e’tibor berilmoqda.

Tarixdan ma’lumki, o‘zbek milliy musiqa namunalari an’anaga ko‘ra, ustoz shogirdiga og‘zaki tarzda o‘rgatgan. Ya’ni, ustoz ijro etgan musiqa yoki ashulani uning shogirdi takrorlashi va shu asosda o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan. Bu bir tarafdin, shogirdning tinglash va xotirada saqlab qolish qobiliyatini rivojlantirgan. Boshqa tomondan esa, bu jarayonda ustoz o‘z shogirdining xato-kamchiliklarini ko‘rsatgan, shu bilan birga, shogirdning tarbiyasi ham ustozning zimmasida bo‘lgan.

O‘zbek xalq musiqa namunalari har qanday xalq ijodi kabi mehnatkashlarning orzu-umidlari, ularning turmush va ahloqi, milliy ozodlik uchun kurashning ifodasi sifatida gavdalanadi. O‘zbek xalq musiqasining mavzu jihatdan serqirraligi, janrlarga boyligi va tutgan o‘rnining xilma-xilligi ham ana shu bilan bog‘liqdir.

Mana shunday boy merosni yoshlarimiz qunt bilan o‘rganishlari qatorida shu kuylarni notaga tushirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari barkamol, har taraflama bilimga ega mutaxaasislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, bu borada uyqori professional bilim tajribasiga ega bo‘lgan sozandalarni tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O‘zbek xalq musiqasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni notaga olish, to‘plamlar yaratish va uni o‘quv jarayoniga tatbiq qilishda ma’lum tajriba to‘plangan. Lekin hozirgacha notaga olinmagan xalq musiqasi namunalari talaygina. Shu sababli oliy ta’lim muassasasi talabalari o‘zlari

istiqomat qiladigan hududlarga xos bo'lgan xalq musiqa namunalari bilan yaqindan tanishib, ularni o'rganish bilan bir qatorda, ularni notalashtirish ishlari bilan shug'ullansalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bu narsa bir tarafdin talabalarning bilim-ko'nikmalarini, shu boradagi tajribalarini mustahkamlasa, boshqa tomondan xalq musiqa merosini notalashtirish yo'li bilan ushbu merosni kelasi avlodlarga yetib borishini ta'minlaydi.

«Xalq kuylarini notalashtirish» fani xalq musiqa merosini o'rganish, uni o'z cholg'usida ijro etish, kuylash hamda notaga olish kabi bilim va ko'nikmalarini o'rgatishga qaratilgan. Shu bilan birga, notaga tushirilayotgan musiqa asarining shakli, o'lchovi, xarakteri va hokazolarni tahlil qilish talabalar oldiga qo'yiladigan asosiy talablar sirasiga kiradi.

Talabalar «Xalq kuylarini notalashtirish» fanini o'rganish jarayonida zamonaviy texnika vositalari, ovoz yozish uskunalari, kompyuter, nota yozish dasturlarini ishlata olishlari kerak.

Mazkur darslikdan tarixiy ma'lumotlar, xalq musiqasini notalashtirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'rganish va o'rgatish masalalari, xalq musiqa namunalaridan misollar, hamda talabalar uchun asosiy ko'rsatmalar o'rin olgan.

2-dars: XALQ KUYLARINI NOTALASHTIRISH FANINING MAZMUNI VA AHAMIYATI

San'at – voqelikning inson ongida aks etishi shaklidir. Biroq bu aks etish hayot haqiqatining to'g'ridan-to'g'ri ifodalash bo'lmay, balki hayot to'g'risida chuqur bilimga asoslangan va hayotni san'atkorning ijodiy tafakkuri hamda tasavvuri orqali ifodalangan badiiy haqiqatdir. Ushbu ifodalashning natijasi sifatida badiiy obrazni ko'rishimiz mumkin. Har-xil san'at turlarining mavjudligi insonning borliqni iloji boricha to'liqroq ko'rsatib berishga bo'lgan intilishi bilan bog'liq. Har bir san'at turining o'ziga xos xususiyatlari bor. Musiqa san'atida buni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Musiqa ifodaviy san'at turi bo'lib, u his-tuyg'ular, turli kayfiyat, kechinmalar, munosabatlar, hissiyotlar va hokazolarni ifodalaydi. Spu xususiyati bilan musiqa san'ati tasviriy san'at (rassomchilik, haykaltaroshlik va h.k.), adabiyot, teatr, kinodan sezilarli darajada ajralib turadi. Spu bilan birga musiqada tasviriy jihatlar (suv to'liqini shovqini, qushlarning sayrashi va h.k.) ham borki, ular tovushlar o'xshatishi bo'lib, hissiyotlar bilan bog'langan.

Musiqa – vaqt oralig'ida ifodalanadigan san'at turi bo'lib, shu tufayli his-tuyg'ular, kayfiyat almashinuvini aks ettiradi. Musiqa san'ati asarlari makonda emas, balki vaqt oralig'ida joylashgan. Musiqa shunisi bilan makondagi san'at turlari (rassomchilik, haykaltaroshlik, arxitektura) va bir vaqtning o'zida makon hamda zamonda joylashgan san'at turlari (raqs, teatr, kino)dan ajralib turadi.

Musiqa san'atida tovushlardan foydalaniladi va insonning tinglashiga mo'ljallangan. Musiqa kuy-ohang san'ati sifatida qabul qilinadi. Ohang (musiqaning asosiy birligi, uning «mag'izi») ko'pchilik insonlar tomonidan bir xil tushuniluvchi (tananavorlik, yig'i va h.k.) axborotni o'zida mujassamlashtiradi. Ohanglardan kuy tashkil topadi, o'z navbatida kuy yaxlit, tugallangan tuzilmaga ega.

Musiqa ijrochilik bilan bog'liq. U musiqa yaratuvchisi va tinglovchi o'rtasida vositachini talab etadi, bu vositachi ijrochi bo'lib, u musiqa asaridagi hissiyotlar va ma'no mohiyatni go'yo «mag'zi»ni chaqib beradi. Asarning qabul qilinishi va unga bo'lgan qiziqish ko'p hollarda ijroning sifati va mazmun-mohiyatiga bog'liqdir.

Musiqa musiqiy obrazlar orqali «fikrlaydi», bu fikrlar musiqa ifodaviyligi orqali aks ettiriladi. Obrazlarni shartli ravishda quyidagi asoslar bo'yicha tasniflash mumkin:

1. Musiqada qanday voqelik yoki ob'ekt aks ettirilganligi, ifodalanilayotgan voqelikning ma'naviy mohiyati (ezgulik va yomonlik, yorug'lik va zulmat va h.k.).

2.Obrazning ma'nosi (lirik, dramatik, qahramonona va h.k. obrazlar).

3.Uslub va badiiy yo'nalishi (klassik (mumtoz), romantik va h.k.).

Musiqaning nota yozuvi. Tovush – bu biror jism harakati orqali havoning tebranishidir. Hamma tovush ham musiqiy tovushlar sirasiga kirmaydi, shovqinli tovushlar ham mavjud. Musiqa tovushi muayyan balandlikka ega va u musiqiy tizimga kiradi. Musiqa tovushining fizik xususiyatlariga uning balandligi, cho'zimi (davomiyligi), kuchi (qattiq yoki sekin jaranglashi), tembri (tusi) kiradi.

Zamonaviy olimlarning fikricha, nota yozuvi musiqa tarixiga o'zining kuchli ta'sirini o'tkazdi.

Musiqa, kitobdagi matndan farqli o'laroq maxsus qisqartirishlar yordamida yoziladi. Kitobning mazmunini tushunish uchun kitobni ovoz chiqarib yoki ovoz chiqarmasdan o'qib chiqish kifoya, shunda bo'lib o'tayotgan voqealar haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Musiqaga kelsak, notalarni oddiy tarzda «o'qib», undagi ohang, kuy haqida to'liq tasavvurga ega bo'la olmaymiz. Musiqachi sozandalar tomonidan foydalanadigan maxsus ramziy belgilarning mavjudligi juda muhimdir. Aynan shu belgilar musiqaning to'laqonli ijrosi uchun bu yerda qo'l keladi.

Tashqaridan qaraganda nota belgilari ulardagi yozilgan tovushlar bilan hech qanday aloqasi yo'qqa o'xshab ko'rinishi mumkin. Aslida esa bunday emas. Professional sozanda uchun bu belgilarni «o'qib» ijro etish xuddi oddiy odam uchun alifboni o'qish bilan barobardir.

Eng murakkab nota yozuvi partitura deb ataladi. Partitura – ansambl, xor yoki orkestr ijrosiga mo'ljallangan ko'p ovozli musiqa asarining nota yozuvi bo'lib, unda barcha partiya (ovozlar) muayyan tartibda berilgan bo'ladi. Ayrim cholg'ular uchun yozilgan nota matnlari o'ziga xos «kalit»larga ega, boshqacha qilib aytganda, ularning xususiy yozuv tamoyillari bor. Orkestrni boshqaradigan dirijyor partiturada bir necha o'nlab satrlarni ko'radi va ichki eshitish qobiliyati yordamida bu satrlardagi nota yozuvlarining birgalikdagi sadolanishini tasavvur qiladi.

Sozanda o'z cholg'usida nota matni asosida ijro etganda ham o'zining ichki eshitish qobiliyati asosida ijro etilayotgan asarni tasavvur qiladi. Bunda nota matni, o'ng va chap qo'llar harakatining mutanosibligini ta'minlash ko'nikmasi davomli mashqlar yordamida shakllantiriladi.

Musiqa san'ati amaliyotida «musiqiy madaniyat» atamasi qo'llaniladi. Musiqiy madaniyat deganda biz avvalo musiqiy savodxonlikni, musiqa tinglaganda undagi asosiy xususiyatlarni ajratib o'la bilishlik, musiqa asarining mazmun-mohiyatini chuqur tushuna olish kabi bilim va ko'nikmalarni nazarda tutishimiz zarur.

Insoniyatning buuyk kashfiyotlaridan biri – nota yozuvisiz hozirgi zamon musiqa san’atini umuman tasavvur qilib bo’lmaydi. Eng mahobatli musiqiy asarlar – opera, balet, simfoniya, oratoriyalardan tortib kichkintoylar uchun mo’ljallangan kichkina asarlargacha nota yozuvi yordamida qog’ozga muhrlab qo’yilgan. Bu asarlarni maxsus ma’lumotga ega bo’lgan mutaxassis – musiqachilar o’zgalarning bevosita ishtirokisiz ijro etishi, tahlil qilishi mumkin.

Xo’sh, nota yozuvi yo’lga qo’yilgandan so’ng qanday imkoniyatlar paydo bo’ldi? Bizningcha bu savolga quyidagicha javob berish mumkin:

1. Musiqa asarlarini nota yozuvi yordamida qog’ozga muhrlab qo’yish va mazkur asarlarni boshqalarga (kelasi avlodlarga) yetkazish.

2. Nota yozuvlari asosida sozanda yoki xonanda musiqa asarini mustaqil tarzda ijro etishi, tahlil qilishi va h.k.

3. Musiqa asari muallifi nota yozuvi va maxsus belgilar yordamida musiqa asarining butun mazmun-mohiyati va xususiyatlarini maksimal darajada ko’rsatib berishi.

4. Muayyan musiqa asarining nota yozuvlarini jonli (audio yoki video) ijro bilan taqqoslash asosida mazkur musiqa asarini yanada chuqurroq o’rganish.

Mavzu bo’yicha savol va topshiriqlar:

1. Musiqa nimalarni ifodalashi haqida gapirib bering.

2. Musiqani san’atning boshqa turlaridan ajratib turadigan jihatlar nimalardan iborat?

3. Musiqaning asosiy birligi, uning «mag’izi» nima?

4. Musiqiy tovushning fizik xususiyatlariga nimalar kiradi?

5. Eng murakkab nota yozuvining nomini ayting.

6. «Musiqa madaniyat» atamasining mazmun-mohiyati to’g’risida so’zlang.

7. Nota yozuvi yo’lga qo’yilgandan keyin qanday imkoniyatlar paydo bo’ldi?

Adabiyot:

1. Mirziyoev Sh.M. Buuyk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017.

2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish

tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatasining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi PF-6000-sonli «Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni

4. Jabborov A.X., Begmatov S.M., A‘zamova M.R. O‘zbek musiqasi tarixi. T., 2018.

5. Tursunov R. Xalq musiqasini notalashtirish. O‘quv qo‘llanma. T., 2008.

6. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., 1993.

7. Matyoqubov O. Maqomot. T., 2004.

8. Uynusov R. O‘zbek xalq musiqa ijodi. 2-qism. To‘plam. T., 2000.

Internet saytlari:

1. <http://www.youtube.com>

2. <http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiq>

3. [www.musikauz](http://www.musikauz.com)

4. <http://portasound.ru/music-search/musiq>

3-dars: FANNING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI

«Xalq kuylarini notalashtirish» predmeti avvalo professional musiqachi – sozanda, har taraflama yetuk insonni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. San’at, xususan musiqa san’ati ta’lim muassasalari talabalarini o‘zlarining san’at vositalari yordamida uyksak madaniyat va ahloqni targ‘ib qiluvchi faoliyatga tayyorlab boriladi. Bu faoliyat turli konsert chiqishlarda, sahnada va umuman kundalik ijtimoiy ishlarda o‘zini talab darajasida tutishlari orqali namoyon bo‘ladi.

«Xalq kuylarini notalashtirish» fanidan dars berishda o‘qituvchi-ustozning faoliyati muhim ahamiyatga ega. Uning nazariy bilimlari, fanni o‘rgatishdagi uslubi mazkur ta’lim muassasasidagi o‘qitish tizimiga qanchalik mos tushishi talabani to‘g‘ri tayyorlashda hal qiluvchi omillardan biridir.

Ushbu predmet kelajakda musiqa-ijrochilik yoki o‘qituvchilik bilan shug‘ullanuvchi bo‘lajak mutaxassis uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda asosiy omillardan biridir.

«Xalq kuylarini notalashtirish» fanini musiqachi-sozandani tarbiyalash o‘quv jarayonining uzviy qismi sifatida tushunishimiz zarur. O‘qituvchi-ustoz o‘z predmeti vositasida tarbiyalanuvchining har taraflama rivojlanishi uchun zamin yaratadi. O‘qituvchi talabada xalq kuylariga, realistik san’atga, undagi mazmun va shaklning birligiga muhabbat uyg‘ota olishi zarur.

Xalq kuylari o‘zining jozibadorligi, mazmuni jihatdan oddiy insonlar hayotiga aloqadorligi, turli kechinma, his-tuyg‘ularni ifodalay olishi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, xalq kuy va qo‘shiqlarining ifodaviy imkoniyatlarini o‘rganish musiqiy merosimizni o‘zlashtirish, uni tadqiq qilishda ijobiy natijalar beradi. Aynan shuning uchun ham bo‘lajak musiqachi-sozanda bu merosni o‘rganishi uning kelajakdagi faoliyatida qo‘l kelishi shubhasiz.

Predmetning amaliyoti va uslubiyoti faqat o‘zining tajribasidan kelib chiqqan birgina o‘qituvchi ishlanmasiga bog‘lanib qolishi kerak emas. Shunga qaramasdan, amalda turli nuqtai-nazarlarni uchratishimiz mumkin. Agar predmetning nazariyasi va amaliyoti asosida ob‘ektiv bilim bo‘lsa, o‘qituvchi asoslangan metodikaga suyanib ish ko‘rsa, bunday o‘quv jarayoni albatta kerakli va to‘g‘ri natija beradi.

«Xalq kuylarini notalashtirish» predmetini o‘zlashtirish jarayonining o‘ziga xos bo‘lgan talablari borki, bular talabada muayyan bilimlarni puxta egallashni taqozo etadi (masalan, musiqa nazariyasi, solfedjio va b.). Aytib o‘tilgan bilimlarga ega bo‘lgan talabalar notalashtirish jarayonidagi vazifalarni talab darajasida bajarishlari mumkin.

Notalashtirish ko‘nikmalarini tarbiyalashning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan talabaning musiqani qay darajada qabul qilishi, uning oldida qanday vazifa

turganligi, uning iqtidor darajasi, qolaversa uning umumiy tayyorgarligiga bog'liq. Shu sababli ham talabning turdosh fanlarni qay darajada o'zlashtirganligi bu jarayonda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Lekin turdosh fanlarni o'zlashtirishning asosiy maqsadi notalashtirish jarayonini bajarishga qaratilishi lozim.

Ma'lumki, kuyni notalashtirish avvalo shu kuyni tinglashdan boshlanadi. Bunda tinglovchi o'z oldiga bajarilishi kerak bo'lgan aniq vazifalarni qo'yib olishi talab etiladi. Bu vazifalar tinglanayotgan kuyni har taraflama, batafsil tahlil qilish imkoniyatini berishi, kuyning umumiy kayfiyatidan tortib to undagi tovushlar yo'nalishi va boshqa xususiyatlar haqida aniq tasavvur hosil qilishga yordam berishi kerak.

Ta'lim jarayonida bir yoqlamalikka yo'l qo'yish yaxshi natija bermaydi. Ya'ni talaba har bir kuy yoki qo'shiqning o'z xususiyati bo'lganidek, shu o'ziga xoslikka o'z vaqtida moslasha bilishi zarur. Boshqacha qilib aytganda, talabada berilgan musiqa asarining o'ziga xos tomonlarini to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

«Xalq kuylarini notalashtirish» predmetining asosiy vazifasi talabada kuy yoki qo'shiqni tinglash (ijro etish), tahlil qilish asosida uni notaga tushira olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bunda talaba musiqa nazariyasi, solfedjio va boshqa fanlardan o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari notaga olish jarayonini samarali bo'lishi uchun xizmat qilishi kerak. Aytib o'tilgan fanlar bo'yicha o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni notalashtirish jarayonida qo'llay olish maqsad qilib qo'yilsa, ijobiy natijaga erishish mumkin. Bularning hammasiga amaliy mashqlarni muntazam amalga oshirish orqali erishiladi.

Notlashtirish predmetining metodikasi tarbiyaning umumiy vazifalari bilan bir qatorda o'zining xususiy vazifalarini ham bajaradi. Nisbatan qisqa vaqt ichida maksimal natijaga erishishga bo'lgan intilish pedagogik tajribada o'ziga xos uslublarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, «Xalq kuylarini notalashtirish» predmetining uslubiyoti uning boshqa turdosh predmetlar bilan bog'lanib turishini ta'minlashi juda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga turdosh predmetlar bo'yicha olingan bilim va ko'nikmalar notalashtirish jarayoniga o'zining samarali ta'sirini o'tkazishi maqsadga muvofiqdir.

«Xalq kuylarini notalashtirish» predmetining vazifalari bu jarayonda irodani tarbiyalash, eshitish va tinglash qobiliyatini rivojlantirish, notalashtirish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish kabilarni o'zida mujassamlashtirishi kerak bo'lgan pedagogik jarayonni yaratish zaruriyatidan kelib chiqadi. Buning uchun maxsus o'quv mashqlari, ya'ni kuyni tinglash, uni tahlil qilish va shu asosda notaga tushirish kabi ko'nikmalarni muntazam rivojlantirishga qaratilgan harakatlar amalga oshiriladi.

Mashqlarni bajarishda talabadagi mas'uliyat hissini shakllantirish asosiy omillardan hisoblanadi. Har bir harakat bo'yicha mas'uliyat hissini talabada mavjud bo'lishi o'zining samarasini berishi shubhasizdir. Mas'uliyat hissini shakllantirishda maxsus mashqlar bo'yicha aniq ko'rsatmalarni tavsiya qilish ancha mushkul. Har bir topshiriqni aniq bajarilishida juda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni talabaga singdirishda o'qituvchi-ustozning mashg'ulotlar vaqtidagi talabchanligi asos bo'lib xizmat qiladi.

Muayyan mavzular bo'yicha tizimlashtirilgan mashg'ulotlar eng qisqa o'quv davrida yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Bu narsa ko'plab predmetlar bilan to'lib-toshgan o'quv rejasining o'ta tig'izligi va talabalarning turli ko'plab kundalik guruhli va yakka mashg'ulotlar bilan bandligi tufayli yuzaga keladi.

O'quv jarayonining tig'izligi shunday tashkil etilishi kerakki, unda mashg'ulotning biron daqiqasi ham zoye ketmasligi kerak. Buning uchun mashg'ulotlarni namunaviy tarzda tashkil qilish, talabalardan intizomga rioya qilishlarini talab etish, amaliy darslardagi mashqlarni puxtalik bilan tanlab olish, asosiy tamoyillar va turli uslubiy yo'nalishlardan unumli foydalanish zarur bo'ladi.

«Xalq kuylarini notalashtirish» predmetining o'ziga xos tomonlaridan biri – umumiy o'quv rejadagi qator musiqiy predmetlarning mavjudligiki, bu mazkur predmetni o'qitishni bir muncha yengillashtiradi. Xususan, bu yerda gap musiqani tinglash, uni tahlil qilish va hatto notaga tushirish bilan bog'liq bo'lgan predmetlar (solfedjio, garmoniya va b.) to'g'risida ketmoqda.

Konservatoriyani tugatgan keyin talabalar mustaqil mehnat faoliyatlarida deyarli har doim pedagogik ish bilan shug'ullanadilar. Bu holda ular yosh avlodni tarbiyalash, ularga puxta bilim va ko'nikmalarni to'g'ri singdirishda mas'uldirlar. Shu sababli ham yosh mutaxassis o'quv rejadagi barcha fanlarni, xususan musiqiy-ijrochilik fanlarining mazmuni va metodikasini o'zlashtirishlari, o'z o'quvchilarining erishgan natijalarini talab darajasida nazorat qila olish imkoniyatiga ega bo'lishlari zarur.

Shunday qilib, «Xalq kuylarini notalashtirish» predmetining asosiy maqsadi – talabalarni berilgan kuylarni tinglash, ijro etish, tahlil qilish asosida shu kuylarni nota matnini yoza olish bilim va ko'nikmalari bilan qurollantirishdan iborat.

Predmetning vazifalarini bajarishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi kerak: «Xalq kuylarini notalashtirish» predmetning umumiy mazmuni bilan tanishish; maqsad va vazifalar nimadan iboratligini anglab olish, notalashtirishning tarixiy jarayonlarini o'rganish; amaliy mashg'ulotlarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlash.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Musiqa san'ati ta'lim muassasalarida talabalarni qanday foliyatga tayyorlab boriladi?
2. «Xalq kuylarini notalashtirish» predmetini o'zlashtirish jarayonining o'ziga xos qanday talablari bor?
3. «Xalq kuylarini notalashtirish» predmeti qaysi turdosh fanlar bilan bog'liq?
4. Eng qisqa o'quv davri mobaynida uyqori natijalarga erishishning asosiy omili nima?
5. «Xalq kuylarini notalashtirish» predmetining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
6. Predmetning vazifalarini bajarishda nimalarga e'tibor qaratish zarur?
7. «Xalq kuylarini notalashtirish» predmetini o'zlashtirishda asosan qaysi ko'nikmalar rivojlantiriladi?

Adabiyot:

1. Tursunov R. Xalq musiqasini notalashtirish. O'quv qo'llanma. T., 2008.
2. Музыкальная эстетика стран Востока. (общ. ред. и вст. статья В.Шестакова). Л., 1967.
3. Краевский В.В., Бережнова Е.В. Методология педагогики: новый этап: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2006. — 400 с.
4. Образцов П. И. Методы и методология психолого-педагогического исследования. — СПб.: Питер, 2004. — 268 с: ил. — (Серия «Краткий курс»).

Internet saytlari:

1. <http://www.youtube.com>
2. <http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa>
3. [www.musikauz](http://www.musikauz.com)
4. <http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami>

4-7-darslar: NOTA YOZUVI BO‘YICHA TARIXIY MA’LUMOTLAR ¹

Musiqa insoniyatning universal tilidir. Biroq, notalarni, ya’ni musiqa asarlarining maxsus yozuv belgilarini bilmasdan turib, ularni o‘qib ham, musiqa asarini grafika tarzida aks ettirib ham bo‘maydi. Nota yozuvi rivojlanishning ko‘p asrlilik, uzoq yo‘lni bosib o‘tdi va notalar har doim ham biz hozirgi kunda ko‘nikib qolgan zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lmagan.

Biz qadimda notalashtirishning kelib chiqish tarixidan boshlab hozirgi kundagi holatigacha bo‘lgan rivojlanish yo‘lini ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Unda chet el musiqa madaniyatining shakllanishidan tortib XX asrgacha bo‘lgan davrda tovushlarni grafik ifodalanishi xususiyatlari bilan bog‘liq alohida masalalar xususida so‘z uyritiladi.

Ayrim olimlarning fikricha, musiqa – bu fan, ilm. Dirjyorning ko‘z o‘ngidagi partitura musiqa asarining sur’ati (tezligi), shijoati, sadolanish kuchi, belgilangan vaqtlarni ko‘rsatuvchi grafikani eslatadi. Musiqani matematika fani bilan qiyoslash mumkin. Uning ritmi vaqtning hissalariga bo‘linishiga asoslangan va shu bilan birga bu bo‘linish qog‘ozda emas, balki ma’lum vaqt oralig‘ida, fizik tarzda amalga oshiriladi.

Musiqa – bu tarix. U o‘zi yaratilgan davrni, o‘sha mamlakatning madaniyatini aks ettiradi.

Ba’zilarning ta’biricha musiqa – bu xorijiy til. Odatda ko‘pchilik musiqa atamaları italyan, nemis yoki fransuz tillarida yoziladi. Notalarning o‘zichi? Tovushlarni stenografik tarzda yozib olingan belgilar notalar deb ataladi. Musiqani dunyodagi eng universal til desak ham bo‘ladi.

Notaning kashf etilishi – eng ulug‘ ixtirolardan biridir. U insoniyat musiqiy xotirasini abadiylashtirdi va cheksiz darajada kengaytirdi. Biror mamlakatda yozilgan notalarni istalgan mamlakat musiqachilari juda yaxshi tushunishadi, nota savodi turli tillarga tarjimani talab etmaydi, u butun dunyo uchun yagonadir.

Mashhur nemis kompozitori Luydvig van Betxoven musiqa bastalash jarayonini quyidagi unutilmas so‘zlar bilan shunday ifodalagan edi: «Men biror asarni qog‘ozga tushirishdan oldin o‘z g‘oyalarim ustida uzoq vaqt mulohaza uyritaman... Ko‘p narsalarni o‘zgartiraman, ko‘plaridan voz kechaman va keyin yana va yana, to to‘liq qanoatlanmagunimcha harakat qilaman, so‘ngra asarni kengligi, uyqori cho‘qqisi va chuqurligi bo‘yicha ongimda tahlil qilib chiqaman, chunki men nima qilishim kerakligini qat’iy bilaman, musiqaning asosiy yo‘nalishi hech qachon mendan uzoqlashmaydi. U uyksalib, o‘sib boradi. Men umumiy tasavvurni turli nuqtalardan qanday sadolanishi mumkinligini eshitaman va ko‘ra

¹ Mazkur bo‘limda asosan Ye.Razovanning “Из истории нотной записи” (Челябинск, 2015) kitobidan foydalanildi.

olaman va shundan keyingina ularni yozib olishga o'taman». Ammo nota yozuvidan ko'p yillik foydalanish tajribasisiz kompozitorlar tomonidan yaratilgan musiqa durdonalari faqat san'atkorlarning tasavvuridagina qolib ketardi.

Nota – musiqa asaridagi tovushning grafik belgilanishi, zamonaviy nota yozuvi asosiy ramzlaridan biri. U tovush baland-pastligi, cho'zimi va boshqa notalarga nisbatan ijro etilish tartibini bildiradi.

Nota (nota – lotincha belgi), **notatsiya** (*notatio* – lotincha yozib olish, belgilash) – musiqani yozib olish uchun ishlatiladigan grafik belgilar tizimi, shuningdek musiqani yozib olish.

Qadimda nota yozuvi bo'lmagan va musiqa og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tib kelgan. Musiqa ohanglarini saqlab qolishga bo'lgan katta ehtiyoj nota yozuvining paydo bo'lishiga olib keldi. Ko'plab avlodlarning sa'i-harakatlari tufayli musiqaning «jonli» sadolanishini shartli grafik yozuv – notatsiya tiliga o'tkazishning yanada takomiliga etgan tizimlari yaratila boshlandi. Turli xalqlar va davrlar nota matnlari namunalarini taqqoslaganda, ularning bir-biriga o'xshamasligini ko'rishimiz mumkin. Mavjud farqlarga qaramasdan, ularda umumiylik ham bor: musiqa maxsus belgilar yordamida ifodalanadi. Ular musiqa madaniyatining ko'p asrlik rivojlanishi davomida o'zgarib kelgan va insoniyat tomonidan hozirgi kunda ishlatilayotgan nota yozuvining shakliga kelgunicha juda ko'p davrlar o'tdi.

Ma'lum bo'lgan barcha uslublar ichida kuylarni suratlar yordamida, tinglash orqali bir-biriga yetkazish uslubi eng qadimiy hisoblanadi. Bunday yozuv namunalari qadimiy Misr yodgorliklarini o'rganish vaqtida topilgan. Turli mamlakat olimlari qadimiy musiqa yozuvlarini o'qish usullarini topish ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.


Bari shahridagi ikki nafar italiyalik olimlar – musiqashunos Anna Gabriella Kaldaralo va madaniyatshunoslik va arxeoastronomiya (bu fan ko'kdagi uylduzlarning turli tarixiy davrlardagi joylashuvini o'rganadi) sohasi bo'yicha mutaxassis Nedim Vlera – fir'avnlarni dafn qilish marosimida ijro etilgan qadimiy Misr madhiyalarning yozuvini zamonaviy nota tiliga o'tkazishga muvaffaq bo'lganliklarini ta'kidlashadi.

Ularning tahminlaricha, qadimiy misrliklar musiqani yozib olish uchun osmondagi nur taratuvchi Quyosh, Oy va uylduzlarni ifodalovchi ierogliflardan foydalanishgan. Aynan uylduzlarning joylashuviga qarab ierogliflarda nota ramzlarini sanasini qo'yishga muvaffaq bo'lingan. Vleraning guvohlik berishicha, Sirius uylduzini ifodalovchi nota belgisi ieroglifi eramizgacha to'rtinchi asr o'rtalariga xos bo'lgan ushbu uylduzning ufq ustidagi joylashuvini ko'rsatgan.

Olimlar papuaslar va bareleflarda yozib qoldirilgan 12 ta diniy madhiyalarni tiklashga muvaffaq bo'lishgan. Italiyalik olimlar qadimiy musiqa o'sha davrga xos

sadolanishi uchun cholgʻularni ham tanlab olishdi. Bular arfa, barabanlar va arabcha gitara. Bilimdonlarning aytishlaricha, mazkur musiqa juda mayin sadolanishga ega.

Boshqa tadqiqotchilar nota savodi hozirgi Suriya hududida paydo boʻlgan deb tahmin qilishadi. Oʻtgan asrning 50-yillarida Suriyaning shimoli-gʻarbidagi qadimiy Ugarit shahrida topilgan yozuvlarni tadqiq qilgandan soʻng, oʻsha yerlik olimlar uyqoridagi tahmini tasdiqlashdi. Bu vaqtda arxeologlar eramizdan avvalgi ikkinchi asr oʻrtalariga toʻgʻri keluvchi musiqa ramzlarini topishga muvaffaq boʻldilar. Ushbu tadqiqot Ugarit shahridan topilgan ashyolar musiqa asarlari yozuvining eng qadimiy ekanligini tasdiqladi. Loydan yasalgan taxtachalardagi matni gorizontal tarzda, chapdan oʻngga qarab yozilgan boʻlib, bu yozuvlar Suriyaning qadimiy tili – xurrit tilida yozilgan edi.



Olimlar ushbu notalar va matnni oʻqishga muvaffaq boʻldilar. Unda musiqa alohida, matn alohida yozilgan. Bundan tashqari, musiqa va matnni qanday qilib uygʻunlashtirish kerakligi toʻgʻrisida batafsil tushuntirish ham berilgan. Musiqa «Nikalega madhiya» deb atalgan (Nikale – xurritlar mifologiyasi boʻyicha oy xudosining turmush oʻrtogʻi).

Musiqa yozuvining keyingi rivojlanishi tovushlarning harfli ifodalanishi boʻlib, bu harflar ularning balandligini koʻrsatgan. (Harfli notatsiya – musiqa notatsiyasining bir turi boʻlib, unda tovush balandligini belgilash uchun alfavit harflaridan (uynon, lotin va h.k.), shuningdek ularning grafik modifikatsiyasidan foydalanilgan. Harfli notatsiya – musiqa notatsiyasining eng qadimiy koʻrinishlaridan boʻlib, hozirgi kungacha ishlatib kelinadi).

Qadimiy Uynonistonda paydo boʻlgan ushbu tizim keng miqyosda tarqaldi. Qadimiy Uynoniston musiqasi tosh ustunlar va maqbaralarda oʻyib yozilgan boʻlib, uncha katta boʻlmagan fragmentlarda saqlanib qolgan. Musiqiy yozuv

uchun uynon va finikiy alfaviti harflaridan foydalanishgan. 1893 yilda Appolon xudosi shahri bo'lgan muqaddas Delfada qazilma ishlarini olib borgan fransuz arxeologlari ikkita g'aroyib tosh likobchalarni topishadi. Ularda eramizdan oldingi II asrda oddiy uynon tilida Appolonga atalgan madhiyalar yozilgan. Lekin undan avvalroq topilgan shunga o'xshash ashyolardan farqli o'laroq bu likopchalarda madhiya misralari orasidagi qo'shimcha belgilar ko'zga tashlanib turardi. Qisman butun qolgan ushbu musiqa partituralari Qadimiy Uynoniston musiqasining eng birinchi namunalari.

Ularning ko'plari papirus qog'ozlarida yozilgan. Bu qog'ozlar ko'p hollarda shaklsiz hamda kichik hajmda bo'lsa ham, ular asosan musiqiy kompozitsiyalarning parchalari ekanligini bilib olsa bo'ladi. Mazkur parchalar tahminan eramizgacha bo'lgan 450 yillarda Evripid tomonidan yozilgan «Orest» nomli dramasi jo'r bo'lish uchun yozilgan. Ushbu noyob arxeologik topilmalar qadimiy uynon nota yozuvlari sifatida tan olingan.

Asrimizning III yoki IV asrida yashagan qadimiy uynon musiqashunosi Alipiy qadimiy uynon musiqasi uchun mumtoz tizimga aylangan qulay nota tizimini yaratdi. U foydalaniladigan ramzlar (alfavit va psevdofalfavit belgilari) uyg'unligidagi ro'yxat tuzdi va ularni ishlatilishi bo'yicha batafsil tushuntirish berdi. Uning ishi o'rta asrlarda ko'plab nusxa ko'chirilishi va tarqatilishi sababli saqlanib qoldi. Nota yozuvining qadimiy uynon tizimi hech qachon yo'qolmadi – amalda o'rta asrlarda rivojlanishni boshlagan va XVII asrda tamomila shakllangan zamonaviy nota tizimi uynon namunasiga asoslangan.

Uynonlarda ikki xildagi notatsiya bo'lgan: biri eng qadimiy, paydo bo'lishidan boshlab diatonik ko'rinishda, keyinchalik cholg'u notatsiyasi sifatida saqlanib qolgan; ikkinchisi eng so'nggi, engarmonik-xromatik, qo'shiq kuylash uchun kiritilgan.


Rim musiqa nazariyasida tovush balandligini ko'rsatuvchi uynon harflari lotin harflariga almashtiriladi. Bu ishni o'sha vaqtning musiqachisi Boetsiya bajargan degan tahminlar bor. Uynonlarning quyiga yo'nalgan tetraxordlar o'rniga, A, B, C, D, E, F, G harflari uyqoriga harakatlanuvchi tovushlar tizimiga bog'langan.

Ushbu lotinchi harflar zamonaviy musiqa amaliyotida keng qo'llanilmoqda.

Asr o'rtalarida diniy katolik musiqaga xos bo'lgan **nevma** nota tizimi paydo bo'ldi. «**Nevma**» so'zi lotincha **neuma** (belgi, ishora)ni anglatadi va o'z navbatida qadimiy uynoncha «**pnevmo**» (nafas olish) so'zidan kelib chiqqan.

Nevma shartli belgilari turli belgilar va ularning har xil ko'rinishdagi yig'indisidan iborat bo'lib, matn ustiga qo'yilgan va alohida tovushlar yoki ohanglar, ovozlarning uyqoriga va pastga yo'nalishini, bir tovushning takrorlanishi, ijro xarakteri va usulini bildirgan. Nevmalar vokal musiqasini

yoʻzishda ishlatilgan hamda kuyning aniq balandligini belgilamagan holda uning yoʻnalishini koʻrsatgan.



Ilk nevma nota yozuvi

Nevma tovushlarning aniq balandligini koʻrsatmasdan ohang yoʻnalishini koʻrgazmali tarzda ifodalagan va bu bilan xonandalarga tanish boʻlgan ohangni eslab ijro etishda yordam bergan. Nevma yozuvining koʻplab mahalliy turlari mavjud boʻlgan. IX asrdan boshlab nevma yozuvini tovushlar balandligini koʻrsatuvchi belgilar, avval harflar, keyinchalik nevma joylashtirilgan chiziqchalar bilan toʻldirib, takomillashtirishga urinishlar boʻldi. Shunday qilib, «kvadratli nota yozuvi» yoki **xoral** notatsiyasi deb atalgan yozuv vujudga keldi va shu asosda keyinchalik nota yozuvining zamonaviy tizimi rivojlanib bordi.



Xoral notatsiyasi cherkov qo'shiqlari – xoraldan kelib chiqqan. U o'rta asrlarda cherkov arbobi Papa Grigoriy I nomi bilan bog'langan va grigoryan xorali deb ataladi.

XI asr boshlarida sozanda va musiqashunos Gvido d'Aretstso (Aretinskiy) (tahm.992-1050 yy.) chiziqlarni to'rttagacha ko'paytirib, nota yozuvi tizimida katta o'zgarishni amalga oshirdi. Gvido d'Aretstso nota chiziqlari va bo'g'inlar solmizatsiyasini ixtiro qilgan.

Aretinskiy tabiatan juda qobiliyatli bo'lib, barcha mashg'ulotlarda o'z sinfdoshlaridan bilimdonligi bilan ustun turardi. Qo'shiq kuylash bo'yicha shunchalik yaxshi dars berardiki, buning natijasida hamkasblari unga qarshi bo'lib qoladi. Bunday qarama-qarshilik uni boshqa monastirga – Aretstsoga o'tishga majbur qiladi, Aretinskiy taxallusi ham shundan kelib chiqqan.

Gvido o'z davrining eng ko'zga ko'ringan musiqachilaridan edi, uning qo'shiqchilikdan dars berish uslubiga olib kirgan yangiliklari katta ijobiy natijalar berdi. Notatsiyani islohot qilib, gvido F va C kalitlariga mos tarzdagi ikkita chiziq kiritdi, buning natijasida tovush balandligi ilk nevma qo'lyozmalariga nisbatan aniqroq yoziladigan bo'ldi. Didaktik (noma'lum qo'shiqlarni tezroq o'zlashtirish) maqsadda u solmizatsiya tizimini ixtiro qildi.



Nevmani to‘rtta chiziqdagi va ularning o‘rtalariga yozadigan bo‘lishdi, bu esa o‘z navbatida tovush balandligini yanada aniq va batafsil ifodalab berdi. To‘rtta chiziqning barchasi yagona tizimga birlashtirildi, mana shu tizim hozirgi (beshtalik) nota chiziqlariga asos bo‘ldi, chiziqlar balandligini belgilovchi harflar asta-sekin chiziqlarda joylashgan notalar balandligini aniqlovchi shartli grafik belgilarga aylandi.

Kalitning ko‘rinishi lotincha harfli notatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan. Kalit biror notaning muayyan chiziqda joylashganligini bildiradi, boshqa barcha notalarning joylashuvi shu notaga nisbatan aniqlanadi. Tarixan kalitlarning uchta turi paydo bo‘ldi, ular bugungi kunda ham besh chizikli notatsiyada qo‘llaniladi: «sol», «fa», «do» kalitlari. Kalitlarning tashqi shakli lotincha G, F, C qo‘lyozma harflarining o‘zgartirilgan shaklidagi ko‘rinishga ega.

S harfi kalit ko‘rinishiga kelguncha shunday yo‘lni bosib o‘tdi:



F harfi kalit ko‘rinishiga kelguncha shunday yo‘lni bosib o‘tdi:



G harfi kalitga shunday aylandi:





Bu «Gvidon qo'li» deb ataluvchi qo'llanma bo'lib, Gvido d'Aretstso tomonidan o'ylab topilgan. Tonning kerakli balandligini aniqlash uchun Gvido chap qo'l kaftidan foydalangan. Har bir barmoqning uchi va bo'g'inlari muayyan tovushni bildirgan. Bu qo'shiqchilarga qaysi notani kuylashlarini ko'rsatib turish imkoniyatini bergan.

Gvido tizimi nisbatan uzoq vaqt davom etdi va uning izlarini hatto XVIII asr musiqachilari asarlarida ko'rish mumkin. O'zining kiritgan yangiliklari uchun Gvido avval quvg'in qilindi, biroq Papaning o'zi quvg'in qilingan monax tomonidan yaratilgan tizim shu tizim bo'yicha yozilgan kuylarni o'qish jarayonini ko'p jihatdan soddalashtirishiga ishonch hosil qilgach, Gvido hurmat-ehtirom bilan Pompoza monastriga qaytariladi. Shu yerda Aretinskiy umrining oxirigacha dars beradi.


XIII asrning yirik musiqachi olimi Franko Kyolnskiy menzurali notatsiya asoschisi hisoblanadi.

XIII – XVI asr davomida nota yozuvining takomillashtirilishi **menzurali** notatsiya yo'nalishi bo'yicha amalga oshirildi. Menzurali (lotincha *mensura* – me'yor, bir maromli) notatsiya XIII – XVII asr G'arbiy Yevropa musiqasining (avvaliga faqat vokal musiqasi) ritmi aniq ifodalangan yozuvidir. Bu yozuv ko'rgazmali tarzda tovushning nafaqat balandligini, balki ularning cho'zimini ham ko'rsatgan. Nota va pauzalarni yozish uchun maxsus grafika tizimi kiritilgan, barcha cho'zimlar o'rtasidagi vaqt nisbatlari o'rnatilgan. Avvaliga cho'zimlarning har birini uchta teng hissalariga bo'lib chiqish ko'zda tutilgan. XVI asrdan boshlab bu bo'linish ikki hissaga o'zgartirildi.

Papiruslardagi yozuvdan oddiy qog'ozdagi yozuvga o'tish bilan nota belgilari «oq» (ichi bo'yalmagan) va «qora» (ichi bo'yalgan) ko'rinishdagi shaklda yozishga o'tildi. To'rttali nota chiziqlari yanada qulay bo'lgan besh chiziqqa o'zgartirildi.

Ko'p ovozli va ansambl ijrochiligi rivojlanib borgani sayin bir necha ustma-ust joylashgan nota yo'llarini bir-biriga umumiy chiziq yoki shaklli qavs – akkolada bilan birlashtirildi.

XIII asr boshlarida sharqiy nemis va unga yaqin joylashgan slavyan va vengr hududlarida ishlab chiqilgan tizim – **gotik notatsiya** menzurali notatsiyaga yaqin hisoblanadi. Gotik notatsiya belgilari 4 yoki 5 chizikli tizimda joylashtiriladi, gohida bu tizimga kalit qo'yiladi va kuyning har bir tovushi ifodalanadi.







Bu tizimga xos bo'lgan belgi , tashqi ko'rinishidan o'tni taqalaydigan mixga o'xshaydi. U nevmaning o'zgartirilgan ko'rinishi bo'lib, «virga» deb atalgan. Gotik notatsiya yordamida O'rta asrdagi G'arbiy Yevropa xoralining qo'shiqlari, shuningdek diniy va dunyoviy qo'shiqlar yozilgan. XV – XVI asrlarda unga cho'zimlar belgilari kiritilgan, keyinchalik bu tizim menzurali gotik notatsiya deb uyritilgan.

Cholg'u musiqasida zamonaviy besh chizikli notatsiyaning mustahkam o'rin olishi uchun bosib o'tilgan yo'l nisbatan uzoq bo'ldi. XVII asrgacha cholg'u musiqasini ifodalash uchun yozuvning alohida tizimi – tabulatura qo'llanildi.

Tabulatura (lotincha *tabula* – taxta, jadval) o'rta asrda Yevropada ixtiro qilinib, keng qo'llanilgan. Uning yordamida ayniqsa luytnya, gitara va boshqa torli-chertma cholg'ular musiqasini yozib olish qulay bo'lgan, shuningdek organ, klavesin musiqasini yozib olishda qo'llanilgan. Tabulaturalar ritm va dinamik tuzlarni aniqlovchi harf yoki raqamlar va qo'shimcha shartli belgilardan tashkil topgan. Ushbu sxemalar faqat notalargina emas, balki sozanda ijro etishi lozim bo'lgan torlar, ladlar, klavishlarni ifodalagan.

Tabulaturani XIV asrdayoq qo'llay boshlashgan, undan faol foydalanish XVIII asrgacha davom etgan, uni XIX-XX asrlar davomida mutaxassislar uni tadqiq qilishdi va to'ldirishdi va XXI asrda turli cholg'ularni (gitara, domra, balalayka, ikki qatorli xromatik garmonika, fortepiano, klavishli sintezator) o'rgatish jarayonida qo'llanib kelinmoqda.

Tabulaturalar paydo bo'lgan mamlakatlarga bog'liq holda turli ko'rinishga ega bo'lgan. Italyan, ispan, fransuz va nemis tabulaturalari bir-biridan farq qilgan. Ular o'zining tashqi ko'rinishi bo'yicha turli shaklga ega bo'lgan. Ularda u yoki bu mamlakatda qabul qilingan nota yozuvining va cholg'u xususiyatlari aks ettirilgan. Shuningdek tabulaturalar shartli belgilar: harf, raqam, ularning birgalikda yozilishi bo'yicha ham farqlangan. Tabulatura yordamidagi ritm barcha cholg'ular uchun amalda bir xil belgilangan. Ritm belgilari harf yoki raqamlar ustida yozilgan.

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
|  |  |  |  |  |  |
| brevis | semibrevis | minima | semiminima | fusa | semifusa |

Tabulaturalarning nafaqat turli shakllari, balki ulardan foydalanishning har xil qoidalari ham mavjud bo'lgan. Bu qoidalar u yoki bu cholg'uda ijro texnikasiga bog'liq bo'lgan. Torli cholg'ular (masalan luytnya) tabulaturasida sozanda ijro vaqtida torlarni qaysi pardaga bosishini ko'rsatgan.

Tabulaturaning ko'plab turlari ichida chiziqli va chiziqsizlari bo'lgan. Chiziqli tabulaturada chiziqlar soni cholg'udagi torlar soni yoki musiqiy to'qimadagi polifonik ovozlarni soni bilan bir xil bo'lgan.

Kopengagen shahrida musiqa muzeyi bor. Bu yerda notatsiyaning turli xillariga mansub bo'lgan qadimiy nota to'plamlari yig'ilgan.

Zamonaviy musiqa notatsiyasi – musiqiy tovushlarni yozib olish grafik tizimi, musiqani ramziy yozib olish uchun hozirgi zamonda qo'llanilayotgan G'arbiy Yevropa musiqa an'analariga asoslangan musiqa notatsiyasining ko'rinishidir.

Zamonaviy musiqa notatsiyasi (shuningdek «nota savodi» yoki «nota yozuvi» ham deb ataladi) elementar musiqa nazariyasining qismi hisoblanadi. Zamonaviy musiqa notatsiyasida musiqa asarining yozuvi «nota yozuvi» yoki oddiy tarzda – notalar deyiladi.

Zamonaviy musiqa notatsiyasida musiqa tovushlari ramzlar jamlanmasi yordamida yoziladi, ularning ichida asosiysi notalardir. Notalar beshta parallel chiziqlar, ya'ni notalar joyi (notanosets)da joylashadi. Notanosetsda notalarning joylashish holati berilgan notaning balandligi va tovushlar ijrosining navbatini aniqlab beradi. Tovushning cho'zimi nota ramzlarining turli xil ko'rinishlarini qo'llash bilan belgilanadi.


Notalar va nota chiziqlaridan tashqari ko'plab qo'shimcha ramzlar ishlatiladi, ular cho'zimlarning taktdagi soni, tonallik, temp, ritmik surat, shuningdek odatdagi yozuv usullarini qisqartirish, xarakterini hamda asar tovush kuchini, artikulyatsiya xususiyatlari va xokazolarni ko'rsatish imkonini beradi.

Bundan tashqari qaysidir o'ziga xos cholg'u uchun yozuvni osonlashtiradigan ramzlar qo'llanishi mumkin, masalan fortepiano pedallarini boshqarishni ko'rsatadigan yoki gitara uchun applikator ramzlar.

XX asrda musiqiy tilning rivojlanishi va murakkablashuvi bilan nota yozuvini bir necha bor takomillashtirishga qaratilgan urinishlar bo'lgan. Bunga misol qilib F.Buzoni yaratgan 6 ta chiziqli nota yozuvi, A.Shyonberg va N.Dolmatovning 3 ta chiziqli tizimi, R.Forsitning 2 ta nota chiziqli tizimlarini keltirish mumkin. Shuningdek K.Potning Klavirskribo deb ataluvchi chiziqdari vertikal joylashgan tizimlarini keltirish mumkin.

Musiqa tarixida ko'zga ko'ringan pianinochi, fortepiano san'ati rivojiga katta ta'sir o'tkazgan Feruchcho Buzonining tovushlarni yozib olish tizimiga to'xtalamiz. Buzoni nafaqat ton va yarim tonlar, balki tovushlar orasidagi yanada

yaqinroq masofalarni – tonning uchdan birini yozib olishga harakat qildi. O‘z qarashlarini u «Musika san’ati yangi estetikasining chizmalari» ishida aks ettirdi:



«...men loyihalashtirayotgan tizim

hozircha yarim tonlardan voz kechmasdan, tinglovchi tasavvuriga uchdan bir tonni olib kirishi kerak. Qisqa aytadigan bo‘lsak, biz yoki uchdan bir tonlarni ikkita qatorini o‘rnatamiz, bu holda qatorning biri boshqasidan yarim ton masofada joylashadi, – yoki 12 ta yarim tonli oddiy qatorni uch marta takrorlaymiz, bunda har safar qator tonning uchdan biriga ko‘tariladi. Notalashtirish uchun bunday usulni taklif qilaman: 6 ta qatorni chizib olamiz va shu qatorlarning o‘ziga butun tonlarni joylashtiramiz, qatorlar orasiga esa yarim tonlar joylashadi. Keyin tonning uchdan birini bemol va diezlar bilan belgilaymiz».

Zamonaviy musiqaga nisbatan bugungi kunda turli atamalar qo‘llanilmoqda – atonal, aklassik, yangi, zamonaviy, noan’anaviy va h.k. XX asr musika san’ati dunyoni falsafiy qabul qilish darajasigacha ko‘tarildi, o‘zining ifodaviy vosita imkoniyatlarini yangi badiiy obrazlar yaratish va ularni individual mualliflik g‘oyalariga kiritish hisobiga kengaytirdi.

Uyqorida aytilganlarga muvofiq XX asr notatsiyasida ham sezilarli o‘zgarishlar uyz berdi, musika asarlarini yozib olish sohasida qator yangiliklar paydo bo‘lmoqda va tabiiyki, musika tilining ifoda belgilari yangilanmoqda. Keyingi vaqtda paydo bo‘lgan quyidagi yangiliklarni misol qilib keltirish mumkin:

- musika materialini nota belgilarining tovush balandligi ko‘rsatilmagan va musiqachilar uchun katta badihago‘ylik erkinligini beruvchi grafik yozuvlari. Musika asarlarini yozib olishning bunday usuli paydo bo‘lishida XX asr san’atkorlarining ijodlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Musika asarlarini grafik asosda yozib olish aleatorika, xepining va boshqa uslublar kelib chiqishida turtki bo‘lib xizmat qildi.
- sadolanish davomiyligi va ovozlarni nisbatini talqin etishda nisbatan erkinlik beriladigan koordinatsiyalashtiruvchi notatsiya. Mazkur notatsiyada uning ikki jihati mavjud: vaqtni o‘lchovchi va tovush balandligi ifodalovchi.
- muallif matni va ijrochilik improvizatsiyasini uyg‘unlashtirish imkoniyatini beruvchi erkin shakl uslubi.

Dodekafoniya (uynoncha *dodeka* – o‘n ikki + phone – tovush) – musiqa asarlari kompozitsiyasining musiqiy texnikasi bo‘lib, unda oktavaning barcha 12 toni ishlatiladi. Avstriyalik kompozitor A.Shyonberg tomonidan amaliyotga kiritilgan. Dodekafoniya uslubida yozilgan musiqa asaridan namuna qilib quyida A.Veberning «Bagateli» asari nota namunasini keltiramiz:

197 A. Веберн. Багатели ор. 9, № 1


Mäßig (♩ = ca 60)

I. Geige
 II. Geige
 Bratsche
 Violoncell

4 3 rit. 5 tempo 6 accel. heftig. 7 (♩ = ca 96) rit.

pizz. arco am Steg d-Saite pizz. pizz. arco pizz.

pp pp pp sf p p p f f f f




Aleatorika (lotincha *alea* – o‘yinda ishlatiladigan suyak) XX-XXI asr musiqasidagi kompozitsiya texnikasi. Aleatorika nota matni hamda musiqa shaklining beqarorligi tasavvuriga suyanadi va kuyni bastalash yoki uni ijro etishda elementlarning noaniqligi yoki tasodifiy ketma-ketligini ko‘zda tutadi.

XX asrda musiqa va musiqiy voqelik o‘zi nimaligini anglash, kompozitorning turli san‘at turlari (musiqa, tasviriy san‘at, teatr) uyg‘unligidagi sharoitda ishlashga, musiqani alohida teatr san‘atiga yaqinlashtirgan holda ijro etishga bo‘lgan ehtiyoj kompozitorlar musiqani grafika yordamida yozishning faqat o‘zlariga xos, xususiy tizimlarini ishlab chiqishlariga olib keldi. Bundan tashqari, musiqani nota orqali yozish bilan bir qatorda ko‘p hollarda tovushni ko‘rgazmali tarzda (turli grafikalar, ossillogrammalar) ifodalashni ham uchratish mumkin.

Musiqa san‘atkorni o‘ziga tortadi va uning uchun musiqa asarlarini yozib olishning grafik tili ham, musiqiy til unsurlaridan (nota belgilaridan) foydalangan holda musiqa obrazlarini yaratish imkoniyatini beruvchi kenglik sifatida ham qiziqarli.

Grafik partituralar



Mushuk simfoniyasining partiturasasi

(Moritz von Schwind. Die Katzensymphonien, 1868).

Ushbu asarni haqiqatda ijro etsa bo‘ladi. Mushuk ramzlari nota chiziqlaridagi muayyan notaga tayanib turishibdi. Ko‘pchilik biladigan «mushuk konsertlari» haqidagi xotira shu zahotiy oq «glissando» (tovushlarning uyqori va pastga sirg‘alishi) usulini eslatadi, mushukning sakrashi yo‘nalishni ko‘rsatadi. Mushukning holati musiqaning har bir soniyasidagi xarakterini bildiradi (masalan, «fermata» – to‘xtash, tin olish – bu yerda bir necha turlari bor: yuvinayotgan yoki

chalqancha yotgan mushuk va h.k.). Simfoniya musiqa xarakteriga oid, bizga tanish bo'lgan bir nechta atamalar mavjud:

Allegretto – jonli va nozik, raqs unsurlari bilan

Crescendo – tovush kuchini oshirib

Andante – xotirjam, bir maromda, oddiy, vazmin qadam yo'sinida

Dolce – nozik

Smorzando – tobora so'nib

Grave – zulmatli va og'ir

Presto Finale – final juda tez harakatda

Piano – past tovush bilan

ff (*Fortissimo*) – juda kuchli tovush bilan

Ohang mushuklarning boshlari bo'yicha sanaladi (bunda mushuklarning mo'ylovlari qo'shimcha nota chiziqlari sifatida faraz qilinishi mumkin). «Simfoniya»ni akkordlar jo'rligidagi asar deb ham qabul qilish mumkin (bu holda akkord sifatida yaxlit mushuk ramzi hisobga olinadi). Partitura kompozitor o'zining «simfoniya»sini skripka cholg'usi uchun yozilganligini belgilab qo'ygan.





Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. «Nota yozuvi», «notatsiya» atamalarining ma'nosini aytib bering.
2. Italiyalik olimlar qanday musiqa asarlarini tiklashga muvaffaq bo'lishdi?
3. Qadimiy musiqani sadolantirish uchun qanday zamonaviy cholg'ular tanlab olindi?
4. Suriyaning shimoli-g'arbidagi qadimiy Ugarit shahrida topilgan yozuvlar qaysi ma'lumotlarni tasdiqladi?
5. Suriya hududidan topilgan loydan yasalgan taxtachalar yozuvlarda nima aks ettirilgan?
6. Qadimiy Uynoniston musiqasining eng birinchi namunasi qanday aks ettirilgan?
7. Qadimiy uynon musiqashunosi Alipiy yaratgan nota tizimida qanday ramzlardan foydalanilgan?
8. Zamonaviy nota tizimi qaysi namunaga asoslangan?
9. «Nevma» atamasining ma'nosini tushuntirib bering.
10. XI asr boshlarida sozanda va musiqashunos Gvido d'Aretstso nota yozuvi tizimida amalga oshirgan o'zgarish nimalardan iborat bo'lgan?
11. Solmizatsiya atamasining ma'nosini tushuntirib bering.
12. «Gvidon qo'li»ni kim ixtiro qilgan?
13. «Tabulatura» atamasining ma'nosini aytib bering.

14. Dodekafoniyada oktavaning nechta tovushi ishlatiladi?
15. Aleatorika soʻz negizi qanday maʼnoni anglatadi?
16. «Notashunoslik» atamasi qachon paydo boʻldi?

Adabiyot:

1. Tursunov R. Xalq musiqasini notalashtirish. T., 2008
1. Kuzmin A. Notatsiya v muzike XX veka. CHelyabinsk. 2010 g.
3. Nuyrnberg M. Notnaya grafika. - L., 1953.

Internet saytlari:

1. <http://www.youtube.com>
2. <http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa>
3. wwwmusikauz
4. <http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami>
5. <http://vladimir-kovalev.blogspot.ru>; <http://tdmaestro.ru/blog/35/>
6. <http://www.dgalaxy.net/music-notation-development.php>
7. <http://ru.exrus.eu/Istoriya-voznikoveniya-not>

8-11-darslar: SHARQ MUTAFAKKIRLARINING XALQ KUYLARINI O'RGANISH BO'YICHA FAOLIYATLARI

O'zbek xalq kuylari deganda biz xalq og'zaki musiqasi, ular asosida uyzaga kelgan maqom cholg'u va ashula yo'llari kuylari hamda muallifi noma'lum bir qator dilbar musiqa asarlarini nazarda tutamiz. Shu jihatdan Markaziy Osiyo musiqa mutafakkirlarining asarlarida xalq kuylarini o'z davri an'alariga mos ravishda notalashtirish tajribasi mavjud. Bu o'rinda eng mashhur mutafakkirlarning notalashtirish metodikasi namuna sifatida e'tiborga loyiq.

Abu Nasr Farobiy (X asr)

Katta musiqa kitobi.

Dunyoda 4 ta yirik olim bo'lgan. Ulardan 2 nafari islomgacha – Aristotel va buyuk Aleksandr (Afrodiziskiy), 2 nafari islom davrida yashagan – Abu Nasr Al Farobiy va Abu Ali Ibn Sino. Abu Ali Ibn Sino Al Farobiyning asarlaridan juda ko'p foydalangan. Sharq ilk o'rta asrning buyuk olimi o'z davri ilg'or falsafiy fikrining asosiy prinsiplarini o'z ijodida aks ettirgan mutafakkir Abu Nasr Al Farobidir. Abu Nasr Muhammad, Ibn Muhammad Ibn Uslug', Ibn Tarxon Farobiy 872-873 yillarda Ariz suvi Sirdaryoga quyiladigan yerdagi Farob degan joyda tug'ilgan XIII-XIV asr tarixchilarining guvohlik berishicha Farob Shosh (Toshkent)ning shimolrog'ida joylashgan nuqta. Turk manbalaridan birida yerning nomidir. Farobiyni «Abu Nasr» deb ham atashgan. Farobiyning yerli turkiy qabiladan kelib chiqqanligini ta'kidlash uchun uning nomiga ko'pincha «at Turkiy» deb ham qo'shib aytilgan.

U Turkistonli qadimgi o'zbeklar ichidan chiqqan harbiy xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Abu Nasr boshlang'ich ma'lumotni o'z yurtida oldi. Ma'lumki Farobiy Bag'dodga kelgunga qadar arab tilini bilmagan. Qadimgi bir manbada yozilishicha Mavorounnaxrda bolalarni 5 yoshidan boshlaboq turli hunar va ilmga o'rgata boshlaganlar. Farobiy O'rta Osiyodan chiqib ketgunga qadar Shosh va Samarqandda bo'lganligi, markaz Buxoroda o'qib ishlaganligi haqida adabiyotlarda ma'lumotlar uchraydi. Bag'dodga bora turib Eronning ko'pgina shaharlarida – Isfaxon, Xamadon, Rey (Fexron) va boshqa shaharlarda bo'lgan. Bag'dod musulmon dunyosining turli o'lkalaridan, xususan Eron va O'rta Osiyodan kelgan ko'plab adabiyotchi va olimlarni o'ziga jalb qilgan. 762-yilda asos solingan Bag'dod hokimiyati savdo yo'llari va boyliklarining markazi bo'libgina qolmay, balki butun xalifalikning madaniy hayoti va ilmiy tafakkurining muhim markazlaridan biriga aylangan edi.

Xalifalikda madaniyat va fanning rivojlanishida Eron va O'rta Osiyodan kelgan olimlar faol ishtirok etadilar. Bag'dodga Al Xorazmiy, Farg'oniy, At

Turkiy, Battoniy, As Sufiy, Abu Mashar, Al Nazzam, Ar Ravandiy, Xusayin Ibn Ashoq va boshqa ko'plab tarixchilar, geograflar, filologlar va shoirlar mehnat qilganlar, ular o'zlarining ilmiy tadqiqotlari bilan shuhrat qozonganlar. Farobiy ko'proq nazariy fanlar matematika, mantiq, nazariy tibbiyot, musiqa nazariyasi va boshqalar bilan qiziqdi. Ayni vaqtda tabiatshunoslikni, huquqshunoslik asoslarini, filologiya, poetika va boshqa fanlarni ham muvaffaqiyatli o'zlashtirdi. U o'z ona tili – turk tilidan tashqari fors, yunon, arab, yana juda ko'p tillarni bilgan. Farobiyning musiqashunoslikka qo'shgan hissasi beqiyosdir. U yangi musiqa asbobi yaratgan mohir sozanda, bastakor, yirik musiqa nazariyotchisi bo'lgan. Farobiy ixtiro qilgan cholg'uning nomi manbalarda turlicha — «qonun», «g'ichchak», «ud» deb ataladi.

Farobiyning bastakorlik faoliyatiga kelganda uning ba'zi musiqa asarlari Eronda va Sharqning boshqa mamlakatlarida hozirga qadar ham ijro etilib kelinayotganligi haqida ma'lumotlar bor. Farobiy musiqa nazariyasi sohasida bir qator asarlar qoldirgan. Ular orasida katta musiqa kitobi keng tarqalgandir. Farobiy bu kitobida musiqaning keng ta'rifini beradi, uning asosiy tushunchalarini hamda musiqa asarlari tarkib topadigan elementlarini ochib beradi. «Katta musiqa kitobi»ni mazmuniga to'xtashdan oldin ayrim mutaxassislarining jahon musiqa san'ati taraqqiyotida Farobiy musiqa merosining roli haqida aytgan ba'zi fikrlarini keltirib o'tamiz. Farobiy yashagan davrda qadimgi yunon mualliflarining musiqa haqidagi ba'zi g'oyalari ma'lum edi. Farobiyga qadar musiqa nazariyasini o'rganish bilan Al Kindiy shug'ullangan. Fan tarixchisi K.Sarton «Al Kindiy ilk musulmon musiqashunosi bo'lgan va uning ayrim asarlarida «okondlar yozuvi mavjud», — deb ko'rsatadi. Farobiyning asari unga qadar yaratilgan asarlardan ustun bo'libgina qolmay, balki Sharq va G'arbda musiqa nazariyasi taraqqiyotini bir necha asrga belgilab berdi.

Ular bu merosni Yevropada musiqashunoslikning rivojlanishida katta ta'sir ko'rsatilganligini ta'kidlaydi. K.Sarton Farobiy musiqashunoslik sohasida ham «o'z davrining Yevropa nazariyalaridan ancha oldinda edi» deb ko'rsatadi. Fransuz arabshunos olimi Karra de Voo Farobiyning musiqa san'atidagi xizmatlarini ta'kidlab, bunday deb yozgan edi: — «Farobiy yana buyuk musiqachi ham edi. Biz uning sharq musiqasi nazariyasi bo'yicha eng muhim asarlari uchun undan minnatdormiz» — deb yozgan edi. Yana u, — U ayni vaqtda ham ijrochi-musiqachi ham bastakor edi. Uning qobiliyatiga Sayfutdavlat qoyil qolgan edi. Darvish Mavlonlar hozirga qadar ham muallifi Farobiy deb hisoblanadigan qadimgi qo'shiqlarni kuylab yuradilar, — degan edi. Farobiyning musiqa merosiga bag'ishlangan asarlarida ta'kidlanishicha, «Kitob al musiqiy al kabir» asarining qiymati uning umumiy va chuqur g'oyalaridagina emas, balki Farobiy davrida

o'rtta asr «musulmon» sharqi madaniyatining gullab–yashnagan davrida musiqa san'atining holati haqida ham keng ma'lumot berilgan.

Jomiyning aruz bilan bir qatorda musiqa nazariyasi haqida «Risolai musiqiy» asarini yozishi shu davr madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Jomiy o'z risolasida Abu Nasr Farobiyning ko'p jildlik «Musiqa haqida katta kitob» asaridagi g'oyalarni yanada rivojlantirdi, musiqani tovushlarning o'zaro ohangdoshlik (ta'lif) va noohangdoshlik (manofarat) nuqtai nazaridan o'rganuvchi, yangi kuy yaratish uchun ular orasidagi oraliq (ozmina)larni tekshiruvchi fan deb xarakterladi.

Musiqa, uning fikricha, insonga eng yuqori ma'naviy oziq beradigan mukammal va go'zal tovushlar haqidagi fandir. Bu fan insonlarga xizmat qilishi, ularning hayotini bezashi zarur.

Safiuddin al-Urmaviy

Safiuddin al-Urmaviy, Safiuddin Abdulmo'amin bin Yusuf al-Urmaviy (1215, Eron Ozarbayjoni, Urmiiya – 1294, Bag'dod) – Sharq musiqa nazariyotchisi, bastakor, sozanda va xonanda. Bag'dodda vafot etganligi sababli olimlar uni al-Bag'dodiy deb ham yuritadilar. Mahmud ash-Sheroziyning yozishicha, Sharq musiqa nazariyasi bo'yicha o'z zamonasining tengsiz olimi bo'lgan.

Safiuddin al-Urmaviy Bag'doddagi madrasani tugatgach, musiqa san'ati bilan shug'ullana boshladi, u ud cholg'usini shunchalik mohirlik bilan chalardiki, uni tinglagan barcha odamlar xayratga tushishardi. Aynan ud cholg'uchisi sifatida u yoshlik chog'idanoq shuhrat qozondi. Madrasada o'qib yurgan chog'ida xusnixat borasidagi erishgan yutuqlaridan xabardor bo'lgan xalifa uni o'z saroyiga taklif qiladi. Xalifa Urmaviyni o'zining maslahatchisi etib tayinlaydi, u xattot va kutubxonachi sifatida saroy kutubxonasini tartibga soladi.

Yozma manbalarda keltirilishicha, o'sha davrda Bag'dodda yoqimli ovozga ega bo'lgan Lixaz ismli ayol yashagan. Bu ayol tez-tez Urmaviyning ud sozi jo'rligida chiqishlar qilardi. Safiuddin al-Urmaviy unga musiqa san'atining barcha nozik sirlarini o'rgatardi. Saroyda tashkil qilingan bayramlardan birida Lixaz o'zining qo'shig'i bilan butun yig'ilganlarni lol qoldiradi. Xalifa Lixazdan kuylagan qo'shig'ining muallifini so'raganda, u bu qo'shiq «ustod Safiuddin tomonidan» yaratilganligini aytadi. Shunda xalifa Urmaviyni taklif qilishni va ud cholg'usida chalib berishni buyuradi. Urmaviy o'zining ud sozidagi mohirona ijrosi bilan hammaga xuzur bag'ishlaydi.


Safiuddin al-Urmaviy kamonli ikkita cholg'uni kashf qilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Ulardan biri «Nuzxa» (ko'ngil ochuvchi, lazzatbaxsh — qonun turidagi qadimiy ko'p torli musiqa cholg'usi) deb atalgan, boshqasining nomi «Mug'niy» (o'ziga tortuvchi, jalb qiluvchi) bo'lgan. Nuzxa cholg'usining


ko‘rinishi arfasimon bo‘lib, u qizil daraxtdan ishlangan, bu to‘rtburchak cholg‘u sozi 81 ta torga ega bo‘lgan. Torlar shu darajada qattiq tortilishga ega bo‘lganki, ulardan uchtasini birvarakay sozlash mumkin bo‘lgan. Mug‘niy cholg‘usi rubobni eslatadi, sariq o‘rik daraxtidan tayyorlanadi. Uning hajmi rubobdan kattaroq bo‘lib, uchburchak ko‘rinish hamda 32 ta torga ega.

Urmaviy o‘zidan oldingi allomalarning musiqa ilmiga oid merosidan foydalangan hamda ularning xizmatlarini yuqori baholagan. Butun dunyoga mashhur X asr olimi Abu Nasr Farobiyning o‘ziyning shayxi, ulug‘ ustoz va muallim deb atagan.

Uning kuy yaratishga doir «Sharafiya» risolasi, «Musiqa va ritm doiralari» kitobi Sharq musiqa nazariyasi taraqqiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Safiuddin al-Urmaviy bu risolalarida o‘n ikki maqom, olti ovoza, 24 sho‘ba va usul doiralari birinchi bo‘lib yaxlit tizimga solib o‘rganib chiqdi. Shuningdek, mazkur asarlarida nag‘ma (Sharq musiqa ilmida musiqa tovushi, ton) hosil etiladigan manbalar, bo‘dlar (oraliq, masofa, chaqirim — bir yoki turli vaqtda eshitilayotgan ikki tovush, nag‘ma, pardaning o‘zaro baland-pastlik munosabatlari (Yevropa musiqasidagi interval tushunchasiga qisman mos), jinslar (o‘tmish Sharq musiqa ilmida bir nechta bo‘dlar qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan musiqa tovushqatori), jamlar (majmua — o‘tmish Sharq musiqa ilmida jinslar majmuasidan hosil bo‘ladigan murakkab lad (parda) tuzilmalarining umumiy nomi), alhon (kuylar, ohanglar; lahn so‘zining ko‘pligi), cholg‘u sozlari, iyqo (tuzmoq, sozlamq, belgilamoq) masalalarini tahlil qilgan. Safiuddin al-Urmaviy nazariy qarashlarini, musiqa ijrosiga oid fikrlarini isbotlash uchun Sharq xalqlari kuylaridan 2 tasini jadvashtirib, dastlabki nota yozuvlarini ixtiro qilgan. Uning ikkala kitobini fransuz olimi D. R. Erlanje fransuz tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan.

Safiuddin al-Urmaviy kitobida ritmlar (davrlar) qismlarga bo‘lingan doira shaklida ko‘rsatilgan. Ular chapdagi bo‘linmadan boshlab soat millari bo‘yicha o‘qilgan. Yozuv ko‘rsatilgan bo‘linma zarbli hissani anglatgan, yozuvsiz bo‘linmalar esa pauza, aniqrog‘i zarbli hissaning davomini bildirgan.





«Majmu maxtub» kitobidagi quyidagi satrlar Safiuddin al-Urmaviyning musiqa ilmidagi xizmatlarini aniq ifodalab bergan: «Hech shubha yo‘qki, Safiuddin musiqa sohasida mukammallikka erishdi. Bu inson kuy va qo‘shiqlar bastalashda, maqomlarni ijro etishda, shuningdek yangi nazariy g‘oyalarni ilgari surishda noyob iqtidorga ega bo‘lgan».

Ayrim musiqashunoslar Urmaviyni koinotdagi yulduzlarga o‘xshatishgan. XX asrning ko‘zga ko‘ringan ingliz olimi Genri Jorj Farmer shunday yozgan edi: «... XIII asrda musiqa osmonida yorqin yulduz porladi. Uning nomi Safiuddin al-Urmaviydir». Muallifning ta’kidlashicha, musiqa san’atiga yangi uslub va qoidalar kiritgan Urmaviy, o‘z sohasida Abu Nasr Farobiydan keyingi eng buyuk olim hisoblanadi.

Abdulqodir Marog‘iy (XIV – XV asrlar).

Xoja Abdulqodir ibn G‘anbiy Marog‘iy 1353 yili hozirgi Ozarbayjon hududida tug‘ilgan. Musiqadan ta’lim olgach, Samarqandda Amir Temur (XIV asr) saroyida va umrining oxiri – 1435 yilga qadar Hirotda Amir Temurning o‘g‘li Shohruh Mirzo (XV asr I yarmi) saroyida xizmat qilgan. U mashhur bastakor, musiqashunos va mohir sozanda (ud) bo‘lgan. Marorg‘iyning asarlari ichida «Maqosid ul-alhon» («Kuylar mazmuni») asari mashhur bo‘lib, mutaxassislarning fikricha, u 12 maqom asosida 24 sho‘‘baning parda tuzilishini sistemalashtirgan². O‘n ikki maqom kuylari xalq musiqiy merosidan olingani ma’lum, shu jihatdan Marog‘iy tizimlashtirgan 24 sho‘‘baning tovushqatori ham xalq kuylari in’ikosidir. Mashhur jadid pedagogi G‘ulom Zafariyning (1889-1937) ma’lumotiga ko‘ra, Marog‘iyning sho‘‘ba kuylarini tizimlashtirish uslubi quyidagichadir:³

| t/r | Maqomlar | Sho‘‘balar | | t/r | Maqomlar | Sho‘‘balar | |
|-----|----------|--------------------------|--------------------------|-----|----------|--------------------|--------------------|
| | | 1-bo‘lim | 2-bo‘lim | | | 1-bo‘lim | 2-bo‘lim |
| 1. | Rahoviy | Navro‘zi arab (6 kuy) | Navro‘zi ajam (6 kuy) | 7. | Iroq | Muxolif (5 kuy) | Mag‘rub (8 kuy) |

² Энциклопедия. Музыка. – М., 2003.

³ Фулом Зафарий. Асаглар. – Т., 2018. 164-165-бетлар.

| | | | | | | | |
|-------------|----------|------------------------|---------------------|-----|---------|--------------------------|---------------------|
| 2. | Husayniy | Dugoh (2 kuy) | Muhayyar (8 kuy) | 8. | Navo | Navro'zi xoro (5 kuy) | Mohur (6 kuy) |
| 3. | Rost | Panjgoh (5 kuy) | Mubarqa' (1 kuy) | 9. | Isfahon | Tabriz (5 kuy) | Nishopur (6 kuy) |
| 4. | Hijoz | Segoh (3 kuy) | Hisor (8 kuy) | 10. | Ushshoq | Zobul (3 kuy) | Avj (8 kuy) |
| 5. | Buzruk | Humouy n (1 kuy) | Nuhuft (1 kuy) | 11. | Zangula | CHorgoh (4 kuy) | G'izol (5 kuy) |
| 6. | Ko'chip | Rokib (6 kuy) | Bayot (5 kuy) | 12. | Busolik | Ashiyron (10 kuy) | Sabo (5 kuy) |
| JAMI | | 111 KUY | | | | | |

Shu tariqa Marog'iy XV asrning I yarmida xalq kuylarini saqlab qoluvchi mutafakkir sifatida namoyon bo'ladi va bu kuylarning XX asr I choragida ham o'zbek sozandalari tomonidan ijro etilganligi qiziqarlidir⁴.

Marog'iyning xalq kuylarini notalashtirish uslubi ham Abu Nasr Farobiy kabi Markaziy Osiyo musiqa mutafakkirlari Pifagorchilardan qabul qilgan sentga asoslangan. Unga ko'ra, bir sent yarim tonning 1/100 ga teng keladigan interval o'lchovi bo'lib, bu tizim har qaysisi 702 ɛentdan iborat bo'lgan 12 sof kvintadir⁵. Bu tizimda tovushqatorlar ochiq qoladi. Shu bilan birga boshdagi tovush bilan kvintaning o'n ikkinchi tovushi o'rtasidagi farq 24 ɛentdan iborat bo'ladi.

Marog'iyning yana bir noyob xizmati shundaki, negizini o'zbeklar tashkil qilgan turkiy xalqlarning 9 turkumli quyidagi xalq kuylarining mavjudligi to'g'risida ma'lumot bergan:⁶

1. Uluq kug (Ulug' kuy)
2. Aslanchap (Chapandoz)
3. Burs (Ravon)
4. Quladu (Sho'x)
5. Qutatku (Baxt)
6. Burstarg'ay (Bo'zto'rg'ay)
7. Jantoy (Yoshlik)
8. Xantoy (Shohona)
9. Shandaq (O'yin)

Bu turkum kuylar o'zida 360 xalq kuyini mujassamlashtirgan ekan. Demak, keyinchalik bu kuylar birinchidan, maqomlar tarkibiga singib ketgan; ikkinchidan, alohida cholg'u kuylari sifatida ijro etilib kelgan. Bunga xalqimiz musiqa merosida

⁴ SHy жойда.

⁵ Акбаров И., Кон Ю. Хоғазм мақомлағи. // Хоғазм мақомлағи. VI том. Тўпловчи ва нотага олувчи М.Юсупов. – Т., 1958. 51-б.

⁶ Фитрат А. Ўзбек классик музыкаси ва унинг тарихи. – Т., 1993. 38-б.

saqlanib qolgan kuylarni yoki qozoq xalqining kuyya (kuylar) turkum asarlarini dalil sifatida keltirish mumkin.

Marog‘iy xalq kuylarini tasniflashda turkiy xalqlarda mashhur bo‘lgan quyidagi uch usul doirasiga asoslanganligini mutaxassislar ta’kidlashadi:⁷

1. Askanpop (Chapandoz)
2. Arg‘ushtak (Mustazod)
3. Ayalg‘u (Yor-yor)

Doira usullari:

Chapandoz: bak bum-bum bak-bum

Mustazod: bum bak-bum bak

Yor-yor: bum bak-bum bak

Shunday qilib, Marog‘iy xalq kuylarini Sharq nota an‘anasiga asosan notalashtirgan va bunda uning sof xalq kuylariga ham e‘tibor berganligi tahsinga loyiqdir.

Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. Abu Nasr Farobiyning musiqa asarlarini o‘rganish tizimi haqida nimalarni bilasiz?
2. Farobiyning ixtiro qilgan cholg‘u nomi qanday atalgan?
4. Farobiyning musiqa ilmiga atalgan kitobining nomi qanday?
5. Farobiy musiqani qanday ta’riflagan?
6. Safiuddin al-Urmaviy qaysi cholg‘uda ijro etib mashhur bo‘ldi?
7. Safiuddin al-Urmaviy qaysi cholg‘ularni ixtiro qilgan?
8. Safiuddin al-Urmaviy Farobiy haqida qanday fikr bildirgan?
9. Abdulqodir Marog‘iyning xalq kuylarini o‘rganish uslubi qanday?
10. Abdulqodir Marog‘iy o‘z asarlarida keltirgan turkum xalq kuylaridan misol keltiring.

⁷ Shu manba. 38-b.

Adabiyot:

1. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T., 1993.
2. G‘ulom Zafariy. Asarlar. – T., 2018.
3. Akbarov I., Kon UY. Xorazm maqomlari. // Xorazm maqomlari. VI tom. To‘plovchi va notaga oluvchi M.UYsupov. – T., 1958.
4. Энциклопедия. Музыка. – М., 2003.
5. Jabborov, A.X., Begmatov S.M., A‘zamova M.R. O‘zbek musiqasi tarixi. T., 2018.
6. Ibrohimov O.A. O‘zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism. To‘plam. T., 1994.
7. Matyoqubov O. Maqomot. T., 2004.

Internet saytlari:

1. <http://www.youtube.com>
2. <http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa>
3. [www.musikauz](http://www.musikauz.com)
4. <http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami>

12-14-darslar: XIX-XX ASRDA KUYLARNI NOTALASHTIRISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA OLIB BORILGAN ISHLAR

Xorazm tanbur chizig‘i⁸

Musiqashunos olimlar Otanazar Matyoqubov, Rustam Boltaev, Hamidulla Aminovlarning «Xorazm tanbur chizig‘i» (Kitobxon uz.) risolasida keltirilishicha, Sharq nota yozuvlarining kelib chiqishi islom yog‘dusi olamga shu‘la socha boshlagan davrlarga borib taqaladi. O‘sha davrlardayoq sozanda va xonandalar kuy va ashulalarning parda asoslarini belgilash yo‘llarini izlaganlar. Bunda kuy pardalarini alohida belgilar bilan ifodalashga harakat qilganlar. Kuylar cholg‘u torlari va dastadagi pardalarning shartli belgilari yordamida yozilgan. Ushbu tartib «barmoqlar» yozuvi deb nomlangan. Farobiy (873-952), Xorazmiy (X asr vaf.997), Ibn Sino (980-1037) kabi allomalar cholg‘u torlari va barmoq nomlari, abjad hisobiga asoslangan nag‘ma jadvallarini ishlab chiqqanlar. Bu jadvallardagi ko‘rsatilgan tovushqatorlar musiqa yozuvlarining ilk ko‘rinishlaridir. Mana shu asosda keyinchalik ud va tanbur tabulaturalari joriy etilgan. Xorazm notasi esa ushbu jarayonning cho‘qqisi sifatida vujudga kelgan.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz (1844-1910) sozanda bo‘lmagan bo‘lsa ham, musiqa, cholg‘uchilik san‘atiga o‘ta ishqiboz bo‘lgan. O‘sha davr musiqa udumlari asosida kuylar ijod etib, ularni Xorazm maqomlariga kiritgan. Mazkur kuylar xozirgacha mumtoz maqomlarning tarkibiy qismlari sifatida saqlanib kelmoqda. Bularning hammasi Feruzning musiqa san‘ati va bastakorlik borasidagi iqtidoriga guvohlik beradi. Feruz iqtidorli sozanda va xonandalarni o‘z atrofiga to‘plashga intildi.

Pahlavonniyoz Mirzaboshi Komil Xorazmiy (1825-1899) Xorazm musiqa tarixida muhim o‘rin tutgan shaxslardan hisoblanadi. Uning musiqa borasidagi xizmatlari ko‘p e‘tirof etilgan. Zamondashlari Pahlavonniyoz Mirzaboshini musiqashunos tarzida e‘zozlaganlar. Komil Xorazmiyning soz san‘atidagi o‘rni Xo‘ja Abdulqodir Marog‘iy, Najmiddin Kavkabi, Darvesh Ali kabi musiqa sohasidagi ulug‘ allomalar qatorida turadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Xonandalik bilan bir qatorda Pahlavonniyoz tanbur, g‘ijjak, chang sozlarida ham mahorat bilan ijro etgan. Feruz bilan Pahlavonniyoz o‘rtalarida ijodiy hamkorlik vujudga keladi va buning natijasida tanburga moslangan maxsus nota yozuvi ixtiro qilinib, Xorazm klassik musiqasining ilmiy va amaliy asoslari xatga tushiriladi.

Xorazm notasi vositasida musiqa asarlarini yozib olinishi muhim voqea bo‘ldi. Shu vaqtgacha amaliy tarzda, og‘zaki ijro etib kelinayotgan kuy hamda qo‘shiqlarning tarixda birinchi marta bo‘lg‘usi avlod sozandalari ixtiyoriga yozma

⁸ Ushbu bo‘limgagi ma‘lumotlar Kitobxon.uz saytidagi materiallarga asoslangan.


tarzda havola etish amaliy joriy qilindi. Kitoblarda bitilgan nota va so‘z matnlari, atama va iboralar, shu davr musiqa san‘ati hamda musiqashunoslik ilmining naqadar rivoj topganligidan darak beradi.

Xorazm nota yozuvining asosiy xususiyatlaridan biri – bu uning og‘zaki an’analar asosida ijod qiluvchi musiqachilarga mo‘ljallanganligidir. Bu yozuvda kuy va ashulalarning yo‘nalishi tanbur pardalariga muvofiq sodda va qulay uslubda ko‘rsatib beriladi. Shu tariqa tanbur yozuvi kuy va ashulalarning asoslari yozilgan kitob vazifasini o‘taydi.

«Xorazm tanbur chizig‘i» risolasida ta’kidlanishicha, tanbur tabulaturasida Xorazm tanbur va Dutor maqomlarining beshta asosiy tamoyillari ko‘rsatilgan.

1. Maqom va uning tarkibiy bo‘lak va qismlari, usul, tasnifot va tarkibotlarining nomlari ismlanish tizimi;
2. Maqom yo‘llarining to‘la-to‘kis kuy matni-notasi;
3. Doira usullari;
4. Maqom kuylari tarkibiy bo‘laklarining sarhadlarini belgilovchi ishoralar;
5. Maqom yo‘llarida aytiluvchi so‘z matnlari.

Risolada mazkur sohada muayyan qonun-qoidalar vujudga kelganligi va bunda hali ochilmagan yoki aniq dalillar bilan isbotlanmagan jihatlar mavjudligi hamda shu chigal masalalarni bartaraf etishda mazkur nota yozuvida keltirilgan ma’lumotlar qo‘l kelishi mumkinligi aytiladi. Tanbur chiziqlarida «Rost maqomi»ning cholg‘u va ashula yo‘llarining nomlanishi, lad birliklari bir xil. Lekin kuy harakatlari sezilarli darajada farq qiladi.



Хоразм Танбур табулатурасида куй измини танбур пардабандларига қиёсланиши.

Shuning uchun tanburning o'n sakkiz pardasiga muvofiq o'n sakkizta yotiq (gorizontal) chiziqlar chiziladi. Chiziqlarni chalkashtirmaslik maqsadida yonbosh tomonida tartib raqamlari yoziladi. Tanbur notasi arab yozuviga o'xshash tarzda o'ngdan chapga qarab o'qiladi. Boshqa pardaga o'tgan joy tik (vertikal) chiziq bilan ko'rsatiladi.

Chiziqning ostidagi nuqta simga pastdan, ustidagi nuqta uyqoridan noxun urilishini bildiradi. Nuqtalar qanday joylashuvidan qat'i nazar, ular faqat noxun zarblarining miqdorini belgilaydi. Zarblarning cho'zimi (ritm) sozanda tomonidan doira usuli hamda kuy yo'nalishiga qarab ijro etiladi.

Aytish zarurki, tanbur yozuvida hamma vaqt ham o'n sakkiz chiziqning barchasi chizilib o'tirmasdan, faqat mazkur kuy bo'lagiga moslari olinadi. Masalan kuy uchinchidan sakkizinchi pardagacha joylashgan bo'lsa, tegishli chiziqlar yon tomondan 3,4,5,6,7,8 raqamlari bilan belgilanadi. Tanbur chizig'idagi kuy oson o'qilishi uchun musiqashunos xattotlar ko'plab o'ng'ay shakllar o'ylab topganlar.

Musiqiy risolalarda usul doiralarining tarkibi niqra (lug', «chertish») va zarblar vositasida ifodalangan. Tanbur notasida kuy eng sodda «yakka zarb» shaklida yoziladi. Undagi nuqtalarning har biri torning bir chertilishi, ya'ni niqraga teng. Bunda xatga yozish va o'qish oson bo'lishi uchun kuy ataylab eng oddiy yakka zarb tarzida olinadi. Lekin ijroda ustozlar oddiy yakka zarb o'rniga davomiyligi unga teng bo'lgan «qo'sh zarb», «gulpar» («pirrang»), «rez» va boshqa murakkab zarblar ishlatib kuy ijrosini boyitib boradilar.

Xorazm notasida maqom usullari doira cholg'usi ijrosiga mos tarzda yoziladi. Usulning tarkibiy bo'laklari shartli tovush birliklari bilan ifodalanadi: gul, taq, taqa, taqqa. Gul – doiraning o'rtarog'iga, taq esa chekkarog'iga uch-to'rt barmoq bilan zarb etiladi. Taqa tovushi ikki o'rta va nomsiz barmoqlarni ketma-ket toydirib chertish yo'li bilan hosil qilinadi.

Tanbur yozuvining afzalliklaridan biri shundaki, deb ta'kidlanadi risolada, unda Xorazm ustozlari maqomlarning cholg'u yo'llariga a'lo usullar bitishgan. Uning sahifalarida keyingi nota kitoblari va amaliyotda uchramaydigan Chor usul, Murabba', Musaddas, Musabba' kabi a'lo usullar mavjud. Shundan so'ng, risolada Xorazm notasidan tiklangan 152 niqra, 76 zarbdan iborat tarkibiy bo'laklari Muxammas, Nim Saqil va Zarafshon deb ko'rsatilgan Se usuli Panjgohning boshlang'ich xonasi misol tariqasida keltiriladi:

М.М. = 76
1-хона

МУХАММАСИ УШШОҚ

Музыкальный фрагмент в 2/4 такте. Включает три системы нот. Первая система имеет пометку *tr*. Вторая система имеет пометку *2-хона*. Третья система имеет пометку *Бозғуй*. Музыка записана на скрипичных и альтернативных линиях.

М.М. = 80
1-хона

СЕ УСУЛИ ПАНЖГОҲ

Музыкальный фрагмент в 2/4 такте. Включает четыре системы нот. Первая система имеет пометку *Мухаммас*. Вторая система имеет пометку *Ним сакил*. Третья система имеет пометку *Зарафион*. Музыка записана на скрипичных и альтернативных линиях.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, turli manbalar orasida Xorazm nota yozuvi qo'lyozmalari o'zining ilmiy va amaliy salohiyatiga ko'ra yuqori o'rinda turishini ta'kidlashga barcha asoslar mavjud.

Feruz saroyidagi devonda qirqdan ortiq shoiru yozuvchi, tarixchi, xattot, sozanda uy xonanda faoliyat ko'rsatdi (Jumaxo'ja N. Feruz madaniyat va san'at homiysi. Toshkent, Fan, 1994.). Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Xorazm maqomlari notasini kitob holiga keltirish ishlari ham saroyning eng mohir xattotlariga topshirilgan. Yana ularning sozandalik sir-asrorlaridan xabardor bo'lishi talab etilgan. Chunki notani qog'ozga tushirish ishida bir nuqtaning ortiqcha yoki kam qo'yilishi kuyning buzilishiga olib kelar edi.

Bugungi kunda Xorazm notasining o'n sakkizta nusxasi ma'lum. XX asrning 30-yillarida musiqashunoslar va sozandalar izlanishlar olib borganlar. Qo'lyozma nota kitoblaridagi ilk sana 1881-82 yillarga to'g'ri keladi. Tanbur chizig'i faoliyati davrini olimlar uch bo'limda ko'rsatadilar: birinchisi – 1881 yilgacha bo'lgan davr; ikkinchisi – 1881 yildan 1920 yilgacha va uchinchisi – 1920 yildan keyingi davr. 1882-1885 yillar Tanbur chizgilarining eng ko'p ko'chirilgan yillari hisoblanadi. Hatto kitobfuroshlar uning nusxalarini savdoga ham chiqarishgan.

Tarixdan ma'lumki, nota ishlarini kitob holiga keltirish Feruz buyrug'iga binoan Komil Xorazmiyning o'g'li Muhammad Rasul mirzaboshiga topshirilgan. U cholg'u va ashula yo'llari tushirilgan ikki jildli nusxa ishlab, uni Feruzga taqdim qilgan. Mazkur xon nusxasining cholg'u kuylaridan iborat bir jildi bugun Adabiyot muzeyida saqlanadi. Ushbu manba asosida nusxalar yaratish ishiga musiqa ilmidan voqif bo'lgan eng mohir xattotlar Xudoybergan Muhrkan, Mulla Ismoil, Muhammad Yusuf Bayoniy, Muhammad Yoqub kabi ustozlar jalb qilingan.

Xorazm nota kitoblarini ikki toifaga ajratish mumkin. Ulardan biri saroy kutubxonasida saqlash uchun, ikkinchisi sozanda va musiqashunoslar foydalanishlari mo'ljallangan nusxalardir.

Xorazm notasi bilan bir qatorda musiqani yozib olish bo'yicha yana bir muhim tadbir qo'llanilgan. Feruz saroyida o'z sohasining yetuk ustozlari darajasiga erishgan sozanda va xonandalar voyaga yetganlar. Shulardan biri Qalandar Do'nmas edi. U Yevropadan Xivaga yangi keltirilgan ovoz yozish uskunasi – «mexanik fortepiano» yordamida kuy va qo'shiqlarni yozib olgan. Uning ijrosida yozilgan maqom yo'llari Xorazm notasi asosida amalga oshirilgan.

Xorazm tanbur chizig'ining avvalgi davrlarda yozilgan nusxalarida atamalar asosan arab tilida ko'rsatilgan. Keyinroq ko'pchilikka yaqinlashtirish maqsadida mahalliy tilda ko'chira boshlangan.

Pahlavonniyoz Mirzaboshining katta o'g'li Muhammadrasul Mirzaboshi (1922 yilda 83 yoshida vafot etgan) Xorazm nota yozuvi ishlariga mutasaddilik qilgan. «Xorazm musiqiy tarixchasi»da uni Xorazm musiqasining birinchi

islohotchisi deb baho beriladi (Mullo Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Moskva, 1925.). Nota ishlari jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan vaqtda u tahminan 40 yoshlarda bo'lgan. Umrining qolgan 40 yilini musiqa ilmi va nota yozuvining yanada barkamol bo'lishiga sarflagan.

Xorazm Olti yarim maqomining parda tizimini tanbur tabulaturasiga muvofiqlashtirish hamda doira usullarini shartli belgilarda yozib olish va nota kitoblariga tushirishda Muhammad Rasul yetakchi mutasaddi bo'lgan. Shu sababli ham Xorazm notasini mukammal yozuv darajasiga yetishida uning xizmati beqiyosdir. 40 yil davom etgan nota kitoblarini tayyorlash ishida Muhammad Rasul yetakchilik qilgan. Muhammad Rasul o'z qo'li bilan yozgan nusxalar Xorazm notasining eng sara namunalari hisoblanadi.

Xorazm tanbur chizig'ining noyob nusxasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida saqlanadi. Segoh, Buzruk va Dugoh maqomlaridan 51 nomdagi kuylarning notasi saqlanib qolgan. Hozirda uning asl muqovasi yo'qolganligi sababli zamonaviy muqova qilib qo'yilgan.

San'atshunoslik institutida ham Muhammad Rasul nusxasi saqlanadi. Ushbu noyob qo'lyozma Bokulik Mirhamid Yusuf tomonidan 1940 yilda Xolxo'ja Jalilovga sovg'a qilingan. Bu nusxada Xorazm maqomlarining aytim yo'llari notasi berilgan va kitobning bir necha joyida ko'chirilgan yil va oy sanasi ko'rsatilgan.

Muhammad Rasulning mohir sozanda va shoir ekanligini isbotlovchi yana boshqa bir omil – uning ijodiga mansub Musabbai Rost va Uforisi mumtoz asarlar sifatida e'tirof etilib, tanbur yozuvlarining mundarijasiga kiritilganligidir.

Xudoybergan Muhrkan (1920 yil 98 yoshida vafot etgan) musiqa va she'riyat ilmlarining sohibi, tanbur, g'ijjak va dutor cholg'ularining mohir ijrochisi sifatida tanilgan. Shu bilan birga u cholg'uchilik ilmiga ixtisoslashgan musiqashunos bo'lgan. «Xorazm musiqiy tarixcha»sida aytilishicha, yetti maqom nag'malarini bir martaba chizib chiqq'ondur. «Saqili Muhrkan» nomi bilan Rost maqomiga bog'lagan bir nag'masi bordur.


Feruz saroyining xushxat xattoti Xudoybergan Muhrkan ham yetuk musiqashunos sifatida xorazm maqomlarini tartib va nizomlarini rasmiylashtirish va nota kitoblarini tayyorlash ishiga jalb qilingan. Xudoybergan Muhrkan tuzgan nota kitobining nusxasi bizgacha yetib kelgan. San'atshunoslik institutidagi yana bir qo'lyozmada Xorazm maqomlarining chertim yo'llari mavjud va unda 75 ta kuy yozilgan. Unda Xorazm maqomining cholg'u yo'llari mukammal ravishda xatga tushirilgan.

Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan nusxada Xorazm tanbur maqomlarining chertim yo'llariga mansub bo'lgan 69 ta kuy yozilgan. Mazkur

institutda 7406 tartib raqami bilan saqlanayotgan nusxaning muhim tomoni shundaki, unda har bir kuyning usuli aniq ko'rsatib berilgan. Unda Xorazm maqomlarining chertim yo'liga mansub 31 ta kuyning doira usullari batafsil o'z ifodasini topgan.

Xudoybergan Muhrkan qalamiga mansub nota kitobida murakkab usul tuzilmalari mufassal belgilanib nota yozuvlariga olingan. Bu esa o'z navbatida Xudoybergan Muhrkanning nafaqat mohir xattot, balki zabardast musiqashunos bo'lganligidan ham dalolat beradi. Uning Xorazm maqomlari tarkibiga kiritilgan Saqili Muhrkan kuyi uning oliy maqomdagi sozanda va musiqashunos sifatida e'tirof etilganligini isbotlaydi.

Muhammad Yusuf Bobojonbek Bayoniy musiqashunoslik hamda nota ilmi sohasida o'zining ustozlari Muhammad Rasul Mirzaboshining munosib shogirdi bo'lib maydonga chiqdi. U arab, fors, hind va rus tillarini bilgan, ko'plab adabiy asarlarni tarjima qilgan, o'zining qalamiga mansub tarixiy asarlari ham bor. Bayoniyning nota yozuvi 1919 yilda jamlab kitob holiga keltirilgan. Bayoniy qo'lyozmasi deb ataladigan ushbu qo'lyozma bir nechta xat uslubida ko'chirilganligi bilinib turadi. Nusxaning muhim tomonlaridan biri – unda aytim va chertim yo'llari birgalikda berilgan. Qo'lyozma quyidagi duo bilan tugatilishi ham e'tiborga loyiq: «Faqir va kamtar Muhammad Yusuf ibn Bobojonbek, Alloh uning gunohlarini kechirsin va ayblarini yopsin, qo'li bilan 1338 (hijriy) tarix jumodiyal avval oyida tamom bo'ldi. Ey rab, bu ilmni berib, menga duo qilgan kishining imonini saqla!»



Bayoniy tuzgan nota kitobida maqom va nota ilmining piri ustozlari turli vaqt va sharoitlarda va xilma-xil uslublarda yozilgan matnlar jamlangan. Bundan tashqari, nota yozuvi ishlari eng avjiga chiqqan 1882 yilda Domla Muhammad Rasul qo'li bilan yozilgan Buzruk maqomining nusxasi ham bor.

Qalandar Do'nmas. Qalandar uning ismi, Do'nmas esa laqabi. Do'nmas Xorazm tilida o'z yo'lidan qaytmaydigan, dadil degan ma'nolarni anglatadi. Keksa san'atkorlarning aytishlaricha, Xorazmda tor cholg'usining joriy etilishiga aynan shu Qalandar Do'nmas asos solgan. «Xorazm musiqiy tarixchasi»da quyidagilar bayon etiladi: «Muning musiqadagi zakovat va iqtidorina butun Xorazm musiqashunoslari taslim etgan edilar. Yeddi maqom nag'malarini qog'ozda o'yib organ odli sozda bekamu-ko'st chirtmoqqa muvaffaq bo'lg'andur». Bu yerda gap mexanik fortepiano haqida ketmoqda. Mexanik fortepiano juda oddiy uskuna bo'lib, ovozi ham o'ziga yarasha, kuy yo'nalishiga mos tarzda teshikchalar ochilgan perfokarta(tasma)ning aylarinishi natijasida mexanik fortepianoda kuy ijro etiladi. Shu yo'l bilan yettita Xorazm maqomining cholg'u kuylari yozib olinganligi va bu ish Xorazm notasi yuzasidan amalga oshirilganligi muhim tarixiy ahamiyat kasb etadi. Sharqshunoslik institutida Qalandar Do'nmas tomonidan 1906 yilda amalga oshirilgan Xorazm maqomlarining kitob shaklidagi perfokarta ovoz yozuvlari saqlanadi.

Matyoqub Xarrot (1865-1939) Xorazm maqomlari va shu yo'ldagi nota ilmi sohasida ustoz va murabbiy bo'lgan. U Komil Xorazmiy oldida xat va savodini chiqargandan keyin musiqiy ta'lim olishga kirishadi. O'g'li Chokarning aytishiga qaraganda, maqomlarni o'sha davrda yaratilgan Xorazm tanbur chizig'i asosida ko'chirib chiqadi. Matyoqub Xarrotning ko'chirgan ushbu namunalar nusxasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

1934 yilda San'atshunoslik ilmiy-tekshirish instituti tomonidan Xorazmga ekspeditsiya uyshtirildi. Shunda Yelena Romanovskaya va Ilyos Akbarovlar tomonidan Matyoqub Xarrot ijrosida Xorazm maqomlari fonografga yozib olindi. Ana shu manbadan Yelena Romanovskaya notalashtirgan maqom yo'llari «Xorazm klassik musiqasi» nomi bilan 1939 yilda nashr qilingan.

Matyusuf Xarrot (Muhammad Yusuf Chokar)(1881-1952) yigitlik paytida tuzilgan «Devoni Chokariy» Matyusufning noyob shoirlik iqtidori bo'lganligini isbotlaydi. Musiqa sohasida Muhammad Yusuf mohir xonanda, tanbur, dutor va chang cholg'ularida yetuk ijrochi sifatida tanildi. O'z davrining yirik ma'rifatchisi Bekjon Rahmon o'g'li bilan hamkorlikda «Xorazm musiqiy tarixchasi» nomi ostida o'z sohasida birinchilardan bo'lib jiddiy tadqiqot o'rnidagi kitobni yozdi. Kitobda berilgan ma'lumotga ko'ra, ushbu risola yaratilishida «Xorazm chizg'ilari» suyanilgan.

1920 yillarda Matyusuf Xarrot tajribali sozanda va tadqiqotchi sifatida Xorazm notasi vositasida ko'plab kuy va ashulalarni yozib olish, shuningdek ularni kengroq ilmiy va amaliy muomalaga kiritish bo'yicha jonbozlik ko'rsatdi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Xorazm notasining Matyusuf Xarrot tomonidan yozilgan noyob qo'lyozmasi saqlanadi. Unda mumtoz

Shashmaqom tarkibiy qismlari bilan bir qatorda Buxoro va Xorazmda urf bo'lgan «Surnay yo'llari» notaga olingan. Mazkur manbaning ikkinchi qismida 125 nomdagi mumtoz kuylarning Xorazm tanbur chizig'idagi ifodasi aks ettirilgan.

«Xorazm musiqiy tarixchasi» kitobidan o'rin olgan nota yozuvi xususidagi ilmiy ma'lumotlar asosida Matyusuf Xarrot Xorazm tanbur chizig'i bo'yicha yirik mutaxassislardan biri ekanligi ma'lum bo'ladi. O'tgan asrning 30-yillar matbuotida e'lon qilingan maqola va ma'lumotlar ham Matyusuf Xarrot Xorazm notasi ilmida o'z zamonasining eng ko'zga ko'ringan mutaxassisi sifatida e'tirof etiladi.

Ustozning 1928 yildan 40-yillarning oxirigacha qo'llagan yon daftarida qimmatli ma'lumotlar bor. Unda Xorazm, Buxoro, Farg'ona va Toshkent vohalarining kuy va ashulalari nomlari, xususiyatlari, so'z matnlari va usul asoslariga oid noyob ma'lumotlar mavjud. Ulardan ma'lum bo'ladiki, Matyusuf Xarrot nafaqat Xorazm musiqasi, balki O'zbekistonning o'ziga xos voqa uslublari borasida ham bilimdonlardan biri bo'lgan

Komil Devoniy (1887-1939) – Muhammad Komil Mullo Ismoil o'g'li taxallusi Devoniy. Komilning noyob adabiy va musiqiy iqtidoriga Xon Feruzning nazari tushgan va bolaligidan devonxona xizmatiga jalb qilingan. Komil Devoniy yoshligidan iqtidorli shoir, musiqashunos, tanbur, dutor va g'ijjak cholg'ularining mohir ijrochisi, naqqosh, muhrkan, qurolsoz, zargar, musiqiy cholg'ular yasaydigan usta bo'lib elga tanildi.

1930-yillarda matbuotda Xorazm notasi xususida xabarlar tarqala boshladi va peshqadam ma'rifatchilar uni musiqiy ta'lim tizimiga joriy qilish masalasini o'rtaga tashladilar. Hamza, G'ulom Zafariy, Cho'lpon, Fitrat kabi ma'rifatparvarlar Xorazm notasini tarixiy va nazariy tamoyillarini o'rganish va uni ilmiy doirada tarqatish yo'llarini izladilar. Bu ma'rifiy ehtiyojlarni chuqur his qilgan ustoz va murabbiy Komil Devoniy Xudoybergan Muhrkan va Muhammadj Rasul Mirzo boshlab bergan nota ta'limini yangi sharoitlarda kengroq amaliyotga jalb qilish ustida bosh qotirdi. Uddaburon va iqtidorli san'atkor oldingi ustozlar yecha olmagan muammoga qo'l urib, Xorazm Dutor maqomlarini xatga tushirishni rejalag'tirdi.

Dutor nag'malarini notaga olishda o'ng qo'l harakatlari – zarblarni ifodalash masalasida chigallik bor edi. Xususan, Xivaning bosh dutorchisi Mullo Muhammad Sharif – Qambar bobo Dutor maqomlarini Tanbur maqomlariga o'xshatib kitob holiga keltirishga ko'p uringan bo'lsa-da, aynan shu zarblarni belgilash yo'lini topolmasdan masalani ochiq qoldirgan edi. Komil Devoniy esa ushbu sohadan boxabar bo'lganligi uchun dutor nag'malarini yakka zarb yo'lida tasavvur etish mumkin, degan qarorga keladi. Natijada, odatdagi Dutor maqomlarining kuy yo'nalishini mazkur ahvolda faraz qilib, kuy tuzilishini tanbur pardalarigi muvofiqlashtirib yozib chiqdi. Komil Devoniy dastxati bilan yozilgan

Dutor maqomlarining o‘ramanoma shaklidagi yozuvi Matyusuf Xarratov arxiv qog‘ozlari orasida saqlanadi.

Komil Devoniy keyinroq Xorazm Tanbur va Dutor maqomlarini kitob holida mukammal nusxa qilib ishladi. Bu Prezident Islom Karimov O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga taqdim etgan noyob qo‘lyozmadir. Xorazm Tanbur va Dutor maqomlarini o‘z ichiga oluvchi Komil Devoniy nusxasi maqomlar tarixi va amaliyotini o‘rganishda qimmatli manba. Qo‘lyozmada keltirilgan musiqa va so‘z matnlari bu san‘at turi haqidagi taassurotlarimizni kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Unda jami 97 ta ashula mavjud. Shundan 70 tasi tanbur maqomlari, 27 tasi esa dutor maqomlariga tegishli. Komil Devoniy ishlagan to‘la va mukammal nota kitobi nafaqat o‘zbek, balki butun Sharq olami musiqa tarixiga oid ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Quyida Tanbur chizig‘ida bitilgan hamda yevropacha nota tizimiga o‘tkazilgan namunalardan parchalar keltiramiz.

مقام راست

ماқоми Рост

Ё вожиб ал-вужуд лакал ҳамду вас-сано
Ойнаи вужудинга йуқ жувҳари фано.
Мезмори сунъинг айлади икки جهان уйин
Обу гил фано-у бақо тарҳидин бина.
Қилдинг чу ғамгусоринг улди тенгиз аро
Дурри ятим парваршинга садаф ано.
Авлаб намоди ҳусн ила мезмунлиқ аён
Ошиқларингга туҳфа юбардинг ғаму ғано

Урғача оғир
1-хона

Мақоми Рост *

Боя уй

3-хона

* Рост мақомининг қолғу қисми Худойберган М уҳридан нусхасидан олинди. ЎзБА Савиятшунослик илмий-тадқиқот институти. Изв № 1199.

خال بنا گوش عارض اورا ای یاری

بسهکه بیرسند ای یاری
هندویرا مست
زلف تو شمس ای یاری
خا خال روی تو نور ای یاری
چشم چشم تو شام است
سواری مقام راست
کلم ساری جانانیم کیلماسمو ایگان آیا
هجریده یامان حالیم بیلماسمو ایگان آیا

Холи бано гуш орани уро эй ерай

Баске, бирурсанд эй ерай хиндиyro маст
Зулафи ту шамс эй ерай

Хо холи руйи ту نور эй ерай
Чашми чашми ту шамс

СУВОРИЙ МАКОМИ РОСТ

Кудбам сори жоним келмасму экан оё
Хажрида ёмон холим билмасму экан оё

M.M. 100

Суворий макоми Рост

1-хона

Кул - бам си - ри жа - но - ним кел - мас - му э - кан

о - ё Хаж-ри - да ё - мон хо - лим бил - мас - му э - кан

Бозғўй

о - ё бил - мас - му э - кан о - ё

2-хона

Сўр - мок - ка бо - рур ё - рим О - шик - ла - рин ах -

во - лин деб ул ма - ни хам о - шик кел - мас - му

Бозғўй

э - кан о - ё кел - мас - му э - кан о - ё

مقدمینگ گردی جهان اهنی کوزیگه توتیا
 بل قلب لار کامل عیار اولماق اوچوندور کیمیا
 جانا نقابینگ بندین اوز کورگوز جهان اهلیمه یوز
 تا طور یلنگلیغ تاغ وتوز بولسون باری محو ضیا
 مغلوب ایتیپ شوقیم اگر رخسارینگا قیلسام نظر
 تیردین بولور غرق کهر بسکیم ایرور غالب حیا
 صید اولماق ایستاب هر زمان کونگوم قوشی دور پر فشان

НАҚШИ МАҚОМИ РОСТ

Эй мақдамнинг гирди жаҳон аҳли кўзига тўтиё
 Бал қалблар номил айёр ўлмоқ учундур кимё
 Жоно, ниқобинг бандин уз кўргуз жаҳон аҳлига юз
 То тур янглиг тоғ тўз бўлсун бори маҳви эс
 Мағлуб этиб шавқим агар рухсоринга қилсам назар
 Тердин бўлур гарчи гуҳар баским эрур голдиб ҳас
 Сайд ўлмоқ истаб ҳар замон кўнглум қуши парфшон.

M.M. 100

Суворий мақоми Рост

1-хона

Кул - бам са - ри жа - но - ним кел - мас - му э - кан

о - ё. Хаж - ри - да ё - мон хо - лим бил - мас - му э - кан

Бозўй

о - ё. бил - мас - му э - кан о - ё.

2-хона

Сур - моқ - ка бо - рур ё - рим О - шик - ла - рин ах -

во - лин деб ул ма - ни хам о - шик кел - мас - му

Бозўй

э - кан о - ё. кел - мас - му э - кан о - ё.

ایفاری مقام راست

ایفاری مقام راست

دل باز خیال رخ او کرد و چمن شد
جان نیز عتیق لب او دید و یمن شد
بگشاد جو مشاطله گره از سر زلفش
بر گردن شوق من دیوانه رسن شد

تا وصف کلام لب او کرد زینام
هر نکته صفاش به بهاء ندر عدن شد
از سنبل مویش همه شعرم شده خوشبو
هر مصرع رنگین جو گلستان خوتن شد

ИЙФОРИ МАҚОМИ РОСТ

Дил боз ҳасли руҳи у қард-у ҷаман шуд
Ҷон не аз ақиқи лаби у дид-у яман шуд
Бикӯшод чу машшота гириҳ аз сари зулфаш
Бар гардани шавқи ман дево на расан шуд
То васфи калом лаби у қард забонам
Ҳар нуқтаи софаш ба баҳон дурри Адан шуд
Аз сунбули муяш ҷама шеърам шуда хушбу
Ҳар мисраи рангин чу гулистони Хутан шуд

М.М. -75

Ийфори мақоми Рост

Бозғўй 1-хона

Дил боз ҳа-д-ли ру-ҳи у қар-ду ҷа-ман шуд. Ҷон не аз а-қи-қи ла-би у ди-
ду Я-ман шуд. оҳанг

Бозғўй 2-хона

Бикӯшод чу ман-шо-та ги-риҳ аз са-ри зулфаш. оҳанг

Бар гар-да-ни шав-қи ман де-во-на ри-сан шуд. оҳанг

Бозғўй 3-хона

То вас-фи қа-ло-ми ла-би у
қард за-бо-нам. оҳанг

Ҳар нуқ-та-и со-фаш ба-ба-ҳо-дур-ри а-дан шуд.

Бозғўй 4-хона

Аз сунбу-ли муяш ҷа-ма шеъ-рам шуда хушбу. оҳанг

Viktor Aleksandrovich Uspenskiy (1879-1949) Rossiyaning Kaluga shahrida tugʻilgan. U 1913 yil Sankt-Peterburg konservatoriyasini kompozitsiya boʻyicha A.Lyadov sinfida tugatdi.

1918 yildan boshlab V.Uspenskiy Toshkentda yashay boshladi, Oʻrta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tadqiqoti bilan shugʻullandi. Oʻrta Osiyo boʻyicha sakkizta etnografik ekspeditsiyalar oʻtkazdi. Bu ekspeditsiyalar natijasida oʻzbek, tojik, turkman anʼanaviy musiqasining qator nota toʻplamlarini tuzdi. 1923 yilda Buxoroda Uspenskiy shashmaqomning birinchi nota yozuvini (tanbur va doira usullari) amalga oshirdi. «Shashmaqom» toʻplami 1924 yilda nashr etilgan.

1925-1929 yillarda u Turkmanistonda uchta folklor ekspeditsiyasini oʻtkazdi va unda 350 dan ortiq xalq qoʻshiqlari va cholgʻu musiqasini notaga tushirdi. V.Uspenskiy «Turkman musiqasi» (V.M.Belyaev bilan hamkorlikda), «Alisher Navoiy soʻzlariga musiqa», «Oʻzbek vokal musiqasi» va boshqa koʻplab ilmiy ishlar muallifidir.

1931 yilda V.Uspenskiy Fargʻona vodiysiga uyushtirilgan musiqa-etnografik ekspeditsiyasiga rahbarlik qildi va ekspeditsiya davomida oʻzbek va tojik xalq musiqasini notaga tushirdi.

1932-1949 yillarda u Toshkentdagi Sanʼatshunoslik instituti musiqa kabineti mudiri, Toshkent xalq konservatoriyasi (1918-1922), musiqa bilim yurti (1928-1934) oʻqituvchisi sifatida garmoniya fanidan dars berdi. 1936 yildan boshlab u professor lavozimida Toshkent konservatoriyasida oʻz faoliyatini davom ettirdi. 1934 yilda V.A.Uspenskiy sanʼatshunoslik doktori ilmiy darajasiga erishdi.

Ilmiy ishlar qatorida V.A.Uspenskiy musiqali drama, simfonik orkestr, xor va fortepiano uchun koʻplab asarlar muallifidir.

Buxoro Xalq Shoʻrolar jumhuriyatining buyurtmasiga muvofiq V.Uspenskiy Shashmaqomni notaga olish uchun 1923-yilda Buxoroga keladi va oʻsha paytlar hayot boʻlgan Ota Jalol va Ota Gʻiyoslar ogʻzidan Shashmaqomni bevosita toʻgʻridan-toʻgʻri notaga ola boshlaydi. Bu qizgʻin jarayon qoq oʻrtasiga kelganda Dugoh maqomining Saqili Ashkullo qismini ustozlar hech eslay olishmaydi. Ana shunday chigal sharoitda Ota Gʻiyos qoʻlidagi Xorazm notasiga qarab Saqili Ashkulloni chalib berganida hamma xayratga tushadi.

Maqomlar butkul yozib olingan manbani koʻrgan rus olimi nihoyatda quvonib, bu nodir kitob haqida oʻzining yaqin doʻsti, Moskva konservatoriyasining professori Viktor Mixaylovich Belyaevga maktub yoʻllaydi va ajoyib topilma toʻgʻrisidagi xushxabar mutaxassislar orasida tarqalib, qiziqish uygʻotadi.

Buxoroda Shashmaqomni notaga olish ishlariga nozirlik qilayotgan taniqli olim Abdurauf Fitrat Ota Gʻiyos qoʻlidagi qoʻlyozmaning tartib va qoidalarini Uspenskiyga tushuntirib beradi. Fitratdan olgan maʼlumotlarni qoʻlyozma bilan solishtirib, V.Belyaevga bu haqda xat joʻnatadi. Natijada Angliyaning Oksford shahridagi «The Sackbut» jurnalida V.Belyaevning «Xorazmiy nota» («Khorezmian notation») maqolasi eʼlon qilinadi.

Keyinroq V.Uspenskiy oʻzining oʻzbek klassik musiqasiga oid dastlabki yirik maqolasida Xorazm notasi maqomlarining yaqin tarixi va amaldagi ilmiy asoslarini oʻrganish yoʻlidagi tayanch manba ekanligini eʼtirof etadi. Shashmaqomni nota

olishda orttirgan tajribasi asosida, Fitrat yordamida Uspenskiy tanbur notasidagi uslublarni o'zlashtirib oladi. Keyinchalik ushbu usul asosi va tanburning parda tuzilish tartibiga suyanib, Xorazm notasida yozilgan Buzruk maqomining Muxammasi Feruzshohiy qismini o'qib olishga va yevropacha notaga o'girishga muvassar bo'ladi.

V.Uspenskiy va V.Belyaevlar Xorazm notasi masalalariga keyinchalik ham juda qizg'in kirishadilar. Xorazmdagi hamkasblari Matyusuf Xarratovga xat yozib, tanbur notasi kitobidan nusxa xarid qilish niyati borligini bildiradilar. Buxoro Shashmaqomi nashr qilingandan keyin V.Uspenskiy Xivaga etnografik ekspeditsiya uyushtirish va Xorazm notasini bevosita o'z joyida ustozlar yordamida o'rganish ishtiyoqi bilan yashaydi. U O'zbekiston hukumatiga bir necha marta murojaat qilib, ekspeditsiya uchun lozim bo'lgan mablag' ajratishni iltimos qiladi. Xorazm ekspeditsiyasi uchun 1934 yilda mablag' ajratiladi. Lekin bu paytda V.Uspenskiy qattiq betob bo'lib qolganligi sababli safarga shogirdlari E.Romanovskaya va I.Akbarovlar borishadi. Ular maqom ustози Matyoqub Xarrot talqinida Xorazm maqomlarini tanbur ijro variantini fonografga yozib oladilar. Ana shu ovoz yozuvlarini keyinchalik E.Romanovskaya notalashtiradi va «Xorazm klassik musiqasi» nomli kitobni nashrga tayyorlaydi.

Viktor Mixaylovich Belyaev (1886-1968) «Xorazm notasi» kitobi qo'lyozmasida berilgan kuylarning nomlari va musiqiy atamalarni izchil o'rganishga kirishadi. U Shashmaqomga bag'ishlangan yirik tadqiqotni yaratishni ko'zlab hujjat va ma'lumotlar to'play boshlaydi. Bu tadqiqotni uyzaga kelishida Belyaev Xorazm notasini muhim manbalardan biri deb hisoblaydi. Ammo 30-yillarning oxirida uyzaga kelgan siyosiy vaziyat milliy musiqiy merosga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishga imkon bermadi.

Fidoiy olim V. Belyaev Xorazm notasini Yevropacha tizimdagi nota yozuviga o'girib chiqdi va bu qo'lyozmani Toshkentdagi San'atshunoslik ilmiy-tekshirish institutiga taqdim etdi.

XX asr o'rtalariga kelib O'zbekistonda milliy musiqa merosiga nisbatan yangidan ijobiy munosabatlarning iliq shabadalari esa boshladi. Ana shunday jarayonda «O'zbek xalq musiqasi» nomi bilan 9 jildlik to'plam uyzaga keldi. Bu majmuaning 5-kitobida ustoz Yunus Rajabiy yozib olgan Buxoro maqomlari, 6-jildida esa Matniyoz Yusupov notalashtirgan Xorazm maqomlari o'z ifodasini topdi. Ushbu to'plamlarga muharrirlik qilgan Ilyos Akbarov va Yuzef Konlarning tashabbusi bilan 6-jildga Xorazm tabulaturasidan Rost maqomi cholg'u yo'llarining asl va yevropacha notaga o'girilgan variantlari ilova etildi.

Ilyos Akbarov (1909-2003) Yevropa tizimida ta'lim olgan birinchi o'zbek musiqashunoslaridan. U 1930-yillarning boshida, Toshkent musiqa texnikumida o'qib uyrgan paytlarida ustози Viktor Uspenskiyga ilmiy-tadqiqot va ekspeditsiya ishlarida yordam berib yurardi. Ustози unga birinchi mustaqil ish sifatida Turon kutubxonasida saqlanadigan Xorazm notasi kitobidan nusxa ko'chirishni topshirgan.

Xorazm nota yozuvi Ilyos Akbarovning asosiy ilmiy mavzusiga aylandi. Urush yillari V.Belyaev Xorazm notasini yevropacha tizimga o'g'irganligi yosh musiqashunos uchun katta maktab bo'ldi.

Ilyos Akbarovning Xorazm notasi borasida qilgan ishlarining nashr etilgan qismi «O'zbek xalq musiqasi»ning 6-jildiga ilova qilingan ma'lumotlar mavzuga oid yagona nashr bo'lib, Xorazm tanbur notasining yozuv tizimi haqidagi tushunchalarni musiqa ahliga taqdim etuvchi dastlabki ma'lumotdir. Professor Ilyos Akbarov bu nota yozuvlarini xalq nazariga qaratishga harakat qildi. U turli kutubxona va shaxsiy iste'moldagi nusxalarni jamlab, tanbur chizig'ida bitilgan Xorazm maqomlarining yig'ma matnini tayyorlashga kirishdi va bu yo'lda talaygina ishlarni qilishga ulgurdi.

Elena Romanovskaya (1980-1947) musiqashunos etnograf, o'qituvchi. O'zbekiston musiqa folklorini to'plagan va tadqiqot qilgan. 1944 yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoniga sazovor bo'lgan. 1929 yilda Leningrad konservatoriyasini tugatgan. Toshkent xalq konservatoriyasini tashkil qilishda qatnashgan, bu o'quv yurtida musiqa nazariyasi fanidan saboq bergan. 1929 yildan Toshkent musiqa bilim yurtida, 1936 yildan Toshkent konservatoriyasida dars bergan. V.Uspenskiy rahbarligida xalq musiqa namunalarini to'plash bilan shug'ullangan. Taniqli o'zbek xonanda va sozandalaridan kuy va qo'shiqlarni yozib olgan. I.Akbarov bilan hamkorlikda «O'zbek xalq qo'shiqlari» (1941 y.) va «O'zbek cholg'u musiqasi» (1948 y.) kitoblari nashrdan chiqqan. 1937 yildan Toshkent konservatoriyasi direktori lavozimida ishlagan.

YUNUS RAJABIY⁹

Yunus Rajabiy o'zbek kompozitori, akademik, O'zbekiston xalq artisti, xonanda, sozanda, folklorchi olim, musiqa jamoalarining tashkilotchisi, o'qituvchi, jamoat arbobi.

Yunus Rajabiy asrlar davomida xalq xotirasida saqlanib kelayotgan bir yarim mingdan ortiq xalq qo'shiq va cholg'u kuylarini tizimlashtirdi va notaga oldi; bu qo'shiq va kuylarni u kelajak avlod uchun asrab qoldi. Amalda Yunus Rajabiy xalq musiqasini asrab qolish borasida misli ko'rilmagan qahramonlik ko'rsatdi, Chunki O'zbekistonda XX asargacha nota yozuvi bo'lmaganligi sababli kuy-qo'shiqlar ustozdan shogirdga, avloddan-avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgan. Akademik Vohid Zohidov Yunus Rajabiy haqida shunday degan edi: «Uzoq o'tmishdan bizgacha yetib kelgan, hatto unutilayozgan ajoyib kuylarga u sayqal berdi, ushbu nodir musiqiy durdonalar – bebaho marvaridlarni avlodlarga qoldirdi».

⁹ Ushbu bo'limdagi ma'lumotlar ru.wikipedia.org saytidan olindi.

Yunus Rajabiy 1897 yil 5 yanvarda Toshkentning «Chaqar» mahallasida tug'ildi. U Rajab ota va Oysha bibi oilasining kenja – o'n oltinchi farzandi edi. Otasi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanar, onasi ro'zg'orga qarar, bolalarni parvarishlardi. Yunus Rajabiyning onasi zukko, bilimli ayol bo'lib, Qur'onni yod olgan, she'riyatga qiziqar, o'zi g'azallar yozar, ko'plab g'azallarni yoddan o'qir va o'z dugonalari davrasida ularni zavq bilan o'qirdi. U nihoyatda chevar bo'lib, uyda o'zi ip yigirar, to'qir va farzandlariga kiyimlar tikardi. Otasi ko'p sohalarga qiziqar, san'atni, musiqani jondan sevardi. Ko'p hollarda u kichkina Yunusni xalq sayllari, turli kechalar, to'ylarga o'zi bilan olib borardi. Bu yerda Yunus taniqli xonanda va sozandalar ijrolarini birinchi marta tingladi, musiqa dunyosi bilan tanishdi, natijada musiqa san'ati uni butunlay o'ziga rom qildi.

Akasi Yunusga dutor sovg'a qildi. Otasi ham uning musiqa bilan shug'ullanishini qo'llab-quvvatlab turdi. Kichkina Yunus ilk marta Ilhom aka choyxonasida musiqa ijro qildi. Bolaning tengsiz eshitish qobiliyati va betakror musiqiy xotirasi bor edi.

Hali yosh bolaligidayoq eng murakkab va davomli kuylarni bir martagina tinglab, uni tezda xotirasida saqlab qolar hamda o'ta aniqlik bilan chalib bera olardi. Rajabiylar oilasi yaqinida taniqli hofiz Mirza Qosim istiqomat qilardi va kichkina Yunus undan dutor chalishni o'rgana boshladi. Tengdoshlari ko'cha changitib, o'ynab uyrganlarida u ijrochilik mahoratini oshirish uchun soatlab mashq qilardi. Yunus Mirza Qosimning «Omon yor», «Ajam», «Eshvoy» va boshqa kuylarni puxta o'zlashtirib oldi.

Bir vaqtning o'zida u maktab va madrasada o'qidi va 1913 yilda o'qishni tugatdi. Shu yili uning otasi vafot etdi. Oilasini moddiy ta'minlash maqsadida o'spirin kushxonada ishlay boshladi. Qo'li ishda bo'lsa ham, tezroq uyga borib musiqa bilan shug'ullanishni orzu qilardi. Choyxonadagi chiqishidan so'ng uni ko'pchilik tanib qoldi hamda taniqli hofizlar uni o'zlariga jo'r bo'lishi uchun turli bayram va kechalarga taklif qila boshlashdi. Tez orada yigitchaning moyilligi va iqtidori musiqa san'ati bilan chambarchas bog'liq ekanligiga tugal ishonch hosil qiluvchi uchrashuv bo'lib o'tdi. 1916 yilda u xalq hofizi Shorahim Shoumarov bilan tanishdi. Ularning do'stligi keyinchalik mustahkam ijodiy hamkorlikka aylandi.

O'spirinlik vaqtida Yunus Rajabiy mayin tembrli, quyi bariton ovozga ega edi. Shu vaqtda u Mulla To'ychi Toshmuhamedovdan xonandalik san'atini o'rgana boshladi, qo'shiq kuylashni shu darajada o'zlashtirib oldiki, ustozning eng sevimli shogirdlari qatoridan o'rin olib, ko'p hollardagi konsertlarda o'z ustozini o'rniga chiqishlar qildi.

Yunusning tashkilotchilik va pedagogik faoliyatga ham bo'lgan iqtidori ko'zga tashlandi. U yosh, iqtidorli yigit qizlarni izlab topar, ularni musiqa

ijrochiligiga o'rgatib, to'garaklar tashkil qilardi. Shunday qilib, 1919 yilda Toshkentda xalq konservatoriyasi ochilganda u to'la shakllangan ijrochi va tajribali pedagog edi. Shu sababli ham Yunus konservatoriyaga o'qishga kirmoqchi bo'lganida atrofdegilar: «Sen endi taniqli san'atkor bo'lding, o'qib nima qilasan?», deb uni qaytarmoqchi bo'ldilar. Biroq Yunus o'zi uchun professional musiqiy bilim olishi kerakligini yaxshi tushunib yetardi. U talaba bo'ldi; 4 yil davomida dutor va nay cholg'ularida ijrochilik san'atini takomillashtirdi, Buxoro Shashmaqomini o'rgandi, nazariy bilimlarni o'zlashtirdi.

1923 yilda Samarqandga boradi, bu yerda u musiqali drama teatrining rahbari sifatida faol konsert faoliyati bilan shug'ullanadi. Samarqandda Yunus Rajabiy ko'zga ko'ringan hofiz va dutorchi, maqomning yirik bilimdoni Hoji Abdulaziz Abdurasulov bilan uchrashadi; ushbu uchrashuv tom ma'noda uning ijodiy yo'nalishini belgilab berdi. Aynan Samarqandda Yunus Rajabiyning tarixda o'z o'rnini qoldirgan vazifasi – maqomlarni to'plash va yozish ishlari boshlanadi. U qunt bilan kuy va qo'shiqlarni izlab topadi, notaga tushiradi (bunda musiqiy bilimlar unga qo'l keladi) va ularni batafsil qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Yangidan-yangi asarlarni izlab u butun respublikani kezib chiqadi.

Bir vaqtning o'zida Rajabiy o'zining «Bahor», «Hammamiz» kabi kuy va qo'shiqlarini yoza boshlaydi va bu asarlar qisqa vaqt ichida ommalashib ketdi. 1927 yilda Toshkentga qaytadi va radiokomitet qoshida yangidan tuzilgan xalq cholg'u ansambliga rahbarlik qiladi. Shu vaqtdan boshlab Yunus Rajabiyning butun hayoti radio bilan bog'lanadi. 1937 yilda Moskvada uyushtirilgan radio-festivalida u rahbarlik qilayotgan ansamblning ijrochilik san'ati uyqori baholanadi. Bu jamoa ko'p yillar davomida xalq va mumtoz kuylarni ommalashtirishda ko'p yaxshi natijalarga erishdi. Uning hayotida yetuklik, ijodiy iqtidorining gullab-yashnagan vaqti boshlandi. Musiqa san'ati borasida u ko'plab janrlar rivojlanishiga o'zining ijodiy hissasini qo'shdi. O'zbek musiqali dramasiyning shakllanishi va gullab-yashnashi uning nomi bilan chambarchas bog'liqdir.

Rus kompozitorlari B.Nadejdin, V.Uspenskiy, G.Mushel bilan hamkorlikda «Muqanna», «Qasos» nomli dramalarga musiqa bastaladi, bu asarlar teatr sahnalarida ko'p yillar davomida muvaffaqiyat bilan qo'yildi. «Navoiy», «Muqimiy», «Furqat» radiomontajlarini tayyorladi. Simfonik orkestr uchun «Segoh», «Farg'ona suyitasi» kabi yirik shakldagi asarlarni yaratdi. O'zbekistonda opera san'atini rivojlantirishda uning hissasi juda katta. «Zaynab va Omon», «Nazira» kabi operalar Yunus Rajabiyning bevosita ishtirokida yozilgan.

Uning «O'yin bayoti», «Yetti syuita», «Paxta syuitasi» simfonik syuitalari «Bahor» ansamblining repertuarini boyitdi. Unga onasidan meros bo'lib qolgan she'riyatga bo'lgan muhabbat asosida Navoiy, Bobur, Furqat, Muqimiy kabi mumtoz shoirlar g'azallariga musiqa bastalash bilan yangi hayot bag'ishladi.

Rajabiy tomonidan uyksak did bilan yaratilgan va o‘zi ijro etgan «Ushshoq», «Bayot I,II», «Koshki», «Adoiy I,II» kabi qo‘shiqlarni xalq sevib tinglaydi. 1939 yildan boshlab Rajabiyning ko‘p jilddik «O‘zbek xalq musiqasi» nomli kitoblari chiqq boshladi.

Har bir jildda 200 dan ortiq asarlar mavjud, urushdan so‘ng olti jildlik «Shashmaqom» dunyo uyzini ko‘rdi. «Shashmaqom» yozuvlari bilan gramplastinkalarning chiqishi respublika madaniy hayotida ulkan voqea bo‘ldi. Bu yozuvlar murakkab sharoitda yozilgan: radiokomitetning derazalari tramvay uyradigan ko‘chaga qaragan edi. Musiqa sadolarini begona shovqinlar buzmasligi uchun yozular tungi soat 12 dan tonggi 5 gacha amalga oshirilar edi. Mazkur yozuvlar hozirgacha o‘zbek radiosining oltin fondini tashkil qiladi. Ko‘p qirrali ijodiy faoliyatidan tashqari Yunus Rajabiy ko‘plab jamoat ishlarini olib borardi. Ikki marta Oliy Sovet deputatligi, bir necha bor kompozitorlar uyushmasi boshqaruvi a‘zoliciga saylandi, respublika musiqiy hayotida faol ishtirok etdi.

Yunus Rajabiy tan olingan mohir o‘qituvchi va ustoz bo‘lishiga qaramay, hech qachon o‘z ustida ishlash, mahoratini takomillashtirishdan to‘xtamadi. 1940 yilda iqtidorli musiqachilar tarkibidan uni bastakor-kompozitorlar kurslarida o‘qish uchun Moskvaga yuborishdi. Ushbu kurs rahbari, taniqli musiqashunos V.Vinogradov tartib-intizomli, maqsad sari tinmasdan intiluvchi Yunus Rajabiy kelgan zahotiyoyq uni diqqatini jalb qilganligi haqida keyinchalik esga oladi. U ma‘ruzachini juda diqqat bilan tinglar, musiqiy nazariyaning odamni toliqtiruvchi darslarida doimo nimalarnidir yozar, juda katta qiziqish bilan ma‘lumotlarni o‘zlashtirardi. Bularning hammasi Vinogradovning Rajabiyga bo‘lgan hurmatini yanada oshirdi va kelajakda ular o‘rtasida do‘stona munosabatlarga sabab bo‘ldi. Ko‘p yillik do‘stlik uni D.Kabalevskiy va D.Shostakovichlar bilan iliq munosabatlarga asos bo‘ldi.

Toshkentga ilk marta kelishlaridan birida ilgari maqomlar to‘g‘risida eshitgan Shostakovich ushbu musiqqa asarlarini tinglash ixtiyorini bildiradi. Uni radiokomitetga taklif qilishadi. Bir soatdan ortiqroq ansambl ijrosidagi maqom asarlarini tinglagan Shostakovich, o‘z hissiyotlarini yashira olmay, ko‘zida yosh bilan Yunus Rajabiyi quchoqlab oladi. – «Betakror musiqqa!» – deydi hayajon bilan va esdalik uchun yozuvli kassetani unga berishlarini iltimos qiladi.

Insonning umri juda tez o‘tadi, lekin bu hayot qanchadan-qancha yorqin, unutilmas uchrashuvlar hadya etdi, behisob qiziqarli voqealarga boy bo‘ldi. O‘qituvchilar, ustozlar, qolaversa shogirdlar borasida unga omad kulib boqdi, uning 300 dan ortiq shogirlari unga chuqur ehtirom bilan «ustoz» deb murojaat qilishardi. Shogirdlari orasida Doni Zokirov, Nazira Ahmedova, Faxriddin Sodiqov, Sattor Yarashev kabi o‘zbek san‘atining darg‘alarini ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘plab iqtidorli insonlar kabi Yunus Rajabiy ham barcha sohada qobiliyatli edi. U ajoyib rasmlar chizardi. Qalamning bir necha harakati bilan hammaga tanish bo‘lgan obrazni yarata olar, bunda insonning eng yaxshi sifatlarini ko‘rsatib berardi. Milliy taomlarni ustalik bilan, «qiyomiga yetkazib» tayyorlardi. Rajabiy biror voqea yoki hodisani juda qiziqarli tarzda, hazil-mutoyibalar bilan so‘zlab berardi. «Qaysi davrada Yunus aka bo‘lsa – shu yerda zerikishga o‘rin yo‘q» – deyishardi uni bilgan odamlar. U radio tinglab o‘ychan holda, hayol surib turardi va kutilmaganda shunday dedi – «Popov buyuk inson bo‘lgan – u radioni ixtiro qildi». O‘rtaga sukut tushdi va atrofdagilarning barchasi unga ajablanib qarashdi – «Tinglash me‘daga tekkanda – ovozin o‘chirib qo‘yish mumkin» – deb u so‘zini tugatdi. O‘zlarini biroz noqulay sezgan sozandalar mashqlarini davom ettirishdi. Darhaqiqat, tabiat unga beqiyos iqtidor hadya qildi va u bu iqtidorni to‘la ro‘yobga chiqara oldi. Ko‘pda uning mustahkam oilasi, sadoqatli rafiqasi bularni amalga oshirishda yaqindan qo‘llab-quvvatlab turishdi. Yunus Rajabiy baland bo‘yli, istarasi issiq, shirinsuhan, iqtidorli, kelishgan inson edi. San‘atkorlar davrasida ko‘plab go‘zal qizlar uning ko‘nglini olishga harakat qilishardi. Ammo bulardan xabardor bo‘lgan onasi unga shunday nasihat qildi: - «O‘g‘lim, senga oddiy, uyim–joyim deydigan qiz kerak».

U onasining dono maslahatiga quloq soldi va bundan xursand bo‘ldi. Uning turmush o‘rtog‘i Qumri shundaylardan bo‘lib chiqdi. Shunday inson bilan yelkadosh bo‘lgan bu ayol butun qalbi, vujudi bilan unga dalda bo‘lishi, uni, uning iqtidori, qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlashi kerak ekanligini tushundi. Buning uchun u barcha narsalarni: uyda san‘atkor ijod qilishi uchun zarur bo‘lgan barcha qulaylik, yaxshi muhitni yaratdi. 12 farzandni dunyoga keltirib, tarbiyaladi. Ularning hammasi oliy ma‘lumotli bo‘ldi. Ular orasida xalq va xizmat ko‘rsatgan artistlar, xizmat ko‘rsatgan shifokorlar, fan nomzodlari, o‘qituvchilar, san‘atkorlar bor. Yunus Rajabiyning farzandlari boshqa yo‘ldan borishlari mumkin ham emas edi, chunki ularning ko‘z o‘ngida doimo tinib-tinchimas, ijodkor, mehribon otaning siymosi gavdalanib turardi.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qaroriga muvofiq 1989 yili Yunus Rajabiy xotirasini abadiylashtirish maqsadida u yashagan xonadonda uy-muzey tashkil qilindi. Hozirda bu uy-muzeyda ko‘plab noyob eksponatlar, musiqa cholg‘ulari, ulug‘ san‘atkorning o‘z qo‘li bilan bitilgan qo‘lyozmalar saqlanmoqda. Quyida mazkur qo‘lyozmalardan ayrimlarining nusxalarini keltiramiz.

RUM TRK
KK 4988

Сурнай бужрузи

A handwritten musical score for the piece 'Сурнай бужрузи'. The score is written on 12 staves. The first staff begins with a treble clef, a 3/4 time signature, and a key signature of one flat (B-flat). The music is written in a style characteristic of traditional Central Asian folk music, featuring a mix of eighth and sixteenth notes, often with grace notes and slurs. There are several triplets and groups of notes beamed together. The notation includes various rhythmic markings and ornaments. The paper shows signs of age and wear.

RUM 18K 556

Бохор мус. 70. Роккати
Теле. Т. Тула.

А. Д. Л. С. Р. 10

до-хор-бу-у-ка-минз-мур-ту
 ни-и-кет-мас-бу-мб-кет-зан.
 у-мур-бог-бу-ва-ган-минз-бох
 ри-ган-ум-мас-бу-мб-кет-зан.
 ла-то-фат-хам-ма-ло-хат-хам
 ма-зо-кет-хам-у-минз-кур-ри-,
 са-хо-ват-э-ми-ган-хам-ос
 Ти-бер-кит-мас-бу-мб-кет-зан
 ма-раф-хам-мар-ха-ма-тор-кан.,
 ку-ём-м-уз-ба-кис-тон-га(ё)
 у-мур-бог-уу-ту-най-ли-ос-ти
 Тарк-эт-мас-бу-мб-кет-зан.

31.

| | |
|-----|---------|
| RUM | IRK |
| | KK 5916 |

Бо зам лар го и мо калб лар,
 га охуш нуг лик би лан ил охил (о)
 (о) — (о) — (хай оло) (но)
 му со ми бах ри ум мон бир у
 мир бат мис бу либ кел ган.
 бу пер да шо ги лек о зог —
 на фас эрк бир ла о ган зог.
 бо хор бир хус ни хил пар зог
 э нас кет нас бу либ кел ган.

АВТОБИОГРАФИЯ

Раззадов Юнус Раззадович

| | |
|-----|---------|
| RUM | IRK |
| | КК 4906 |

Родился 1897 году, в г. Ташкенте, в семье рабочего. До 1910 года учился в школе. 1913 году умер мой отец и я вынужден был просить учёбу и поступить работать на скотобойню. Будучи ещё ребёнком, я увлекался музыкой и к 1910 г. я уже хорошо владел искусством певца-узбекского, поэтому все вечера после работы я пел в чайханах г. Ташкента и Янги-Юлы. В 1918 году я начал работать в ремесленном училище, в качестве руководителя музыкального кружка. С целью получения глубоких теоретических знаний по музыке, я одновременно решил учиться. В 1919 году поступил в музыкальный техникум г. Ташкента, который окончил в 1923 году. По окончании техникума я был приглашён в г. Самарканд на должность преподавателя музыки, в Педагогическом институте. Там я работал до июня 1925 года. А с 1925 года по сентябрь 1927 года - был узбекским руководителем первого узбекского музыкального театра в г. Самарканде. С сентября 1927 г. начал работать в Республиканском радиокомитете, где приступил к организации первого узбекского национального вокально-музыкального ансамбля. Создал

всего, в основном число и состав музыкантов
выросло под моим руководством и некоторые
из них стали композиторами, среди них
следующие: нар. арт. Уз.ССР тов. Саидов М.,
нар. арт. Уз.ССР Д. Закиров, нар. арт. Уз.ССР Н. Хаса-
нов, нар. арт. Уз.ССР Каланов С., нар. арт. Уз.ССР
Саидов Ф., засл. деят. культуры Мирзаев И.,
засл. арт. Уз.ССР Д. Сааткулов, засл. артисты Уз.ССР:
Касимов А., Саидов З., Казыров И., Юнусов С.,
Самоев И., Абдуллаев И. (это композитор-
первоклассник) из певцов: нар. арт. Уз.ССР Ахме-
дова К., Закиров К. (нар. арт. Уз.ССР); нар. арт. Уз.ССР
Ф. Рахматова, нар. арт. Уз.ССР Ярашев С.,
нар. арт. Уз.ССР К. Исмаилов, нар. арт. Уз.ССР
Берта Давидова, нар. арт. Уз.ССР Б. Исхакова,
из каретных певцов: братья Суфрахановы,
Исмаилов А., Шопаилов И. Засл. арт.
Уз.ССР Мушников К., Засл. арт. Уз.ССР Амихану-
мов А., Засл. арт. Уз.ССР Амиханов И., Засл. арт.
Уз.ССР Мухомов Д. и др.

Работая организатором и руководителем ор-
кестра, я одновременно создавал музыкаль-
ные произведения.

За это время я написал ряд музыкальных
произведений: вокальные песни, переложения для хора и оркестра, сюиты и музы-
кальные драмы: "Фархад и Ширин" (1922).

„Лейли и Меджнуне“ (муз. драм. и. ма) 1926), „Уолшской“, „Аваз“ „Касос“ (место 1941), „Кучкар Турдиев“ (1942); „Поэзия“ (1942-43), „Мухомор“ (1943). В 1956. написал, в соавторстве, оперу „Зайкаб и Омон“. Много также написал балетная сюита „Пахта“, которая была показана в 1957г. во время декады Узбекской литературы и искусства в Москве.

К 525 летию Алишера Навои, муз. драма „Навои в Астрабаде“ (1966-1967гг) начал собирать и записывать народные песни и музыку. Сейчас вышли в свет подготовленные мною 5 томов - „Узбекская Народная Музыка“. В дополненном виде вторично издается. — „Машмаком“ (шеститомник).

С 1952 года занимался я реконструкцией камерного оркестра с целью его перехода на нотную систему. Сейчас реконструкция уже осуществлена.

Мне в 1939 году присвоено было звание заслуженного деятеля искусств, являюсь членом Союза композиторов УзССР с 1939г, член Союза Рабис с 1949г. Трижды был депутатом Горсовета гор. Ташкента, 1959 году, был избран депутатом Верховного Совета УзССР. Правительство СССР за мою долгую и

плодотворную работу наградило меня:

— Орденом знака почёта, двенадцать (1915-1920)

— Орденом Трудового Красного Знамени двенадцать (1953)

— Орденом Ленина 1959 г.

— Медалью за трудовую доблесть (1939 г.)

— Медалью за доблестный труд; трижды

— медалью Отечественной войны; двенадцать

— медалью Юбилейной

Шесть раз награждался почётными грамотами Верховного Совета Уз. ССР.

В 1953 году Указом Президиума Верховного Совета Уз. ССР мне присвоено почётное звание Народного артиста Уз. ССР.

Женат; Имею 12 детей.

В 1966 году был избран действительным членом Академии наук Уз. ССР.

16/6-1971.





Yunus Rajabiyyning Toshkent shahridagi uy-muzeyi

Yuqorida aytib o‘tilgan musiqashunos olimlar qatorida o‘zbek xalq cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha faoliyat olib borgan o‘qituvchi sozandalar ham xalq kuylarini notalashtirishda sezilarli natijalarga erishganlar hamda qator xalq kuylarini notaga tushirish barobarida ularning ko‘plab to‘plamlari nashrdan chiqqan. Hozirda bu to‘plamlardagi asarlar talabalarning o‘quv va konsert repertuarlaridan mustahkam o‘rin egallab turibdi. Quyida shu kabi o‘qituvchi-sozandalarning faoliyatlaridan misollar keltiramiz.

Sulaymon Taxalov XX asrning 60-80 yillarida Toshkent davlat konservatoriyasining «Xalq cholg‘ulari» kafedrasida qashqar rubobi, afg‘on rubobi, tanbur cholg‘ularidan talabalarga saboq berdi. Uning sinfida tahsil olgan ko‘plab talabalar respublika va xalqaro ko‘rik g‘oliblari bo‘ldilar, shuningdek uning shogirdlari konsert ijrochilik hamda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanib, yaxshi natijalarga erishdilar.

Sulaymon Taxalov o‘qituvchilik faoliyati bilan bir qatorda xalq cholg‘ularida, xususan tanbur, qashqar va afg‘on ruboblarida o‘qitishning ilmiy-nazariy jihatlariga ham katta e‘tibor qaratdi va bu borada izlanishlar olib bordi. Shunday izlanishlar misoli sifatida uning «Проблемы исполнения и нотной записи узбекской и таджикской традиционной инструментальной музыки» («O‘zbek va tojik an‘naviy cholg‘u musiqasini ijro etish va uni notaga tushirish muammolari») nomli nomzodlik dissertatsiyasini keltirish mumkin. Mazkur ishda ko‘plab nazariy muammolar bilan bir qatorda S.Taxalov o‘zbek an‘naviy musiqasini zamonaviy nota tizimida talqin etish kabi dolzarb masalani yoritishga harakat qilgan.

Xalq cholg‘ularida ijrochilik hamda xalq kuylarini talqin etish asoslarini o‘rganish bu musiqaning asl mohiyatini anglab yetish va uni tafakkurlashga yordam beradi. S.Taxalov cholg‘u ijrochiligidaga asosiy ko‘rsatkichlardan bo‘lgan shtrixlar (zarblar) xilma-xilligi, ornamentika (ijro bezaklari), applikatura tamoyillarini ajratib ko‘rsatadi. Bularning hammasi birgalikda ijro jarayonining intonatsion asosini tashkil qiladi. Shtrixlar esa cholg‘u musiqasidagi talqinning «mag‘izi»dir.

Xalq kuylarida ijro bezaklari (ornamentika) asarni yaxlit talqin etishning ajralmas, uzviy qismidir. Boy va ajoyib ijro bezaklarining nozik va nafisligi ko‘p hollarda cholg‘u musiqasining uyqori badiiy va professional mukammallikdagi o‘ziga xosligini belgilab beradi.

Applikatura – barmoqlar harakatining asosi sifatida zarblar va uning eng nozik qirralarini ochib berishga xizmat qiluvchi omildir. Ko‘p asrlik ijrochilik an‘anasida applikatura me‘yorlarini ham ishlab chiqilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu applikatura tamoyillarini aniqlash va ularning bir tizimga solish

shtrixlar xilma-xilligi va ijro bezaklarini chuqur o'rganish jarayoni bilan bir qatorda turadi.

Og'zaki an'anadagi xalq professional musiqasini nazariy o'rganish va amalda ijro qilishning muhim muammolaridan biri – bu musiqani notalashtirishdir. Ko'plab xalqlar, shu jumladan o'zbek xalq musiqasining og'zaki an'analarga asoslanib kelganligi bizga ma'lum. Shunday bo'lsada, Sharq xalqlarida musiqaning alohida ko'rsatkichlarini turli belgilar yordamida qog'ozga tushirish amaliyoti mavjudligini tarixdan bilsak bo'ladi. Abul Faraj al-Isfaxoniyning (897-967) «Qo'shiqlar kitobi», Farobiy (873-950), Ibn Sino (980-1037), Urmaviy (1215-1294), Sheroziy (1203-1292) va boshqalarning risolalarida tovushqator va ritmlarni harflar yordamida belgilangan. XIX asrning ikkinchi yarmida tanbur chizig'i yordamida maqomlar va xalq musiqasi namunalari yozib olingan.

Ammo musiqani yozib olishdagi bu uslublar tanish bo'lgan musiqa asarini yodda tiklash uchun yordamchi vosita sifatida ishlatilgan. Amalda esa musiqa xotiraga tayangan holda, og'zaki tarzda tarqatilgan va avloddan-avlodga o'tib kelgan.


Albatta, xalq an'anaviy musiqasini oddiy besh chizikli nota yozuviga tushirishning o'z qiyinchiliklari bor. Musiqiy etnografiya endi shakllanayotgan vaqtda etnograflar xalq musiqasini notaga tushirishda o'ziga xos intonatsion jihatlar va ijro bezaklarini aks ettirishning turli yo'llarini jiddiy izlash muammolariga duch kelishgan. Ular xalq musiqasining nota yozuvida yuzaga kelayotgan o'ta soddalik va oddiylikni anglab yetganlar. O'zbek musiqasini birinchi to'plovchilaridan bo'lgan A.Eyxgorn ushbu musiqadagi tovushlarning o'ziga xos «ko'tarilishi» va «pasaytirilishi», pastga va uyqoriga sirg'alishini qayd etgan. V.Uspenskiy, N.Mironov, Ye.Romanovskaya, Yu.Rajabiy va boshqalarning tahliliy ishlarida o'ziga xos, nozik intonatsion aylanmalar, boy ijro bezaklari to'g'risida ko'plab qiziqarli va qimmatli fikrlar aytilgan. Ammo bu jihatlar nota yozuvlarida o'z aksini to'la-to'kis topmagan. S.Taxalovning bergan ma'lumotiga ko'ra A.Kozlovskiy va A.Chetvertakovlarning yozuvlarida intonatsiya jihatlarini yanada to'laroq aks ettirishga bo'lgan harakatlar ko'rinib turadi.

XX asrning 50-yillarida O'zbekiston Madaniyat vazirligining Hamza nomidagi ilmiy-tekshirish institutida F.Karomatov, S.Gabrielyans, V.Markelov va boshqalar an'anaviy musiqaning fondga saqlanayotgan magnitofon yozuvlarini notaga tushira boshlashgan. Bu ishlarda ijro bezaklari va intonatsion aylanmalarni aks ettirishga, ularni belgilash uchun maxsus belgilarni ishlab chiqishga bo'lgan yanada kattaroq e'tiborni ko'rishimiz mumkin. Bu qo'lyozmalar ichida F.Karomatovning ishlari o'zining maqsadga aniq yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Xalq musiqasini ijrochilik texnikasi - shtrixlar, ijro bezaklarini yanada to'laroq va batafsilroq aks ettirish ishlari Toshkent davlat konservatoriyasi professor-o'qituvchilari tomonidan davom ettirildi. Ushbu yo'nalishda Sulaymon Taxalov samarali mehnat qilib, ijobiy natijalarga erishdi. O'zbek an'anaviy musiqasining ijro bezaklari va shtrixlarini umumlashtirib, S.Taxalov ularni nota belgilari orqali iloji boricha to'liq va asl ijroga yaqinlashtirib aks ettirishga harakat qildi.

Quyida «Tasnifi dugoh»dan parcha keltiramiz:


V.Uspenskiy notaga tushirgan:




S.Taxalov notaga tushirgan:



V.Uspenskiy bilan bir vaqtda (1928 y.) N.Mironov boshchiligida Samarqand musiqa va xoreografiya instituti xodimlari tomonidan ham an'anaviy musiqani notaga tushirish ishlari olib borilgan. N.Mironov o'z ilmiy ishlarida o'zbek musiqasiga xos bo'lgan vibratsiyali, glissandoli va melizimli bezaklar - «molish», «nolish», «kashish», «yakka nohun», «qo'sh nohun», «rez nohun» va boshqalarni ko'rsatib o'tgan bo'lsada, uning o'quvchilari olib borgan cholg'u musiqasi nota yozuvlarida mazkur ijro bezaklari va shtrix uslublari keng o'rin olmagan.






O'zbek folklor va an'anaviy musiqasini o'rganish hamda uni notaga tushirish ishlariga Ye.Romanovskaya katta e'tibor qaratdi. Bu borada uning taniqli sozanda, dutorchi Abdusoat Vahobov ijrosida yozib olgan dutor musiqasi e'tiborni tortadi. Bu yerda dutor musiqasining o'ziga xos xususiyatlari: qo'sh tovushlik, cho'zimlarning bo'linishi, shtrixlarni nota yozuvida aks ettirishga harakat qilingan.




Shtrixlar rang-barangligi, sadolanishdagi ijro bezak xususiyatlari mavjud bo'lmasa, xalq musiqasini «qayta tiklash» juda mushkul vazifa, deb ta'kidlaydi S.Taxalov. V.Uspenskiy, N.Mironov, Ye.Romanovskayalarning xalq musiqasini to'plash va uni notalashtirishdagi ishlari zamonaviy musiqashunoslik uchun asos vazifasini o'tab kelmoqda.

1958 yilda M. Yusupov notaga olgan xorazm maqomlari nashr etildi, unda ashula va cholg'u yo'llari alohida ko'rsatilgan.

O'zbek an'anaviy musiqasini to'plash va uni notaga tushirish tarixida akademik Yunus Rajabiyning xizmatlari beqiyosdir. Turli janrdagi ashula va cholg'u musiqasini (700 dan ziyod ashula va cholg'u asarlari) to'plash va notaga tushirishdan tashqari Yu.Rajabiy maqomlarni tizimlashtirish va notaga tushirish ishlariga katta e'tibor berdi. Yu.Rajabiyning bu yo'nalishdagi faoliyatini uch bosqichga ajratish mumkin: birinchi bosqich – maqom qismlarini yozib olish, ular «O'zbek xalq musiqasi»ning I-IV jildlariga kiritilgan; ikkinchi bosqich – Shashmaqomni to'liq holda notalashtirish va nihoyat o'zining amaliy faoliyatiga asoslangan holda olti jildlik Shashmaqom nota matnini yaratish. Shashmaqomning oxirgi nashrida Yunus Rajabiy ko'p jihatlarni tartibga tushirdi: barcha qismlarning usullari va metroritmik asoslari to'g'ri aks ettirildi, ayrim ijro bezaklari matnga kiritildi, bezakli sadolanishning o'ziga xos uslublariga tushuntirishlar berildi.





Cholgʻu musiqasining F.Karomatov tomonidan amalga oshirilgan nota yozuvlarida ham yanada batafsillik koʻzga tashlanadi. Ularda oʻzbek musiqasining ijro bezaklarini yanada toʻliqroq aks ettirish uchun shartli belgilar kiritilgan: tovushni uyqoriga koʻtarish uchun (+), pastga tushirish uchun (-), vibrato (~~~~~), uyqoriga glissando (~~~~~), pastga glissando (~~~~~), past ijro etiladigan tovush [♩], barmoqni uyqoriga sirgʻalishi yordamida tovushni uyqoriga koʻtarish (↑), barmoqni uyqoriga sirgʻalishi yordamida tovushni pastga tushirish (↓). Xalq cholgʻu musiqasi ijro bezaklari yozuvda aks ettirilishi namunasi sifatida «Rok» kuyini keltirish mumkin.



Ushbu nota yozuvida kuyning tanbur ijrochiligiga xos boʻlgan nafis ritmik shakllari oʻz aksini topgan, yakka, qoʻshaloq forshlaglar koʻrinishidagi melizm bezaklari va kuyning asl holatini toʻliq aks ettirishga koʻmaklashuvchi boshqa xususiyatlar yozilgan. Biroq qoʻllanilgan belgilar bu bezaklarni aniq koʻrsatib bermaydi – masalan, tovushni qay darajada (yarim tongami yoki bir tongami) uyqoriga tortib koʻtarish yoki pastga tortib tushirish kerak?



A.Kozlovskiy tomonidan notalashtirilgan xalq cholgʻu kuyi eʼtiborni oʻziga tortadi:



Dutor uchun yozilgan «Qo'shtor I,II» asarlarida kuy materiali va ritmik shakllar nisbatan batafsilroq yozilgan. O'ng qo'l bilan dutor qorin qopqog'iga amalga oshiriladigan zarbni yozish uchun notalashtiruvchi muallif alohida chiziqdan foydalanadi. Lekin, deb yozadi S.Taxalov, kuyni magnetofon yozuvida tinglaganimizda «Qo'shtor» kuyining birinchi qismi dutor torlarini chap qo'l barmoqlari bilan chimdib ijro etilishi, ikkinchisida esa oddiy shtrixlar – torlarga zarb berish orqali chalinishiga guvoh bo'ldik. Bu uslublar A.Kozlovskiyning nota yozuvlarida aks etmagan.

S.Taxalovning ta'kidlashicha, S.Gabrielyan an'anaviy cholg'u musiqasini notalashtirishning tan olingan ustalaridan bo'lgan. Uning yozuvidagi «Turki Husayniy» kuyi quyidagicha:



Bu yerda ko'plab ijro bezaklari – forshlag, trel va b. ko'rsatilgan, ular kuyning asl sadolanishi aks ettirishga yordam beradi. S.Taxalovning fikricha, bu yerda naxshlaglarning  ishlatilishi ijro bezaklarining asl sadolanishiga unchalik mos tushmaydi. Naxshlaglar o'rniga qo'shaloq mordentlardan  foydalanish o'rinli bo'lardi. Bunday talqin afzalroq, chunki yuqoridagi yordamchi tovush asosiy tonga qaytishni talab etadi, oxirigi, beshinchi nota boshqalarga qaraganda davomliroqdir.

V.Markelov tomonidan notalashtirilgan «Jigarpora» kuyida «qochirim»ning ba'zi unsurlari notalar vositasida ko'rsatilgan.



Ammo bu yerda mazkur kuyga xos bo'lgan «kashish» bezak uslubi qayd etilmagan bo'lsada, magnitofon yozuvida u aniq eshitilib turadi. Taqqoslash uchun «Jigarpora» kuyining S.Taxalov tahriridagi yozuvini keltiramiz:



Bu misolda S.Taxalov kuyning intonatsiya jihatlari, shtrixlar va applikaturani ko'rsatishga harakat qilgan.


Xalq musiqa merosini ko'p yillar davomida to'plash va notaga olish jarayoni natijasida salmoqli nota fondi yaratildi. Notaga olish jarayoni hozirgi kunda ham davom etib kelayapti. O'zbek musiqa merosini chuqur o'rganish va shu asosda ularni notalashtirish yosh mutaxassislarning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Ijro va shtrix bezaklarining ohang xususiyatlarini yanada batafsilroq notaga tushirishning yangidan-yangi imkoniyatlari ijroning haqiqiy sadolanishini to'liq ochib berishga imkoniyat yaratadi. Xalq musiqasi ijro jarayonini hisobga olgan holda uni notalashtirish nota matnini asl ijroga yaqinlashtiradi. Musiqani notaga tushirayotgan mutaxassis asarning matni va uni ijro etishning ichki jarayoni haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Notaga tushirayotgan muallif cholg'uning imkoniyatlarini bilishi, ijro bezaklari va shtrixlarni kerakli joyda ishlata bilishi, applikatura tamoyillari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.


Zamonaviy musiqashunoslik yutuqlariga suyangan holda S.Taxalov o'zbek cholg'u musiqasini notalashtirishda o'ziga xos tizimi yaratishga harakat qildiki, unda turli ijrochilik uslublari asosida asosiy shtrixlarning eng maqbul bo'lgan

ko‘rinishini, vibratsiya va glissandoli ijro bezaklarini aniqlash va ularni mos tarzdagi ramzlar bilan aks ettirishni o‘ziga vazifa qilib qo‘ydi. Sadolanish xarakterini anglash va ularni ramzlar bilan belgilash eng katta qiyinchilik tug‘irdi.


Nota yozuvida oddiy yakka zarbli «bezak» asosiy notadan oldin joylashgan yakka qisqa forshlag – chiziqchali kichik nota ko‘rinishida belgilanadi:




Qo‘shaloq va uchtalik «bezak» qo‘shaloq va uchtalik forshlag belgilari bilan aks ettiriladi:




«Bezaklar» torga zarb bergan holda yoki zarb bermasdan ham ijro etilishi mumkin. Nota yozuvida torga zarb berib ijro etiladigan «bezak»da nota belgisi ustiga shtrixni ko‘rsatuvchi belgilar qo‘yiladi:





Zarbsiz ijro etiladigan «bezak»da forshlag ustiga + belgisi qo‘yiladi:







«Bidratma» (trel) uslubi qo‘shni tovush bilan almashib sadolanadi va umum qabul qilingan ramz bilan belgilanadi. Ushbu ramz qisqa va shuningdek davomli trelni anglatishi mumkin. Yuqori va pastki tovushlar bilan almashinib ijro etiladigan «bidratma» nota yozuvida quyidagicha belgilanadi:



Yuqori va pastki yordamchi tovushlar bilan ijro etiladigan «Bidratma» asosan rubob, dutor va chang cholg‘ulariga xosdir. Tanbur ijrochiligida bu uslub ishlatilmaydi. + belgisi qo‘yilgan trel asosiy tovushdan – torga zarb berish bilan boshlanadi, qolganlari zarbsiz, faqat chap qo‘l barmoqlari yordamida ijro etiladi.




Agar «bidratma» uslubi davomida + belgisi bo‘lmasa ijro mediator, noxun yoki barmoq yordamida (pastga va uyqoriga IIV) amalga oshiriladi.




Nota yozuvida «sayqal» uslubi batafsilroq yondashishni talab etadi. Agar trel ijrosi vaqtida nota cho‘zimining boshidan oxirigacha tovushlar to‘xtovsiz almashinib tursa, uch yoki besh tovushdan iborat bo‘lgan «sayqal» asosiy nota cho‘zimining yarmini egallaydi va nota yozuvida quyidagicha belgilanadi: uyqorida joylashgan butun yoki yarim tonli bezak tovushi bilan uch tovushdan iborat «sayqal» oddiy mordent ramzi bilan belgilanadi,




pastda joylashgan butun yoki yarim tonli bezak tovushi bilan uch tovushdan iborat «sayqal» oddiy chiziqchali mordent ramzi bilan belgilanadi:




Yuqorida joylashgan yordamchi tovushli, besh tovushdan tashkil topgan «sayqal» qo‘shaloq mordent ramzi bilan belgilanadi:




Pastda joylashgan yordamchi tovushli, besh tovushdan tashkil topgan «sayqal» chiziqchali qo‘shaloq mordent ramzi bilan belgilanadi:




An’anaviy ijroda «sayqal»ning barcha shakllarida asosiy tovushni torga bitta zarb bilan ijro etiladi, qolgan barcha tovushlar + ramzi bilan belgilanadi:




«Qochirim» uslubining aks ettirilishning boshqa jihati alteratsiya belgilarini qo‘yish bilan bog‘langan. Ma‘lumki, diez va bemollar kalit yoniga va nota matni davomida qo‘yiladi. Birinchi holatda ular nafaqat tovush balandligini tartibga soladi, balki asarning lad-tonal tizimini aniqlaydi. Ikkinchi holatda esa u yoki bu nota oldiga qo‘yiladi, faqat takt ichidagina amal qiladi. «Qochirim» (ayniqsa «bidratma» va «sayqal») unsurlarini notaga olishda S.Taxalov melizm belgilarining ustiga yoki tagiga qo‘yiladigan tasodifiy belgilardan ham foydalanadi. Bu holda belgilar har bir hg‘olatda alohida qo‘yiladi.



«Qochirim»ning ko‘rib chiqilgan unsurlari ichiga boshlang‘ich bezaklarga qarama-qarshi bo‘lgan melizm kiradi, ya‘ni u asosiy tonning yakunlanishida sadolanadi. Bu uslub an‘anaviy ijrochilik amaliyotida ko‘proq uchraydi va «qo‘sh noxun» deb ataladi. Bu uslub yevropacha «naxshlag»ga o‘xshaydi, nota yozuvida quyidagi ko‘rinishga ega:



«Naxshlag»lar asosiy tonning yakuniy qismi bo‘lgan holda asosiy notaga bezak sifatida xizmat qiladi. Torli-chertma cholg‘ularda «naxshlag»lar odatda torga zarb bermasdan ijro etiladi va + belgisi bilan ifodalanadi:



«Qochirim» unsurlarini notalashtirishning namunasini ko‘rib chiqamiz:





Ushbu misolda notaga tushirishning uch xili berilgan. Birinchisida kuy asosiy tovushga yordamchi sifatida «qochirim» unsurlari bilan yozilgan. Ikkinchisidagi yozuv kuy yo‘nalishi uning baland-pastligi va ritmik suratini ko‘rsatadi. Uchinchi qatordagi yozuv melizm belgilarini ko‘rsatgan holdagi ko‘rinish. Yozuvlarning har bir turi ritm suratini yiriklashtirishga yordam beradi, nota matnining umumiy ko‘rinishini soddalashtiradi va o‘z navbatida bularning hammasi nota matnini o‘qishni osonlashtiradi.

«To‘lqinlatish»ning uch xili – a) oddiy; b) kechikibroq ijro etiladigan; v) yakuni chiziqchali. Oddiy to‘lqinlatish (sadolanishning oxirigacha amal qiladi) nota ustiga to‘lqinli chiziq qo‘yiladi $\overset{\sim}{\circ}; \tilde{p}; \tilde{r}$, kechikibroq ijro etiladiganda nota ustiga yarmisidan to‘lqinli chiziqqa o‘tadigan to‘g‘ri chiziq qo‘yiladi $\overset{\sim}{\circ}; \tilde{p}; \tilde{r}$, yakuni chiziqchali to‘lqinlatish nota ustida to‘lqinli chiziqdan keyin «naxshlag» bilan belgilanadi $\overset{\sim}{\circ}; \tilde{p}; \tilde{r}$.

«Nolish»ning turlari ham bir-biridan farqlanadi: oddiy, kechikibroq ijro etiladigan va yakuni chiziqchali. Ular nota ustidagi «siniq» chiziqchalar bilan belgilanadi – oddiy $\overset{\sim}{\circ}, \tilde{p}, \tilde{r}$; kechikibroq ijro etiladigan $\overset{\sim}{\circ}, \tilde{p}, \tilde{r}$ va yakuni chiziqchali $\overset{\sim}{\circ}, \tilde{p}, \tilde{r}$.





«Molish» bir notadan boshqasi tarafga to‘g‘ri chiziq tortish bilan belgilagadi. «Molish»ning barcha turlari intervalning katta-kichikligi va notalar guruhidan qat‘i nazar yagona tamoyil asosida belgilanadi.


«Tarjei navo» maqom kuyini ijro etishda «kashish» uslubi yarim ton oralig‘ida qo‘llaniladi, «Samoi dugoh», «Muhammasi Rost» kuylarini ijrosida esa «kashish» uslubi bir ton oralig‘ida qo‘llanilishini S.Taxalov o‘z ishida ta’kidlagan. Yarim ton oralig‘idagi «kashish» to‘g‘ri chiziq bilan tugaydigan mordent  bilan; bir ton oralig‘idagi «kashish» esa so‘ngida yarim doira shaklida tugaydigan mordent  bilan belgilanadi.



Yuqorida aytib o‘tilgandek, istalgan cho‘zimdagi «kashish» ijro etilishida torga mediator yoki noxun yordamida bir necha bor zarb beriladi. Nota yozuvida esa quyidagicha belgilanadi:

Bitta zarbli «kashish»: 

Ikkita zarbli «kashish»: 








Uch yoki to‘rt va undan ortiq zarbli «kashish»: 






































Bunda zarblar erkin tarzda turlicha bo‘lishi mumkin. Tremolo uslubi





qo‘shilgan «kashish»ning belgilanishi: 




S.Taxalov o‘zbek xalq (an‘anaviy) musiqasining ijro bezaklari tizimining umumiy ko‘rinishini tasavvur qilish uchun quyidagi jadvalni keltiradi:


| t/r | Ijro bezaklari nomi | Belgilanishi | Sadolanishi |
|-----|---------------------------|--|--|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| I. | Forshlaglar | 1.  2.  3.  4.  5.  6.  7.  | 1.  2.  3.  4.  5.  6.  7.  |
| II. | Naxshlaglar (qo‘sh noxun) | I.  2.  | I.  2.  |

| | | | |
|--------------|---------------------|--|--|
| | | 3.  | 3.  |
| | | 4.  | 4.  |
| III. | Trel (bidratma) | 1.  | 1.  |
| | | 2.  | 2.  |
| | | 3.  | 3.  |
| | | 4.  | 4.  |
| IV. | Mordentlar (sayqal) | 1.  | 1.  |
| | | 2.  | 2.  |
| | | 3.  | 3.  |
| | | 4.  | 4.  |
| V. | To'liqinlatish | 1.  | |
| | | 2.  | |
| | | 3.  | |
| VI. | Nolish | 1.  | |
| | | 2.  | |
| | | 3.  | |
| VII. | Molish | 1.  | |
| | | 2.  | |
| | | 3.  | |
| VIII. | Yarim tonga kashish | 1.  | 1.  |
| | | 2.  | 2.  |
| | | 3.  | 3.  |
| IX. | Bir tonga kashish | 1.  | 1.  |

| | | | |
|--|--|--|--|
| | | 2.  | 2.  |
| | | 3.  | 3.  |

S.Taxalov ijro bezaklari bilan notaga tushirgan cholgʻu kuylaridan biri «Garduni Buzruk»ni misol tariqasida keltiramiz.





O‘zbekiston davlat konservatoriyasining professori Murod Toshmuhamedov (g‘ijjak uchun), dotsent Boqijon Rahimjonov (dutor uchun), professor Rifatilla Qosimov (qashqar rubobi va tanbur uchun) qator xalq kuylari va bastakorlar asarlarini notaga tushirib, o‘quv qo‘llanmalari yaratdilar. Ushbu qo‘llanmalarda ham xalq kuylarini notaga tushirishda qo‘llaniladigan turli ijro bezaklardan foydalanilgan hamda ularni ijro etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

Quyida aytib o‘tilgan qo‘llanmalardagi asarlardan namunalar keltiramiz.

Н.Кулабдуллаев мусиқаси.
 Қ.Комилов ва А.Худойқулов ижросидан
 Мурод Тошмухамедов нотага туширган
 (анъанавий ижрога хос ёзув асосида)

ЎЙЛАМАНГ

Moderato
vibr.

The image displays a musical score for guitar, consisting of five systems of two staves each. The music is written in a key with one sharp (F#) and a 2/4 time signature. The tempo is marked "Moderato" and the performance instruction "vibr." (vibrato) is present. The score includes various musical notations such as slurs, ties, and vibrato marks. Fingerings are indicated by numbers 1, 2, and 0. A dynamic marking of *p* (piano) is shown in the second system. The guitar part features a complex rhythmic pattern of eighth and sixteenth notes, often beamed together. The upper staff contains melodic lines with slurs and vibrato, while the lower staff provides a steady accompaniment. The fifth system concludes with a final chord and a fermata over the last note.

The image displays a musical score for guitar, consisting of three systems of staves. Each system includes a treble clef staff with a key signature of one sharp (F#) and a bass clef staff. The music is written in a rhythmic style, likely a waltz, with a 3/4 time signature. The first system features a melody in the treble staff with fingerings (1-2-, 1, 2-1, 2, 2, 1) and a bass line with a 'y' marking. The second system continues the melody with fingerings (2-1, 2, 1, 2-1, 2, 1) and a similar bass line. The third system shows a melodic line with a 'ten.' marking and a more active bass line. The score concludes with a double bar line.

СОФИНИЙ КЕЛИБСАН

Лирик характерда

Ш.Мирзаев музыкаси,
Р.Қосимов нотага олган.

The musical score is written for a string quartet in 4/4 time. It consists of four staves. The first staff is the Violin I part, starting with a treble clef and a key signature of one sharp (F#). The second staff is the Violin II part, also in treble clef. The third staff is the Viola part, in alto clef. The fourth staff is the Cello part, in bass clef. The score includes various musical notations such as notes, rests, slurs, and dynamic markings like *mf* and *p*. There are also some handwritten-style markings above the notes, possibly indicating phrasing or performance instructions. The piece begins with a repeat sign and a first ending bracket. The overall mood is lyrical, as indicated by the text 'Лирик характерда'.

The first system of musical notation consists of five staves. The top staff features a melodic line with eighth and sixteenth notes, some beamed together, and a fermata. The second staff continues the melody with similar rhythmic patterns. The third staff shows a more active melodic line with frequent sixteenth-note runs. The fourth staff is primarily composed of chords and rests, with some rhythmic markings above the notes. The fifth staff returns to a melodic line with eighth notes and rests.

The second system of musical notation consists of nine staves. The top staff has a melodic line with eighth notes and rests. The second staff continues with a similar melodic line. The third staff features a melodic line with eighth notes and rests, including some trills. The fourth staff has a melodic line with eighth notes and rests, including some trills. The fifth staff continues with a melodic line and rests. The sixth staff has a melodic line with eighth notes and rests, including some trills. The seventh staff features a melodic line with eighth notes and rests, including some trills. The eighth staff has a melodic line with eighth notes and rests, including some trills. The ninth staff concludes the system with a melodic line and rests, ending with a double bar line and a repeat sign.


O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist, mohir rubobchi sozanda Odiljon Nazarov o‘zining 2008 yilda nashr etilgan «Qashqar rubobida o‘qitish uslubiyoti» nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida musiqiy bezaklar va ularni ijro etish usullari masalasini atroflicha yoritib bergan. Bu risolada muallif musiqiy bezaklarning har-xil melizmlar va qochirimlardan iboratligini ta’kidlagan holda, ularning nota yozuvida aks ettirilishi hamda ijro etish usullarini tushunarli tarzda bayon qilgan. Qo‘llanmada ijro bezaklari keng tarqalgan, ko‘pchilikka tanish bo‘lgan kuylar misolida berilganligi e’tiborga loyiqdir.

* * *

O‘zbekiston Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi 1938 yilda tashkil topgan. Hozirgi kunda uyushmaning 120 nafardan ortiq a’zosi bor. O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari tomonidan turli janr va mavzularlardagi musiqa asarlari yaratilgan hamda bu ijodiy jarayon bugungi kunda davom etmoqda. Kompozitor va bastakorlarimiz yaratgan ajoyib musiqa asarlari nafaqat respublikamizda, balki dunyoning turli mamlakatlarida ijro etilib, tinglovchilar olqishlariga sazovor bo‘lmoqda.

Uyushma qo‘lyozmalar zahirasida uyzlab musiqa asarlarining qo‘lyozmalari saqlanib keladi. Atoqli kompozitor va bastakorlar doimo ijod bilan bandliklariga qaramasdan asar qo‘lyozmalariga jiddiy e’tibor qaratadilar. Ularning aksariyati asarlarning nota matnlarini uyqori professional darajasida o‘z dastxatlari bilan yozib qoldirganlar. Ushbu asarlar hozirda musiqa san’ati sohasida ta’lim olayotgan yoshlarimiz uchun katta maktab vazifasini o‘tamoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Atoqli kompozitor M. Burhonovning o'z dastxati bilan bitilgan «Noma'lum soldatga Marsiya» partituradan lavha:



Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. S.Taxalov qaysi cholg'ular bo'yicha talabalarga saboq bergan?
2. S.Taxalovning ilmiy ishi qaysi mavzuga bag'ishlangan?
3. Ijro bezaklari nomlaridan misol keltiring.
4. A.Eyxgorn o'zbek musiqasining qaysi xususiyatlari haqida fikr bildirgan?
5. N.Mironov o'zining ilmiy ishlarida ko'rsatgan milliy ijro bezaklaridan misol keltiring.
6. 1958 yilda M. Yusupov tomonidan qanday musiqiy meros nashr etildi?
7. Akademik Yunus Rajabiy to'plagan va notaga tushirgan cholg'u musiqasi va ashulalar soni tahminan qancha?
8. F.Karomatov xalq kuylarini notalashtirishda qo'llagan ijro bezaklaridan misol keltiring.
9. A.Kozlovskiy «Qo'shtor I,II» asarlarini notaga tushirishda qanday qo'shimcha chiziqdan foydalangan?
10. S.Taxalov tuzgan jadval qaysi mavzuga bag'ishlangan?
11. M.Toshmuhamedov xalq kuylarini qaysi cholg'u uchun notalashtirgan?
12. B.Rahimjonov notalashtirishni kimning ijrosi asosida amalga oshirgan?
13. R.Qosimov tanbur kuylarini notalashtirishda kimning ijrosiga asoslangan?
14. O.Nazarovning 2008 yilda nashr etilgan o'quv-uslubiy qo'llanmasi qanday nomlanadi?

Adabiyot:

1. Rajabiy Yu. O'zbek xalq musiqasi I,II jj., T., 1982.
2. Rajabiy Yu. Shashmaqom I,V jj., T., 1966-1973 yy.
3. Rajabov I. Sharq nota yozuvi tarixidan//Maqomlar T., 2006.
4. Tursunov R. Xalq musiqasini notalashtirish. O'quv qo'llanma. T., 2008.
5. Matyoqubov O., Boltaev R., Aminov H. «Xorazm tanbur chizig'i» Kitobxon uz. Sayti.
5. Taxalov S. Afg'on rubobini chalishga o'rgatish metodikasi asoslari T., 1983.
6. Taxalov S. Проблемы исполнения и нотной записи узбекской и таджикской традиционной инструментальной музыки. АКД, Т., 1991.

7. Taxalov S. О систематизации орнаментики узбекской традиционной музыки // кн. Вопросы музыковедения Узбекистана Т., 1982
8. Узбекские народные мелодии для кашгарского рубаба. (запись С.Тахалова) qo‘lyozma. Konservatorii kutubxonasi inv.1411
9. Узбекские народные мелодии для афганского рубаба. (запись С.Тахалова) qo‘lyozma. Konservatorii kutubxonasi inv.1896.
10. Toshmuhamedov M. G‘ijjakda an‘anaviy ijrochilikni o‘zlashtirish Т., 1999.
11. Rahimjonov B. Dutor navolari., O‘zbekiston xalq artisti Orif Qosimov repertuaridan, I,II kitoblar, Т. 1980-1983 уу.
12. Qosimov R. An‘anaviy rubob ijrochiligi Т., 1999.
13. Qosimov R. An‘anaviy tanbur ijrochiligi Т., 2002.
14. Nazarov O. Qashqar rubobida o‘qitish uslubiyoti Т., 2008.
15. Qodirov R. Ommabop musiqiy glossariy Т., Musiqa, 2014.

Internet saytlari:

1. <http://www.youtube.com>
2. <http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa>
3. wwwmusikauz
4. <http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami>
5. Kitobxon uz.

15-dars: USLUBIY KO'RSATMALAR

Biror kuyni notaga olishni nimadan boshlash kerak? Kuyni notaga olish ishi bilan shug'ullanishni endi boshlayotganlar oldida mana shu savol ko'ndalang turadi. Oldin aytib o'tilganidek, notalashtirish jarayonini tashkil qilish uchun talabada musiqa nazariyasi, solfedjio kabi fanlar bo'yicha bilimlarga ega bo'lish, biror musiqa cholg'usida chalish, ovozda kuylay olish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi lozim. Bunday bilim va ko'nikmalarsiz notalashtirishni umuman amalga oshirib bo'lmaydi.

Notalashtirishga kirishishning avvalida albatta, tanlangan kuyni diqqat bilan tinglanadi. SHu tinglash jarayonida kuyning o'lchovi, harakat yo'nalishi, tonalligini aniqlab, tovushlarning baland-pastligi, ya'ni ularning joylashgan o'rnini tasavvurimizda gavdalantiramiz. Mobodo birinchi tinglashda aytib o'tilganlarning birortasini aniqlay olmagan bo'lsak, kuyni takroran tinglash lozim bo'ladi. Kuyning qanday ohang bilan boshlanishi, uning rivojlanishi, ohangdagi takrorlashlar mavjudligini aniqlash ham muhim sanaladi.

Notaga tushirishni boshlaganda noto'g'ri, xato notalar yozib qo'yishdan cho'chish kerak emas, xato notalarni ikkinchi yoki uchinchi marta tinglaganda uni tuzatish imkoniyati tug'iladi. Notalashtirish amaliy mashqlarini qanchalik ko'p bajarilsa, bu boradagi tajriba ortib, avvaliga murakkab ko'ringan amallar keyinchalik osonlashib boradi.

YAna shuni ta'kidlash kerakki, kuyni tinglash vaqtida dirijyorlik qilish takt o'lchovi, har bir hissadagi tovushlarning cho'zimplari, harakat yo'nalishini to'g'ri aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, kuy ohangini ovozda kuylash ham o'zining samarali natijasini beradi.

Tajribadan shu narsa ma'lumki, talaba o'z mutaxassislik cholg'usida ijro etayotgan kuylarni yoddan notaga tushirishi notalashtirish ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Bunda mazkur asarlarni yoddan notaga tushirib, keyin uning qanchalik to'g'ri ekanligini notaning asl matni bilan solishtirish kerak. Ana shunda fan bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalar qanchalik to'g'ri o'zlashtirilayotgani ma'lum bo'ladi. Mazkur amalni muntazam takrorlab turish talaba tajribasini yanada mustahkamlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Kuyni notaga tushirish jarayonida quyidagilarga rioya qilish tavsiya etiladi:

1. Kuyning umumiy xarakterini aniqlash.
2. O'lcham va tonallikni to'g'ri aniqlash.

3. Notalarni to'g'ri yozish.

4. Dinamika belgilarini o'z joyiga qo'yish.

5. Foydalanilayotgan melizmlarni bir-biridan farqlash.

Quyida nota yozuviga oid ayrim ma'lumotlarni keltiramiz:

Melizmlar

Melizm atamasi qadimgi uynoncha «melos» so'zidan olingan bo'lib, qo'shiq, kuy ma'nosini anglatadi. Melizmlar – asosiy notaning bezagi bo'lgan yordamchi tovushlar bo'lib, avvalgi nota cho'zimi hisobiga ijro etiladi. Melizmlarga forshlag, mordent, trel, gruppettolar kiradi.

Forshlag – asosiy notadan oldin ijro etiladi, bir yoki bir nechta tovushdan iborat bo'lishi mumkin. Bitta tovushli forshlag – bayroqchasida chizig'i bor sakkiztalik kichik nota. Bir nechta tovushdan tashkil topgan forshlagni bayroqchasi chizilmagan o'n oltitalik kichik notalar bilan belgilanadi. Forshlaglar qisqa yoki uzun bo'lishi mumkin. Qisqa forshlag asosiy notadan oldin, avvalgi nota cho'zimi hisobiga ijro etiladi. Uzun forshlag asosiy nota hisobiga ijro etiladi va shu notaning yarmiga teng cho'zimni tashkil qiladi, asosiy nota esa bunda cho'zimi bo'yicha yarmiga qisqaradi.

Qisqa forshlag



Uzun forshlag



Mordent – uchta notadan iborat melizm: 1 – asosiy nota. 2 – yordamchi nota, 3 – asosiy nota. Mordent **bittalik** va **qo'shaloq** bo'lishi mumkin.

Bittalik mordent



yozilishi

ijro etilishi

yozilishi

ijro etilishi

Qo'shaloq mordent



yozilishi

ijro etilishi

yozilishi

ijro etilishi

Trel – ikki yonma-yon tovushlarning tez almashinuvi, bunda odatda pastki tovush asosiy, uyqoridagisi yordamchi hisoblanadi.



yozilishi

ijro etilishi

Gruppetto – ohangli bezak turi bo'lib, bir nechta – uyqori yordamchi, asosiy, pastki yordamchi hamda asosiy tovushlardan iborat bo'ladi.



yozilishi

ijro etilishi

yozilishi

ijro etilishi

Nota yozuvidagi qisqartirish belgilari

Qisqartirilgan nota yozuvi, ayniqsa bir xildagi taktlar takrorlanganda nota matnini o'qishni osonlashtiradi.

Repriza – taktlarning takrorlanishi. Bunda agar taktlarning qismi o'zgaradigan bo'lsa, takrorlashni ko'rsatuvchi raqamli volta belgisi qo'yiladi.



yozilishi ijro etilishi

Tremolo – ikki tovushni tez, bir maromda tarorlanishi:



yozilishi ijro etilishi

Notani oktavali qo‘shaloqlash uchun 8 raqami yoziladi, bu asosiy notaga shu nomdagi oktava balanddagi notani qo‘shish demakdir:



yozilishi ijro etilishi yozilishi ijro etilishi

Agar bir oktava uyqori ijro etish kerak bo‘lsa **8va** ————↵, bir oktava past ijro etish zarur bo‘lganda **8vb** ————↵ belgilari ishlatiladi. Tabiiyki, bunda ustidan chiziq o‘tgan notalargina oktavasi o‘zgartirib chalinadi. Mobodo 2 oktava uyqori yoki past ijro etish zarurati tug‘ilganda **15ma** —↵ yoki **15mb** ———↵ belgilaridan foydalaniladi.

Ijro etish uslublari

Ijro etish uslublari — nota matnini ijro etishning maxsus uslublari: legato, stakkato, arpedjiato va glissando.

Legato – nota matnida ko‘rsatilgan tovushlarni bir-biriga bog‘lab, ulab chalishni ko‘zda tutadi, nota sadolarining biri ikkinchisi bilan bog‘lanadi, yoy shaklidagi chiziq bilan belgilanadi.



Stakkato – notalarni qisqa, uzib chalish, nota usti yoki ostidagi nuqta bilan belgilanadi. **Stakkatissimo** – o‘ta qisqa, uzib ijro etiladi, uchburchak shaklidagi belgi bilan ko‘rsatiladi.



Arpedjiato – akkord notalarini tez uyqoridan pastga yoki pastdan uyqoriga oldinma-ketin ijro etish, to‘lqinsimon vertikal chiziq bilavn belgilanadi.



Glissando – bir notadan ikkinchisiga qarab sirg‘alib harakat qilish.



Musiqa asarlarini notalashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari xalq xo‘jaligining barcha sohalari kabi musiqa va san‘at sohasida ham keng qo‘llanilmoqda. Bunga misol sifatida musiqani notaga tushirish jarayonida qo‘llanilayotgan Encore, Sibelius, Final va boshqa nota muharrirlarini keltirish mumkin. Aytib o‘tilgan nota muharrirlari bo‘yicha shu kungacha o‘zbek tilida maxsus o‘quv qo‘llanmalar mavjud emasligi sababli foydalanuvchilar bor imkoniyatlardan foydalanib, bu dasturlarda ishlab kelishar edi.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasidagi barcha ta‘lim yo‘nalishlarida «Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish» fani o‘tiladi. Mana shu fan doirasida 2016 yili N.Umurov tomonidan o‘zbek tilida «Sibelius 4, Sibelius 6 nota muharrirlarida ishlash masalalari» nomli o‘quv qo‘llanma yaratildi va nashrdan chiqdi. O‘quv qo‘llanma eng ommabop nota muharrirlaridan biri Sibelius dasturini o‘rganishga, unda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga bag‘ishlangan. Qo‘llanmada nota hujjatlarini yaratish, ular bilan ishlashga doir asosiy mavzular, nota matniga ishlov berish yo‘llari bo‘yicha batafsil uslubiy ko‘rsatmalar berilgan. SHu bilan birga, qo‘llanmada ayrim mulohazalar bildirilganki, biznigcha ular ayniqsa talabalar uchun foydadan holi emas.

Masalan, axborot texnologiyalari va texnik vositalar bilan ishlash malaka va ko‘nikmalarini oshirib borish talabalarga keng imkoniyatlar va qulayliklarni taqdim etmoqda. Lekin bu imkoniyatlardan foydalanayotganlar «kompuyter inson uchun, inson kompuyter uchun emas» degan g‘oyani esdan chiqarimasliklari lozim. CHunki talabalar o‘z ijodlari davomida axborot texnologiyalari va zamonaviy kompuyter dasturlariga bog‘lanib qolib, ularsiz mehnat qilishga qiynalmoqdalar.

Nota muharrirlarini o‘rganish va ijodiy jarayonda ulardan unumli foydalanish juda zarur. Sababi bunda ishning sifati ham, natijadorligi ham oshadi, talaba o‘zining musiqa bo‘yicha savodxonligini oshiradi. SHu bilan birga mazkur vositalardan noto‘g‘ri foydalanish salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari va ularni qo‘llash usullarini muvozanatda saqlash talabani bu sohadagi faoliyatini samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Quyida Sibelius dasturida terilgan nota matnlaridan misollar keltiramiz.

ILG‘OR

O‘zbek xalq kuyi
Farhod Alimov qayta ishlagan
Notaga oluvchi va rubob-prima partiyasining muharriri
N. Sharipov

Tez, o‘ynoqi

10 *sempre*

19

27

4

N. *sp molto cresc.*

Q. *sp molto cresc.* **f**

Ch.I *sp molto cresc.* **mp**

Ch.II *sp molto cresc.* **mp**

P.r. *sp molto cresc.* **f**

Q.r. *sp molto cresc.* **f**

A.r. *sp molto cresc.* **f**

D.a. *sp molto cresc.* **f**

D.b. *sp molto cresc.* **mf**

Dr. *sp molto cresc.* **mf**

D. *sp molto cresc.* **mf**

G'.I *sp molto cresc.* **mf** pizz.

G'.II *sp molto cresc.* **mf** pizz.

G'.a. *sp molto cresc.* **mf**

Q.b. *sp molto cresc.* **mf**

Q.kb. *sp molto cresc.* **mf**

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Notalashtirish amaliyotini tashkil qilish uchun talaba qaysi fanlardan bilimga ega bo'lishi kerak?
2. Talaba notaga olgan kuyni to'g'riligini tekshirib ko'rish uchun qanday amal bajarilishi zarur?
3. Melizm so'zining ma'nosi nimani anglatadi?
4. Forshlagning qanday turlari mavjud?
5. Qanday mordent turlari bor?
6. Gruppetto qanday bezak turi?
7. Nota yozuvini qisqartirish belgilariga misol keltiring.
8. Akkord tovushlarini pastdan uyqoriga yoki uyqoridan pastga oldinma-ketin ijro etish nima deb ataladi?
9. «Glissando» qanday ijro etiladi?
10. Nota muharrirlari nomlarini ayting.
11. N.Umurovning 2016 yil nashr qilingan o'quv qo'llanmasining qanday nomalanadi?
12. Nota muharrirlaridan noto'g'ri foydalanish qanday natijalarga olib kelishi mumkin?

Adabiyot:

1. Rajabov I. Sharq nota yozuvi tarixidan. T., 2006.
1. Tursunov R. Xalq musiqasini notalashtirish. O'quv qo'llanma. T., 2008.
2. Rajabova N. Solfedjio. O'quv qo'llanma. T., 2004.
3. Ibrohimov O., Yunusov R. Solfedjio. O'quv qo'llanma. T., 2004.

Internet saytlari:

1. <http://www.youtube.com>
2. <http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa>
3. wwwmusikauz
4. <http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami>
5. <https://www.kakprosto.ru/kak-862991-kak-zapisat-melodiyu-nanoty#ixzz6cWnqoeBr>
6. <http://vladimir-kovalev.blogspot.ru>; <http://tdmaestro.ru/blog>
7. <https://www.kakprosto.ru/kak-811497-kak-pisat-diktanty--posolfedzhio#ixzz6oXR7Sif1>
8. <https://www.kakprosto.ru/kak-33663-kak-provodit-iktanty#ixzz6oXR0r6c0>

TEST SAVOLLARI

1. Musiqaning asosiy birligi, uning «mag'izi» nima?
 - A. Nota
 - B. Shtrix
 - C. Ohang
 - D. Dinamika
2. Eng murakkab nota yozuvining nomi – bu
 - A. Klavir
 - B. Partitura
 - C. Ohang
 - D. Dinamika
3. «Xalq kuylarini notalashtirish» fani asosan qaysi turdosh predmetlar bilan bog'liq?
 - A. Musiqa nazariyasi, solfedjio
 - B. Tarix
 - C. Adabiyot
 - D. Jismoniy tarbiya
4. Kuyni notalashtirish nimadan boshlanadi?
 - A. Kuyni tinglashdan
 - B. Kuyning tempini aniqlashdan
 - C. Tahlildan
 - D. Kuylashdan
5. «Nevma» atamasi qanday ma'noni anglatadi?
 - A. Nota chizig'i
 - B. Dinamika belgisi
 - C. Temp
 - D. Belgi, ishora
6. Nota yozuvi, notatsiya atamalarining ma'nosi -
 - A. Ijro etish
 - B. Yozib olish, belgilash
 - C. Kuylash
 - D. O'qish

7. Suriya hududidan topilgan qadimiy taxtachalar nimadan yasalgan?

- A. Daraxtdan
- B. Temirdan
- C. Loydan
- D. Matodan

8. Harfli notatsiya qaysi mamlakatda paydo bo'lgan?

- A. Qadimiy Yunonistonda
- B. Suriyada
- C. Misrda
- D. Eronda

9. Harfli notatsiyada qaysi til harflaridan foydalanilgan?

- A. Yunon, lotin
- B. Arabcha
- C. Ruscha
- D. Inglizcha

10. XVII asrda tamomila shakllangan zamonaviy nota tizimi qaysi namunaga asoslangan?

- A. Yunon
- B. Arab
- C. Rus
- D. Ingliz

11. Tovush balandligini ko'rsatuvchi yunon harflari qaysi harflarga almashtirildi?

- A. Ruscha
- B. Arabcha
- C. Lotincha
- D. Inglizcha

12. Nevma nota belgilari qanday shaklda bo'lgan?

- A. Doira
- B. Kvadrat
- C. Uchburchak
- D. To'rtburchak

13. Gvido d'Aretstso (Aretinskiy) nimani ixtiro qilgan?
- A. Chiziqlarni
 - B. Belgilarni
 - C. Notalarni
 - D. Nota chiziqlari va bo'g'inlar solmizatsiyasini**
14. Gvido d'Aretstso (Aretinskiy) nota chiziqlarini nechtagacha ko'paytirdi?
- A. Oltitagacha
 - B. Uchtagacha
 - C. To'rttagacha**
 - D. Ikkitagacha
15. Skripka kaliti lotincha qaysi harf shakliga asoslangan?
- A. C harfiga
 - B. G harfiga**
 - C. O harfiga
 - D. U harfiga
16. «Gvidon qo'li» insonning qaysi qo'liga asoslangan?
- A. Chap qo'liga**
 - B. O'ng qo'liga
 - C. O'ng va chap qo'lga
 - D. O'ng qo'lning barmog'iga
17. Gotik notatsiya qachon ishlab chiqilgan?
- A. XI asrda
 - B. X asrda
 - C. XIII asr boshlarida**
 - D. IX asrda
18. Gotik notatsiya tizimiga xos bo'lgan belgi nimaga o'xshaydi?
- A. Doiraga
 - B. Otni taqalaytigan mixga**
 - C. Uchburchakka
 - D. To'rtburchakka

19. Tabulatura atamasining ma'nosi -

- A. Chiziq
- B. Doira
- C. To'rtburchak
- D. Taxta, jadval

20. Nota qanday vazifani bajaruvchi ramz?

- A. Tovushning kuchini belgilaydi
- B. Musiqa asaridagi tovushning grafik tarzda belgilaydi
- C. Tovushning sifatini belgilaydi
- D. Tovush chiqarish uslubini belshilaydi

21. Qadimiy nota to'plamlari yig'ilgan muzey qaysi shaharda?

- A. Londonda
- B. Parijda
- C. Kopengagen
- D. Moskvada

22. F.Buzoni yaratgan nota yozuvi nechta chiziqli?

- A. 4 ta chiziqli
- B. 1 ta chiziqli
- C. 2 ta chiziqli
- D. 6 ta chiziqli

23. Quyidagi atamalardan qaysi biri zamonaviy musiqani aks ettiradi?

- A. Klassik
- B. Atonal
- C. Folklor
- D. Xalq kuylari

24. XX asr notatsiyasidagi yangiliklardan biri –

- A. Tovush balandligi ko'rsatilgan
- B. Grafik yozuvlar
- C. Tovush balandligi ko'rsatilmagan
- D. Notalarni klassik asosda yozilishi

25. Dodekafoniya soʻzi faysi tildan olingan?

- A. Nemischa
- B. Italyancha
- C. Fransuzcha
- D. Yunoncha

26. Dodekafoniya soʻzining maʼnosi –

- A. Oʻn tovush
- B. Dodeka – oʻn ikki, phone – tovush
- C. Olti tovush
- D. Yetti tovush

27. Dodekafoniyada nechta tovush ishlatiladi?

- A. Oktavaning 7 tovushi
- B. Oktavaning 9 tovushi
- C. Oktavaning barcha 12 toni
- D. Oktavaning faqat asosiy tonlari

28. Aleatorika qaysi tildan olingan soʻz?

- A. Fransuzcha
- B. Italyancha
- C. Nemischa
- D. Lotincha

29. Aleatorika nimaga suyanadi?

- A. Nota matni va musiqa shaklining beqarorligiga
- B. Musiqaning anʼanaviy talqiniga
- C. Atonal musiqaga
- D. Klassik musiqaga

30. XX asr musiqasida koʻproq sanʼatning qaysi turiga yaqinlashish seziladi?

- A. Kino sanʼatiga
- B. Folklorga
- C. Teatr sanʼatiga
- D. Amaliy sanʼatga

31. Abu Nasr Farobiyning musiqaga bagʻishlangan eng mashhur asarining nomi?

- A. Musiqa ritm doiralari
- B. Maqsad ul-alhon
- C. Husayniy
- D. Katta musiqa kitobi**

32. Farobiyga qadar musiqa nazariyasi bilan kim shug‘ullangan?

- A. Al-Urmaviy
- B. Al Kindiy**
- C. Abdulqodir Marog‘iy
- D. Jomiy

33. Farobiyning ixtiro qilgan cholg‘u manbalarda qanday nomlangan?

- A. Doira
- B. Nay
- C. Chang
- D. Qonun, g‘ichchak, ud**

34. Farobiyning fikricha musiqa insonga nima beradi?

- A. Eng uyqori ma’naviy ozuqa**
- B. Tafakkur qilish uchun imkoniyat
- C. Aqliy faoliyatni faollashtiradi
- D. Barkamollikka chorlaydi

35. Safiuddin al-Urmaviy qaysi cholg‘uda mohirlik bilan chalar edi?

- A. Nayda
- B. Ud cholg‘usida**
- C. G‘ijjakda
- D. Rubobda

36. Safiuddin al-Urmaviy kamonli nechta cholg‘uni ixtiro qilgan?

- A. Beshta
- B. Uchta
- C. To‘rtta
- D. Ikkita**

37. Safiuddin al-Urmaviy yozgan ikkita kitobining nomi qaysi variantda to‘g‘ri berilgan?

- A. Musiqa haqida katta kitob va Sharafiya

- B. Sharafiya va Mug'niy
- C. Sharafiya va Musiqa va ritm doiralari**
- D. Musiqa va ritm doiralari va Musiqa haqida katta kitob

38. Safiuddin al-Urmaviy nazariy qarashlarini isbotlash uchun qanday amallarni bajargan?

- A. Musiqa asarlarida ton hosil etadigan manbalarni tahlil qilgan
- B. Sharq xalqlari kuylaridan 2 tasini jadvallashtirgan, dastlabki nota yozuvlarini ixtiro qilgan**
- C. Cholg'u sozlarini o'rgangan
- D. Cholg'uda kuylar ijro etgan

39. Safiuddin al-Urmaviy kitobida ritmlar (davrlar) qanday shaklda ko'rsatilgan?

- A. To'g'ri chiziq shaklida
- B. Uchburchak shaklida
- C. To'rtburchak shaklida
- D. Doira shaklida**

40. Ingliz olimi Genri Jorj Farmer Safiuddin al-Urmaviy musiqa san'atiga nimalar kiritgan?

- A. Yangi cholg'ular
- B. Yangi uslub va qoidalar**
- C. Yangi kuy va qo'shiqlar
- D. Yangi fikrlar

41. Abdulqodir Marog'iy qaysi shahardagi saroyda xizmat qilgan?

- A. Samarqanddagi**
- B. Buxorodagi
- C. Xivadagi
- D. Qo'qondagi

42. Abdulqodir Marog'iyning qaysi asari mashhur bo'lgan?

- A. Musiqa haqida katta kitob
- B. Sharafiya
- C. Kuylar mazmuni**
- D. Musiqa va ritm doiralari

43. Abdulqodir Marog‘iyning tizimlashtirgan 24 shu‘baning tovushqatori nimani aks ettiradi?

- A. Xalq ashularini
- B. Xalq kuylarini**
- C. Folklor kuylarini
- D. Cholg‘uda kuylarini

44. Abdulqodir Marog‘iy turkiy xalqlarning nechta turkumli kuylari mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumot bergan?

- A. 10 ta turkumli
- B. 6 ta turkumli
- C. 8 ta turkumli
- D. 9 ta turkumli**

45. Abdulqodir Marog‘iy xalq kuylarini qaysi an‘anaga asosan notalashtirgan?

- A. Sharq an‘anasiga**
- B. Yevropa an‘anasiga
- C. Mahalliy an‘anaga
- D. G‘arb an‘anasiga

46. «Xorazm tanbur chizig‘i» risolasida keltirilishicha xonanda va sozandalar nimani belgilash yo‘llarini izlaganlar?

- A. Cholg‘u asoslarini
- B. Kuy asoslarini
- C. Parda asoslarini**
- D. Ritm asoslarini

47. «Xorazm tanbur chizig‘i» kitobi bo‘yicha kuylar nima yordamida yozilgan?

- A. Cholg‘u torlari va dastadagi pardalarning shartli belgilari yordamida**
- B. Cholg‘u yordamija
- C. Ijroga asoslangan
- D. Ashula matni yordamida

48. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz san‘atning qaysi turiga ishqiboz bo‘lgan?

- A. Rassomchilikka
- B. Musiqaga**
- C. Amaliy san'atga
- D. Teatr san'atiga

49. Feruz kuylar ijod etganmi?

- A. Ashula matnlarini yozgan
- B. Sozlar ixtiro qilgan
- C. G'azallar yozgan
- D. Feruz kuylar ijod etgan**

50. Pahlavonniyoz Mirzaboshi Komil Xorazmiy asosan qaysi sohada e'tirof etilgan?

- A. She'riyat sohasida
- B. Amaliy san'at sohasida
- C. Musiqashunoslik sohasida**
- D. Ashulachilik sohasida

51. Tanbur chizig'ida tanbur cholg'usining nechta pardasiga asoslanib gorizontal chiziqlar chiziladi?

- A. 16 ta
- B. 18 ta**
- C. 14 ta
- D. 20 ta

52. Tanbur notasini o'qilish yo'nalishi qanday?

- A. O'ngdan chapga**
- B. Chapdan o'ngga
- C. Yuqoridan pastga
- D. Pastdan uyqoriga

53. Tanbur chizig'idagi nuqtalar nimani bildiradi?

- A. Pardalar miqdorini
- B. Tovush kuchini
- C. Noxun zarblari miqdorini**
- D. Tovush yo'nalishini

54. Feruz saroyidagi xattotlar nimadan xabardor bo'lishlari kerak edi?

- A. Xattotlikdan
- B. Sozandalik sir-asrorlaridan**
- C. Xonandalikdan
- D. She'riyatdan

55. Bugungi kunda Xorazm notasining nechta nusxasi ma'lum?

- A. 17 ta
- B. 19 ta
- C. 20 ta
- D. 18 ta**

56. Kim «Mexanik fortepiano» yordamida kuy va qo'shiqlarni yozib olgan?

- A. Qalandar Do'nmas**
- B. Mulla Ismoil
- C. Muhammad Yoqub
- D. Komil Xorazmiy

57. Mullo Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodalar yozgan kitob qanday nomlanadi?

- A. O'zbek musiqa tarixi
- B. Xorazm musiqiy tarixchasi**
- C. Xorazm tanbur chizig'i
- D. Xorazm maqomlari

58. Ye.Romanovskaya va I.Akbarovlar tomonidan fonograf asosida notalashtirilgan kitob qanday nomlanadi?

- A. Xorazm dostonlari
- B. Surnay yo'llari
- C. Xorazm Tanbur va Dutor maqomlari
- D. Xorazm klassi musiqasi**

59. Ye.Romanovskaya va I.Akbarovlar tomonidan xoram maqomlari kimning ijrosida yozib olingan?

- A. Qalandar Do'nmas ijrosida
- B. Komil Xorazmiy ijrosida
- C. Matyusuf Xarrot ijrosida
- D. Matyoqub Xarrot ijrosida**

60. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga taqdim qilgan kitob qanday nomlanadi?

- A. Xorazm dostonlari
- B. Surnay yo‘llari
- C. Xorazm Tanbur va Dutor maqomlari
- D. Xorazm klassi musiqasi

61. Ye.Romanovskayaning I.Akbarov bilan hamkorlikda 1948 yilda nashr etilgan kitobi qanday ataladi?

- A. O‘zbek cholg‘u musiqasi
- B. Surnay yo‘llari
- C. Xorazm Tanbur va Dutor maqomlari
- D. Xorazm klassi musiqasi

62. V.Uspenskiy 1923 yilda Buxoroda Shashmaqomni bevosita kimlar ijrosida notaga olgan?

- A. Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijrosida
- B. Yunus Rajabiy ijrosida
- C. Matyusuf Xarrot ijrosida
- D. Ota Jalol va Ota G‘iyoslar ijrosida

63. Buxoroda Shashmaqomni notaga olish ishlariga kim nozirlik qilgan?

- A. Ilyos Akbarov
- B. Abdurauf Fitrat
- C. Viktor Uspenskiy
- D. Viktor Belyaev

64. Ilyos Akbarovning asosiy ilmiy mavzusi nimaga bag‘ishlangan edi?

- A. Xorazm dostonlari
- B. Surnay yo‘llari
- C. Xorazm nota yozuvi
- D. Xorazm cholg‘u musiqasi

65. Yunus Rajabiy tizimlashtirgan va notaga olgan xalq kuy va qo‘shiqlarining soni?

- A. Bir yarim mingdan ortiq
- B. Ikki yarim mingta

C. Mingdan ortiq

D. Uch mingta

66. Yunus Rajabiy 1916 yilda tanishgan xalq xofizi kim?

A. Hoji Abdulaziz Abdurasulov

B. Rizqi Rajabiy

C. Matyusuf Xarrot

D. Shorahim Shoumarov

67. Yunus Rajabiy xonandalik san'atini kimdan o'rgandi?

A. Hoji Abdulaziz Abdurasulovdan

B. Ota Jalol va Ota G'iyosdan

C. Matyusuf Xarrotidan

D. Mulla To'ychi Toshmuhamedovdan

68. Yunus Rajabiy talabalik yillarida qaysi cholg'ularda o'qidi?

A. Rubob va chang

B. Surnay va g'ijjak

C. Dutor va nay

D. Tanbur va ud

69. Yu.Rajabiyning ko'p jilddik «O'zbek xalq musiqasi» nomli kitoblari yildan boshlab nashr etilgan?

A. 1920 yildan boshlab

B. 1939 yildan boshlab

C. 1940 yildan boshlab

D. 1938 yildan boshlab

70. Yunus Rajabiy qaysi rus kompozitorlari bilan iliq munosabatda bo'lgan?

A. D.Kabalevskiy va D.Shostakovichlar bilan

B. D.Kabalevskiy va G.Sviridovlar bilan

C. D.Shostakovich va G.Sviridovlar bilan

D. S.Prokofyev va G.Sviridovlar bilan

71. Yunus Rajabiyning «O'zbek xalq musiqasi» nomli ko'p jildlik kitoblarining har biridagi asarlar soni nechta?

A. 100 dan ortiq

B. 200 dan ortiq

- C. 350 ta
- D. 300 dan ortiq

72. Yunus Rajabiy B.Nadejdin, V.Uspenskiy, G.Mushel bilan hamkorlikda musiqa bastalagan musiqali dramalar qanday ataladi?

- A. Muqanna, Navoiy
- B. Navoiy, Muqimiy
- C. Muqanna, Qasos
- D. Navoliy, Muqimiy

73. S.Taxalov qaysi cholg'ular bo'yicha talabalarga saboq bergan?

- A. G'ijjak, dutor
- B. Nay, chang
- C. Dutor, g'ijjak
- D. Qashqar rubobi, afg'on rubobi, tanbur

74. F.Karomatov xalq kuylarini notalashtirishda qo'llagan ijro bezaklaridan misol keltiring.

- A. Pastga zarb
- B. Yuqoriga zarb
- C. Tovushni uyqoriga ko'tarish (+), pastga tushirish (-)
- D. Stakkato

75. A.Kozlovskiy «Qo'shtor I,II» asarlarini notaga tushirishda qanday qo'shimcha chiziqdan foydalangan?

- A. Dutorning pastga zarbini belgilash uchun
- B. Dutor qorin qopqog'iga amalga oshirilgan zarbni yozish uchun
- C. Dutoridagi terma zarbni belgilash uchun
- D. Dutoridagi teskari zarbni belgilash uchun

76. S.Taxalov tuzgan jadval qaysi mavzuga bag'ishlangan?

- A. Ijro bezaklariga
- B. Ijro uslublariga
- C. O'ng qo'l harakatlariga
- D. Chap qo'l harakatlariga

77. M.Toshmuhamedov xalq kuylarini qaysi cholg'u uchun notalashtirgan?

- A. Tanbur uchun

- B. Nay uchun
- C. Dutor uchun
- D. G'ijjak uchun

78. B.Rahimjonov notalashtirishni kimning ijrosi asosida amalga oshirgan?

- A. Mahmud Yunusovning
- B. Zokirjon Obidovning
- C. Orif Qosimovning
- D. Abdusamad Ilyosovning

79. R.Qosimov tanbur kuylarini notalashtirishda kimning ijrosiga asoslangan?

- A. Risqi Rajabiyning
- B. Turg'un Alimatovning
- C. Yunus Rajabiyning
- D. Abdulla Umarovning

80. O.Nazarovning 2008 yilda nashr etilgan o'quv-uslubiy qo'llanmasi qanday nomlanadi?

- A. Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti
- B. Dutorida o'qitish uslubiyoti
- C. Tanburda o'qitish uslubiyoti
- D. Nayda o'qitish uslubiyoti

80. Notalashtirish amaliyotini tashkil qilish uchun talaba qaysi fanlardan bilimga ega bo'lishi kerak?

- A. Tarix
- B. Adabiyot
- C. Musiqa nazariyasi va solfedjio
- D. Ona tili

81. Talaba notaga olgan kuyni to'g'riligini tekshirib ko'rish uchun qanday amal bajarilishi zarur?

- A. Kuyni yoddan chalish
- B. O'z cholg'usida ijro etayotgan kuylarni yoddan notaga tushirishi hamda uning qanchalik to'g'ri ekanligini notaning asl matni bilan solishtirish kerak.
- C. Kuyni tahlil qilish
- D. Kuning tonalligini aniqlash

82. Melizm soʻzining maʼnosi nimani anglatadi?

- A. Raqs
- B. Ariya
- C. Tovush kuchi
- D. Kuy, qoʻshiq

83. Forshlagning qanday turlari bor?

- A. Davomli
- B. Zaif
- C. Qisqa va uzun
- D. Asosiy va yordamchi

84. Nota yozuvini qisqartirish belgilariga misol keltiring.

- A. Stakkato
- B. Repriza, segno
- C. Fermata
- D. Legato

85. Akkord tovushlarini pastdan uyqoriga yoki uyqoridan pastga oldinma-
ketin ijro etish nima deb ataladi?

- A. Arpedjiato
- B. Stakkato
- C. Legato
- D. Non legato

86. «Nota» soʻzi qanday maʼnoni anglatadi?

- A. Musiqa
- B. Ohang
- C. Belgi
- D. Kuy

87. «Glissando» qanday ijro etiladi?

- A. Tovushlar ajratib ijro etiladi
- B. Bir notadan ikkinchisiga qarab sirgʻalib ijro etiladi
- C. Zarb bilan ijro etiladi
- D. Tovushlar ulanib ijro etiladi.

88. Eng ommabop nota muharririning nomi

- A. Encore
- B. Final
- C. Encore-2
- D. Sibelius

89. N.Umurovning 2016 yil nashr qilingan o‘quv qo‘llanmasining qanday nomalanadi?

- A. «Sibelius 4, Sibelius 6 nota muharrirlarida ishlash masalalari»
- B. «Final nota muharririda ishlash masalalari»
- C. «Axborot texnologiyalari»
- D. «Kompuyterda ishlash»

90. Nota muharrirlaridan noto‘g‘ri foydalanish qanday natijalarga olib kelishi mumkin?

- A. Ijobiy
- B. Oddiy
- C. Salbiy
- D. Murakkab

Test javoblari

| | | | | | | | | |
|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| C | B | A | A | D | B | C | A | A |
| 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 | 18 |
| A | C | B | D | C | B | A | C | B |
| 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 |
| D | B | C | D | B | C | D | B | C |
| 28 | 29 | 30 | 31 | 32 | 33 | 34 | 35 | 36 |
| D | A | C | D | B | D | A | B | D |
| 37 | 38 | 39 | 40 | 41 | 42 | 43 | 44 | 45 |
| C | B | D | B | A | C | B | D | A |
| 46 | 47 | 48 | 49 | 50 | 51 | 52 | 53 | 54 |
| C | A | B | D | C | B | A | C | B |
| 55 | 56 | 57 | 58 | 59 | 60 | 61 | 62 | 63 |
| D | A | B | D | D | C | A | D | B |
| 64 | 65 | 66 | 67 | 68 | 69 | 70 | 71 | 72 |
| C | A | D | D | C | B | A | B | C |
| 73 | 74 | 75 | 76 | 77 | 78 | 79 | 80 | 81 |
| D | C | B | A | D | C | B | C | B |
| 82 | 83 | 84 | 85 | 86 | 87 | 88 | 89 | 90 |
| D | C | B | A | C | B | D | A | C |

X U L O S A

Xalq kuylarini notalashtirish o'ziga xos jarayon bo'lib, u xalq musiqasining butun jihatlari, jozibasi va nafis sadolanishlarini to'liq ochib bera olmasligi mumkin. Lekin, shunga qaramasdan, hozirda ta'lim olayotgan yosh sozandalar notalashtirish sirlarini puxta o'rganib, bu jarayonning xususiyatlarini o'zlashtirishlari kelajakda ularning har taraflama yetuk sozanda-san'atkor bo'lib faoliyat uyritishlari uchun asosiy omillardan biri vazifasini o'taydi.

Hozirgi kunda o'zbek xalq cholg'u ijrochiligi tobora rivojlanib bormoqda. SHu bilan birga xalq kuylarini ijro etish jarayonida ham ijobiy tomonga o'zgarish kuzatilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, xalq kuylari ijrochiligida yangidan-yangi jilolar, mohir sozanda-cholg'uchilar tomonidan bu merosimizning yangi qirralari ochilmoqda. Milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi bo'lgan xalq kuylarini kelajak uchun asrab-avaylab, saqlab qolish, ularning matnlarini notaga tushirish ishlarini amalga oshirish o'sib kelayotgan yosh avlodning oldida turgan ulkan va sharaflil vazifalaridan biridir.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| 1-dars: KIRISH | 3 |
| 2-dars: XALQ KUYLARINI NOTALASHTIRISH FANINING MAZMUNI VA AHAMIYATI. | 5 |
| 3-dars: FANNING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI. | 9 |
| 4-7-darslar: NOTA YOZUVI BO‘YICHA TARIXIY MA‘LUMOTLAR. ... | 14 |
| 8-11-darslar: SHARQ MUTAFAKKIRLARINING XALQ KUYLARINI O‘RGANISH BO‘YICHA FAOLIYATLARI. | 32 |
| 12-14-darslar: XIX-XX ASRDA KUYLARNI NOTALASHTIRISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA OLIB BORILGAN ISHLAR. ... | 40 |
| 15-dars: USLUBIY KO‘RSATMALAR. | 102 |
| TEST SAVOLLARI. | 113 |
| XULOSA. | 130 |

NIG‘MATJON SOTIBOLDIYEVICH SHARIPOV

**XALQ KUYLARINI
NOTALASHTIRISH**

(Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik)